

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MTU**

**«FIZIKA VA KIMYO» KAFEDRASI**

**Beknozarova Zamira Farmanovna**

**Misirov Shirazi Choriyevich**

## **F I Z I K A**

**(Mexanika, molekulyar va termodinamika, I-qism)**

## **D A R S L I K**

**TOSHKENT – 2023**

*Ushbu darslik, Milliy tadqiqot universiteti rektorining 202\_\_yil \_\_\_\_\_dagi  
\_\_\_\_\_ - sonli buyrug‘i asosida chop etishga tavsiya etildi.  
Ruyxatga olish raqami \_\_\_\_ a/f - \_\_\_\_*

**Tuzuvchilar:** **Beknozarova Zamira Farmanovna** — “Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqotlar Universiteti “Fizika va kimyo” kafedrasi dotsent v.b. pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori.

**Misirov Shirazi Choriyevich**— O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuclari Akademiyasi Tabiiy fanlar kafedrasi dotsent, texnika fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:** **U.R.Rustamov** – Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti ”Fizika va oq’itish metodikasi” kafedrasi dotsent v.b. fizika-matemetika fanlari nomzodi.

**SH. Shoyusupov** – “TIQXMMI”, MTU dotsenti.

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizashiyalash muxandislari instituti” MTY - 2023 yil**

## **ANNOTATSIYA**

*Ushbu darslik, "TIQXMMI" MTU rektori tomonidan tasdiqlangan fan dasturlari asosida yozilgan bo'lib, barcha bakalavriyatning texnika ta'lif yo'naliшlarida tahlil olayotgan oliy talim muassasasi talabalari uchun mo'ljallangan. Darslikda, umumiy fizika kursining mexanika, molekulyar va termodinamika asoslari bo'limlariga tegishli nazariy ma'lumotlar, masala yechilish namunalari va fizikaviy o'zgarmas kattaliklar berilgan. Har bir bob kasbiy yo'naltirilgan nazorat savollari bilan yakunlangan.*

## **ANNOTATION**

*The textbook is written on the basis of scientific programs approved by the rector of MTU "TIKKhMMI" and is intended for students of higher educational institutions studying in all areas of undergraduate technical education. The textbook contains theoretical information, examples of problem solving and physical invariants related to the sections of mechanics, molecular and thermodynamics of the general physics course. Each chapter ends with professionally oriented review questions.*

## **АННОТАЦИЯ**

*Учебник написан на основе научных программ, утвержденных ректором МТУ «ТИКХММИ» и предназначен для студентов высших учебных заведений, обучающихся по всем направлениям бакалавриата технического образования. Учебник содержит теоретические сведения, примеры решения задач и физические инварианты, относящиеся к разделам механики, молекулярной и термодинамики курса общей физики. Каждая глава заканчивается профессионально ориентированными контрольными вопросами.*

## **SO‘Z BOSHI**

Darslik keng qamrovli tarzda yozilgan bo‘lib, nazariyaning mazmuniy ifodasi barcha texnik yo‘nalishdagi talabalar uchun ham tushunarli. Fizika to‘g’risida uning asosiy zamonaviy ilm-fan sifatidagi yaxlit tushunchasini shakllantiradi. Darslikda ko‘plab amaliy misollar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati fizik jarayonlarning texnikadagi va harbiy ishdagi har xil qo‘llanilishlari amalga oshirilishini ochib beradi, bu esa, birinchi navbatda kursantlarda, hamda o‘qituvchilarda fanga qiziqish o‘yg’otadi.

Darslik rivojlantiruvchi va muammoli ta‘lim usullarini qo‘llagan holda jonli, qulay tilda yozilgan: ifoda etishning diologik xarakteri, savollar va kichik masalalarning suhbatdosh tabiatiga mosligi, amaliyotdan qiziqtiruvchi misollar va boshqalar. Har bir bob kasbiy yo‘naltirilgan nazorat savollari, masalalar va ularni yechish namunalari bilan yakunlangan.

Darslik davlat ta’lim standarti tomonidan oliy talimda mutaxassislar tayyorlash uchun belgilangan o‘quv adabiyotlariga qo‘yilgan dolzarblik talablariga javob beradi. Fizika fani inson ilmiy tasavvurining eng ajoyib yutuqlaridan biridir. XX asrda yuzaga kelgan qurollanish poygasi tufayli fizika shunday ulkan kuch va aql sohiblarini birlashtirdiki, ular amalga oshirgan ishlarni zo‘rg’a tavsiflash mumkin. Bunday hodisalar kelajakda yana takrorlanishi ham mumkin. Shunga o‘xshash XXI asr boshlarida texnologiyalar rivojlanishini belgilashda yuzaga kelgan mujassamlashgan kuchlar, intellektual kuchlar konsentratsiyasi tufayli sodir bo‘lmadi. Ularning yuzaga kelishini yarim empirik formulalar yordamida hisoblash ishlarini amalga oshirgan juda quvvatli kompyuterlarning yaratilishi va texnologik jarayonlarga qo‘llanishi bilangina yuzaga kelgan intellektual tahliliy fan(kibernetika)ning yaratilganligi bilan tushuntirish mumkin.

Atrofdagi olamni bilish, tushunish uchun inson doimo o‘qish va izlanishda. Hozirgi kunga qadar fizika, boshqa harqanday maxsus tahliliy fanlardan kam bo‘ligan holda, insonning olamni bilishi va tushunishiga katta yordam berib kelmoqda.

Fizikani ilmiy tajribaga asoslangan fan deb atash qabul qilingan, haqiqatdan ham u, g’oyat ko‘p sonli ajoyib tajribalarga asoslanadi. Ammo, shunisi ham ancha muhimki, fizika nazariy fan ham hisoblanadi. Aynan fizikada turli hayotiy sohalardagi hodisalar va o‘zgarishlarning yuzaga kelish sabablari, aloqalari, mexanizmlari va oqibatlarini tahlil etuvchi noyob ilmiy apparat yaratilgan.

Fizika - nafaqat uning qonunlari, balki bu qonunlarning texnikada qo‘llanilishi hamdir. Fizikani alohida holda o‘rganish uni qo‘llash sohalaridan yaxlit ajratilgan

holda qarash ta'lim vazifalariga mos kelmaydi, va aksincha: texnik tizimlarni ularning harakat tamoyillari va qonuniyatları darajasida o‘rganish fizikani o‘rganishning davomi hisoblanadi. Noma'lum narsani ochib beradigan fizikaviy tajriba bir necha bor takroriy amalga oshiriladi. Shu bilan birga, u har xil yordamchi, o‘lchash va ko‘rsatkish asboblari tomonidan o‘lchanadi. Shu bilan birga, uning natijalariga asoslangan texnika allaqachon keraksiz narsalardan xoli qilingan va takroriy foydalanishga mo‘ljallangan boladi. Aslida, har qanday texnik vosita bu amalda fizik tajribaning amalga oshirilishidir. Masalan, avtomobil - mujassamlangan, amaliy fizika.

Avtomobil dvigateli silindrlarida porshenlar harakatining g’ildiraklarning aylanishiga aylanishi fizikaning "Mexanika" bo‘limida o‘rganilgan qonunlarni amalga oshirishdir. Porshenlarning harakati "Molekulyar fizika" va "Termodinamika" bo‘limlarida o‘rganilgan gazlarning kengayishining natijasidir.

Gazlarning kengayishi — bu yoqilg’i yonishining natiasi bo‘lib, u avtomobil o‘t oldirish tizimi svechasidan uchqun chiqishi oqibatida yuzaga ktladi. U “Elektromagnetizm” bo‘limida o‘rganiladigan elektromagnit hodisalar natijasida hosil bo‘ladi.

Dvigatel slindridagi porshen, avtomobil tanasi, dvigatel qismlari, va osmalar mexanik tebranishlarni boshdan kechiradi, bu tebranishlar elastik to‘lqinlar sifatida bir nuqtadan boshqasiga uzatiladi, faralar yorug’ligi va radioqabulqilish elektromagnit to‘lqinlarga taalluqli bo‘lib, “Tebranishlar va to‘lqinlar” bo‘limida o‘rganiladi. O‘toldirish tizimidagi elektromagnit jarayonlar va elektromagnit to‘lqinlar yarim o‘tkazgichli qurilmalar yordamida shakllantiriladi, bu hodisalar ”Kvant fizikasi” bo‘limida o‘rganiladi. Boshqa harqanday texnik qurilmalar, kompyuterlar tizimlarida, raketalarda, yo‘naltirish tizimlarida, himoyada, aloqada, niqoblashda va boshqalarning asosida ham fizika fani mavjud. Texnikada faqatgina ilmiy-texnik g’oyalarni joriy qilish bilangina emas, balki ularni faol rag’batlantirmoqda ham. Bunga yorqin tarixiy misol sifatida, ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi yillarda yadro qurolini ishlab chiqishni olish mumkin.

Fizika darsliklari nafaqat ma’lum narsalarga yo‘naltirilganligi bilan farq qiladi ta’lim dasturlari, shuningdek, o‘quv materialining mazmuni, hajmi va chuqurligi. Shu sababli, ta’limning hozirgi tendentsiyasi bitta darslikdan boshqasiga o‘tishni talab qilmoqda. Ushbu darslik ma’lum darajada silliq o‘tishga yordam beradi, chunki uning mazmuni oliy kasbiy ta’lim muassasalarida fizika dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimni beradi. Darslikning ushbu darajalari tarkibiy jihatdan bo‘linmagan - har bir talaba yakka o‘zi yoki o‘qituvchi yordamida o‘zining

murakkablik darajasini taxmin qilishi va kursni o'zlashtirishi bilan uni o'zgartirishi mumkin.

Ushbu darslik, asosan, texnika o'liy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan, chunki fizika nafaqat har qanday texnikaning, balki dunyoqarashning ham universal asosidir. U har qanday faoliyatda zarur bo'lgan ongni tartibga soladi va tuzadi. Ushbu darslikdagi fizika kursining taqdimoti uning turli xil qurilmalar va jarayonlardagi ahamiyatiga oid ko'plab va turli xil misollar bilan birga keladi. Bu maxsus fikrlash uslubi va tabiiy dunyo va jamiyat haqidagi ilmiy qarashlarning shakllanishiga hissa qo'shadi. Muhandislik, texnologiya, kosmik, noorganik va organik moddalar tuzilmalarini o'rghanish, ekologiya, aloqa, qurol-yarog' va boshqa ko'p narsalar ilmiy-texnik taraqqiyotga va insoniyat tarixiga ta'sir qiluvchi fizika vositalari va usullariga asoslangan.

Bu darslik uch qismdan iborat qilib tayyorlandi. Birinchi qism «Mexanika va molekulyar fizika» deb ataladi. Bu qism moddiy nuqta kinematikasi, moddiy nuqta dinamikasi, ish va energiya, qattiq jismning aylanma harakati kinematikasi va dinamikasi, garmonik va so'nuvchi tebranishlar, tebranishlarni qo'shish va majburiy tebranishlar, to'lqinlar, maxsus nisbiylik nazariyasi, molekulyar-kinetik nazariya va klassik statistik fizikaning asosiy qonun-qoidalari, Maksvel taqsimoti va molekulalarning o'ziga xos tezliklari. Barometrik formula. Bolsman taqsimoti, fizik kinetika elementlari va gazlardagi ko'chish hodisalari, termodinamikaning birinchi bosh qonuni, termodinamikaning ikkinchi bosh qonuni va entropiya, real gazlar, agregat holatlar va fazoviy o'tishlar bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Darslik ixcham, ammo shu bilan birgalikda zamonaviy fizikaning barcha asosiy qonun va tushunchalari, ularning aloqalari hamda kelib chiqishi to'g'risida to'liq tasavvur beradi. Darslikda qoidalari, ta'riflar va fizik terminlar qiya bosma harflar bilan ajratib ko'rsatildi.

Mualliflar darslik qo'lyozmasini o'qib, uning sifatiga ijobiy ta'sir etgan, mazmunli maslahatlari uchun Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi Bobomurod Nurullayevga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuclari Akademiyasi Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi Mamarahim Israilovga chuqur minnatdorlik izhor etadi. Mazkur darslik mualliflarning ilmiy-pedagogik faoliyatida yozgan birinchi darsligi bo'lganligi sababli xato va kamchilliklardan xoli bo'lmasligi tabiiy, shuning uchun darslik to'g'risidagi fikr va mulohazalaringizni bildirsangiz minnatdor bo'lar edik.

Mualliflar.

## KIRISH

### **Ilmiy-texnika taraqqiyotida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirishda fizika fanining o‘rni.**

Insoniyat qanday yangi texnika turini yaratmasin, u albatta fizika qonunlari bilan to‘qnashadi. Birinchi artilleriya quroli yaratilganda snaryadning harakat qonunlarini, gazning kengayishi va metallar deformatsiyasi qonunlarini hisobga olishga to‘g’ri kelgan. Birinchi suv osti kemasi yaratilganda, jismlarning suvda suzishi, tunda bulutlar ortida joylashgan havodagi nishonni aniqlash talab etilganda radio to‘lqinlarning tarqalish va qaytish qonuniyatlarini bilish talab etilgan.

Fizika doimo oldingi safda, xuddi razvedkachidek, qurolsoz va konstruktorlarni zaruriy ma’lumotlar bilan ta’milagan. Unga bu ma’lumotlarni olishda boshqa ancha tor soha fanlari ham yordam qo’llariniini cho‘zishgan albatta, biroq u hamisha asosiy muhim savollarga javob beruvchi bo‘lib qolgan.

Asrimizning keyngi yillarida fizikaning bu roli yanada ortdi, u qurolli kurashning eng dahshatli vositasi bo‘lgan yadro qurolini yaratish vazifasini deyarli to‘liq o‘z qo‘liga oldi. Bu qurolning yaratilishi bilan birga raketa texnikasining hayratlanarli darajada tez va qudratli darajada rivojlanishi harbiy ishda revolyutsiyani keltirib chiqardi, harbiy harakatlarni olib borish uslublarini, qurolli kurash usullarini tubdan o‘zgartirdi. Shuning uchun ham texnika revolyutsiyasining muhimligini, harbiy ishning istiqboldagi taraqqiyoti bashoratini zamonaviy fizikaning jangovar texnika va qurollarning yangi turlarini yaratishga bo‘ladigan ta’sirisiz tassavur ham qilib bo‘lmasligini chuqur anglash va tan olish zarur.

Texnik muhandislar tarkibini o‘qitish va tarbiyalashda, fizik bilimlarning ahamiyati ulkandir. Boshqa tabiiy-ilmiy fanlar bilan birgalikda, ular muhandis kadrlarning ilmiy dunyoqarashinihg poydevori bo‘lib xizmat qiladi, turli xildagi yangi texnikalar na’munalarini o‘rganish ularga asoslanadi. Zamonaviy texnikadandan mohirlik bilan foydalanish, turli xildagi nosozliklarni tezda bartaraf etish faqatgina

sxemalar va yo‘riqnomalar bilan vaxshi tanish bo‘lgan muhandisning emas, balki barcha ish rejimlarida sodir bo‘layotgan fizik jarayonlarni to‘la va aniq tushungan texnik xizmatchining qo‘lidan keladi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, muhandis kadrlar uchun fizikadan chuqur bilim asoslarini egallash turli xil sharoitdagi faoliyat doirasida himoyasini tashkil etish uchun zarur.

Hozirgi kunda muhandislarning barchasida yuqori darajadagi texnik tayyorgarliksiz, fizika va matematika asoslarini bilmasdan zamonaviy texnikani malakali ishlatib bo‘lmaydi.

Yangi texnologiyalar o‘z navbatida insoniyat faoliyatining barcha sohalarini rivojlanishga olib kelishi hech shubhasizdir. Respublikamizda tabiatshunoslik ilmining asosi bo‘lgan fizika fanining taraqqiyoti texnikaning taraqqiyotiga va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mustahkamlanishiga xizmat ko‘rsatadi.

**Qadimgi sharq mutafakkir olimlarning fizika fanini rivojlantishga qo`shgan hissalari.** O‘zbekiston – ilm - fan va madaniyat qadimdan taraqqiy topgan mamlakatlardan biri bo`lib, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, to‘qimachilik, me‘morchilik, ma‘daniyatshunoslik, kulolchilik, falsafa, adabiyotshunoslik yaxshi rivojlangan.

Muso al-Xorazmiy va Muhammad al-Farg‘oniyalar Bag‘dod akademiyasi «Bayt ul-Hikmat» (Donolar uyi) da o‘z tadqiqotlarini olib borganlar. Al-Xorazmiy 780 yilda Xivada tug‘ilgan matematika, astronomiya, geografiya sohasida asarlar yaratgan. U «Al-jabr» (algebra) fani va algoritm tushunchasiga asos solgan. Uning «Hisob al-Hind» va «Astronomik jadvallar» asarlari o‘n ikkinchi asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan. Al-Farg‘oniy ham astronomiya, geografiya, matematika fani bilan shug‘ullangan, u 790 yil Farg‘onada tug‘ilgan. Al-Farg‘oniy Quyosh tutilishini oldindan hisoblab chiqqan, Yerning sharsimon ekanligini ilmiy asosda isbotlagan, meridian uzunligini hisoblagan, Nil daryosi oqimining tezligini o‘lchash asbobini yasagan. Al-Forobi 873 yilda Chimkent viloyatida tug‘ilgan. Turli sohalarga oid 160 dan ziyod asarlar yozgan. Uni sharq Arastusi deb ataganlar.

«Donolar uyi» da falsafa, matematika va tib ilmlari muhokama qilingan. Buyuk mutaffakirlar Ibn Sino, Al-Beruniy, Abu Nasr Arroqlar ham akademianing a‘zolari bo‘lishgan.

Al-Beruniy 973 yil Xorazmda tug‘ilib, 1048 yilda Gaznada vafot etgan, birinchi globusni yasagan. U 150 dan ortiq kitob va risolalar yozgan. Geliosentrik tizimning yaratilishiga katta hissa qo‘shgan.

Abu Ali ibn Sino 980 yil Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. U ko‘plab asarlar yaratgan bo‘lib, shundan 40 dan ko‘prog‘i tibbiyotga, 30 dan ortig‘i tabiiy fanlarga oid.

Mirzo Ulug‘bek 1394 yil Sultoniya shahrida tug‘ilgan, 1449 yilda Samarqandda akademiya tashkil qilgan, by akademianing rasadxona, kutubxona hamda madrasasi bo`lgan. Dunyodagi eng yirik astronomiya mакtabini yaratgan va «Ulug‘beko ziji» asarini nash etgan. Shogirdlari bilan 1018 ta yulduzlar to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilgan katolog(zij) tuzgan. Bu katolog hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Samarqanddagи akademiyada mashhur astronom va matematik olim Nasriddin Tusiy, Qozizoda Rumiy, al-Koshiy birinchi bo‘lib tabiiy fanlar, matematika, tibbiyot, falsafa, adabiyot fanlarini yuqori darajalarga ko‘tardilar.

**Fizika kursining tuzilishi, qisqacha mazmuni, uni o‘rganish maqsadi va tartibi.** Fizika texnika bilan chambarchas aloqada. Texnikaning ehtiyojlari bir tomonidan fizik izlanishlarga da’vat etadi va uning mavzusini belgilaydi. Ikkinchи tomonidan, agar fizika fani yangi g’oyalarni bermaganda, zamonaviy texnika, ayniqsa qurollar va harbiy texnika bunchalik jadal rivojlanmagan bo‘lar edi. Fizika tushunchalaridan foydalanib, atrofimizni o‘rab turgan olamda yuz berayotgan hodisalarini to‘g‘ri anglab, yorqin tushunib olamiz.

Hozirgi davr talabiga javob beradigan harbiy mutaxassislarni tayyorlashda, bakalavriyat bosqichidagi kursantlarga fizika fani asoslarini o‘rgatishdan asosiy maqsad – ularda zamonaviy ilmiy – texnikaviy dunyoqarashni shakllantirish, ularga zamonaviy harbiy texnika vositalari asoslarini tanishtirish va ulardan foydalanishga

zamin yaratishdan iborat. Fizikani o‘rganish bo‘lajak ofitserga umummuxandislik, harbiy-texnik va maxsus harbiy fanlarni chuqur o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

*Tabiatda uchraydigan barcha jismlar fizik jismlar deyiladi.* Masalan, uy, samolyot, dengiz, xonadagi havo, chang zarralari, Quyosh, va boshqalar. Bularning hammasi turli moddalardan tashkil topgan. Masalan, uy yog’ochdan, samolyot metalldan, dengiz suvdan tashkil topgan. Ma’lumki, moddalar atom yoki molekulalardan va ularning tarkibiga kiruvchi zarralardan tashkil topgan.

*Tabiatda yuz beradigan barcha o‘zgarishlarga tabiat hodisalari deyiladi.* Modda molekulalari o‘zgarmasdan qoladigan tabiat hodisalari fizik hodisalar deyiladi. Masalan, toshning uchishi, suvning muzlashi yoki qaynashi, poezdning harakati. Modda molekulalari o‘zgaradigan tabiat hodisalari ximik hodisalar deyiladi. Masalan, ko‘mirning yonishi, plastmassalar tayyorlash, rudalardan metallar olish. Ammo ko‘pgina tabiat hodisalari bir vaqtning o‘zida ham fizik, ham ximik hodisa bo‘lishi mumkin. Masalan, elektr yoyi, radioaktivlik. SHuning uchun fizika va ximiya fanlari o‘rtasiga keskin chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Zamonaviy fizikada hodisalarning qanday sohalari o‘rganilayotganligini tushunish uchun, barcha tabiiy fanlar erishgan muvaffaqiyatlar asosida chiqarilgan umumiylar bilan tanishish kerak.

Fizika materiyaning eng umumiylarini xossalari va harakatining turli shakllari hamda bir-biriga aylanishi haqidagi fandir. *Fizika fani – tabiat hodisalarining oddiy va umumiylarini, moddalar tuzilishi va xususiyatlarini, ularning harakat qonunlarini o‘rgatuvchi fandir.* Materiya harakatining ba’zi shakllari tabiatda juda ko‘p tarqalgan bo‘lib, ularga harakatning fizik shakllari deyiladi, chunki ularning asosiy xususiyatlari fizikada o‘rganiladi. Materiyaning bunday harakatlariga mexanik, issiqlik, elektr, elektromagnit, atom va yadro ichki harakatlari kiradi.

Tabiatda bo‘ladigan turli hodisalarda materiya harakatining bir fizik shakli boshqasiga aylanadi: tramvay harakatlanganda harakatning elektr shakli, harakatning mexanik shakliga, bu esa issiqlik harakatiga aylanadi; jismlarni bir-biriga

ishqalaganda yoki jismlar yorug'lik nurlarini yutganida issiqlik harakati yuz beradi; elektrostantsiyalardagi generatorlarda mexanik harakat, harakatning elektr shakliga aylanadi va hokazo. Tabiatda va texnikada bo'ladigan hodisalarning mohiyatini tushunish uchun barcha harakat shakllarini va ularning o'zaro bog'lanishini o'rghanish zarur. Shunday qilib, *zamonaviy fizika materiya harakatining turli fizik shakllarini, ularning o'zaro bir-biriga aylanishini, shuningdek modda va maydon xossalariini o'rghanadi.*

Tabiatda va texnikada bo'ladigan hodisalarni o'rghanishda turli xil usullardan foydalaniladi. Fizikada hodisalarni bevosita o'rghanish uchun kuzatish va tajriba usullaridan foydalaniladi.

**Kuzatishda** kuzatuvchi sodir bo'layotgan hodisaga ta'sir ko'rsatmasdan, faqat uning tipik xususiyatlarini, hodisa yuz berayotgan sharoitni kuzatishga harakat qiladi. Masalan, daraxtdan uzilib tushgan barg va qo'ldan tushib ketgan tangani kuzatib, bargning asta-sekin va egri-bugri yo'l bilan, tanganing esa tez va to'g'ri chiziqli yo'l bilan tushganini ko'ramiz. Bu farqni ular tushayotgandagi shart-sharoitning bir xil emasligi bilan tushuntirish mumkin. Bu jismlarning turlicha tushishiga havoning ta'siri sabab bo'ladi. Bargga nisbatan tanga og'ir va yuzasi kichikdir. Faqat kuzatishdan foydalanib jismlarning tushishiga bu shart-sharoitlarning ta'sirini aniqlash mumkin emas.

Jismlarning tushishiga havoning ta'sirini ko'rsatish uchun, tajriba o'tkazish, ya'ni jismlarning havosiz fazoda tushishini amalga oshirish zarur, bunday holda barg tanga bilan bir vaqtida tushadi. Havoda jismlar harakatining bir-biridan farqli bo'lishi esa bu jismlar og'irliklari va havoning jismga ko'rsatadigan qarshiligi orasidagi nisbatning turlicha bo'lishi bilan tushuntiriladi. Buni jismlarning og'irligini va havoning qarshilik kuchini o'lchash bilan aniqlash mumkin.

*Hodisaning borishiga ayrim faktorlarning ta'sirini o'rghanish mumkin bo'lgan sharoitda hodisani qaytadan sodir qilib, tekshirilayotgan hodisada o'zgaruvchan*

*kattaliklar orasidagi qonuniy bog'lanishni aniqlash yoki qo'yilgan savolga bir qiymatli javob topish tajriba deyiladi.*

**Tajribada** fizik kattaliklar o'lchanadi. Shunday qilib, o'lchash va tajribalar yordamida turli hodisalar bo'ysunadigan qonunlarni aniqlash mumkin. Fizika hodisalarning faqat qonuniyatlarini ochib bermasdan, ularni tushuntirib ham beradi. Bu qonuniyatlarni taqqoslab, ularning ko'pchilligi uchun umumiyligini bo'lgan ichki bog'lanishlarni payqash mumkin. *Bog'lanishlarni tushuntirish uchun ilmiy asoslangan faraz ilgari suriladi, bunday faraz gipoteza deyiladi.* Gipoteza ko'p hodisalarni yagonalik nuqtai nazaridan tushuntirgani uchun undan foydalanib, yangi, hali noma'lum yoki namoyon bo'lishi ma'lum, lekin o'r ganilmagan hodisalarni oldindan aytish mumkin. Shunday usul bilan qabul qilingan gipotezaning to'g'riligini tekshirish mumkin. Agar yangi tajribalar gipotezaga qarama-qarshi natija bersa, gipoteza bekor qilinadi, yoki o'zgartiriladi. *Agar tekshirishlar gipotezani tasdiqlasa va mohiyatini o'shirsa, bunday gipoteza ishonchli bo'ladi va fizik nazariya deyiladi.* Masalan, molekulyar-kinetik nazariya, kvant nazariyasi va boshqa mavjud nazariyalar shunday nazariyalardir. Tajriba, kuzatishlar va tahliliy fikrlashlar bilan olib borilganda, u tabiatni o'r ganishning eng mukammal usuli hisoblanadi.

**Fizik qonunlar.** *Fizika –tajribalarga asoslangan fandir.* Barcha fizik nazariyalarining to'g'rilik o'lchovi tajriba hisoblanadi. Fizik tajribalarda amalga oshiriladigan o'lchashlar chegaralangan aniqlikka ega bo'ladi. Har bir fizik o'lchashda faqatgina natija emas, balki o'lchash aniqligi ham ko'rsatiladi. Fizik tajribalar asosida fizik qonunlar shakllanadi. Har bir fizik qonun ma'lum bir qo'llanilish sohasiga ega bo'ladi. *Eng keng qo'llanilish sohasiga ega bo'lgan fizik qonunlar fundamental qonunlar deyiladi.* Bunday qonunlarga misol sifatida energiyaning saqlanish qonunini keltirish mumkin.

**Fizik kattaliklar va ularni o'lchash.** *Har qanday miqdoriy o'zgarishlar kattalik deyiladi.* Fizik hodisalarni yoki materiyaning ayrim xususiyatlarini xarakterlovchi kattaliklar fizik kattaliklar deyiladi. Masalan, uzunlik, vaqt, hajm,

massa, kuch va shu kabilar. Biror kattalik qiymatlarining miqdoriy farqi taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi. Faqat uzunlik bilan uzunlikni, massa bilan massani, kuch bilan kuchni, vaqt bilan vaqtini taqqoslash mumkin. *Bir-biri bilan taqqoslash mumkin bo‘lgan kattaliklarni bir jinsli kattaliklar deyiladi.* Masalan, ikki xil uzunliklar taqqoslanganda, ulardan biri shartli ravishda uzunlik birligi deb qabul qilinadi va ikkinchisida shu uzunlikdan necha birlik borligi aniqlanadi. *Berilgan kattalikda shu kattalikka tegishli bo‘lgan o‘lchov birligidan necha marta joylashganini aniqlashga o‘lchash deb ataladi.* O‘lchash natijasida olingan son shu kattalikning miqdori deyiladi. Masalan yo‘l uzunligi o‘lchanganda uning 500 m son olingan bo‘lsa, u holda bu son yo‘l uzunligining miqdorini ifodalaydi. Bunday sonlarni nomsiz yozish mumkin emas. Agar nomsiz yozilsa, qanday o‘lchov birligi bilan taqqoslangani noma’lum bo‘lib qoladi.

Fizik kattaliklarga qulay o‘lchov birliklarni tanlash fan uchun katta ahamiyatga ega. Har bir o‘lchov birligi qat’iy aniqlangan va o‘zgarmas bo‘lishi kerak, bunday holda ilmiy o‘lchashlar va ular asosida aniqlanilgan qonuniyatlar ob’ektiv bo‘ladi va bu qonuniyatlarni qayta tajribalar o‘tkazish orqali tekshirish mumkin.

1889 yilda o‘lchov birliklari va tarozilar bo‘yicha Xalqaro Bosh konferensiya chaqirilib barcha mamlakatlar uchun yagona o‘lchov birliklari qabul qilindi. Bu konferensiyada muhim fizik kattaliklar: uzunlik, massa, vaqt va kuch uchun xalqaro o‘lchov birliklari qabul qilindi.

Hajm va yuza o‘lchov birliklarini keltirib chiqarish uchun ularning formulalaridan foydalanamiz:

$$S = l \cdot b = 1m \cdot 1m = 1m^2; \quad V = S \cdot h = 1m^2 \cdot 1m = 1 m^3$$

Bundan ko‘rinadiki, formulalardan olingan birliklar, ularni keltirib chiqarish uchun olingan birliklarga bog’liq. Shuning uchun asosiy birliklar qilib shunday birliklarni olish kerakki, ular yordamida formuladan juda qulay birliklar keltirib

chiqarilsin. Agar bir-biriga bog’liq bo‘lmanan bir necha fizik kattaliklarning o‘lchov birliklari kelishib olinsa, qolgan fizik kattaliklarning o‘lchov birliklarini tegishli formuladan yuqoridagi qoidaga asosan keltirib chiqarish mumkin.

*Kelishish orqali o‘rnatilgan o‘lchov birliklarga asosiy o‘lchov birliklari, formulalar asosida keltirib chiqarilgan o‘lchov birliklar esa hosilaviy o‘lchov birliklari deyiladi.*

Asosiy o‘lchov birliklar va ulardan keltirib chiqarilgan hosilaviy o‘lchov birliklari yig’indisi fizik kattaliklarning o‘lchov birliklari tizimini hosil qiladi. Fizikada asosan xalqaro birliklar tizimidan foydalaniлади. Xalqaro birliklar tizimida mexanik kattaliklarning o‘lchov birliklarini hosil qilishda asosiy birliklar sifatida uzunlik birligi – metr, massa birligi – kilogramm va vaqt birligi – sekund olinadi.

Xalqaro birliklar tizimida oltita asosiy birliklar mavjud bo‘lib, qolgan uchta birliklar fizikaning keyingi bo‘limlarini o‘rganish jarayonida kiritiladi. Masalalarni yechayotganda barcha fizik kattaliklarning miqdoriy qiymatlarini bir xil birliklar tizimiga keltirib, so‘ngra ularni formulaga qo‘yish kerak.

**Uzunlikni o‘lchash.** Fazodagi nuqta yoki jism holatini belgilovchi  $x$ ,  $u$ ,  $z$  koordinatalar uzunlikdan iborat bo‘lgani uchun, uzunlikni o‘lchash usulini tanlash kerak bo‘ladi. Odatda, uzunlikni o‘lchash uchun, qandaydir qattiq sterjenni namuna deb hisoblab, uni o‘lchov birligi deb qabul qilinadi.

Nuqtaning fazodagi koordinatalaridan birini o‘lchash uchun, shu yo‘nalishga o‘lchov birligi bo‘lgan namuna necha marta joylashish soni aniqlanadi. Ana shu son tanlangan yo‘nalishdagi jismning uzunligini belgilaydi. Agarda bu son butun bo‘lmasa, namuna mayda bo‘laklarga (o‘ndan bir qismi, yuzdan bir qismi va h.k.) bo‘linadi. *Bunday o‘lchash to‘g’ridan - to‘g’ri o‘lchash deb ataladi.* Ammo bu usul kamchiliklardan xoli emas. Masalan, Yerning radiusini, Yerdan Oygacha va Quyoshgacha bo‘lgan masofalarni o‘lchashda namunadan foydalanim bo‘lmaydi. Bizning Galaktikamiz o‘lchamlari tartibi taxminan  $\sim 10^{20}$  metrga yaqin. Ikkinchisi tarafdan qattiq jismlar atomlari orasidagi masofalar  $\sim 10^{-10} m$ , yoki ayrim yadro

zarrachalari o'lchami  $\sim 10^{-15} \text{ m}$  ga tengdir. Bu hollarda, to'g'ridan-to'g'ri o'lchash usulini qo'llab bo'lmaydi, uzunlikni o'lchash uchun boshqa o'lchash tamoyillarini tanlashga majburmiz.

**Baqtni o'lchash.** Vaqt ham fizik kattalik bo'lgani uchun uning miqdoriy qiymatlari ayrim sonlardan iborat bo'ladi. Ammo, uzunlikka o'xshash vaqtning absolyut qiymati yo'q. Vaqt deganda qandaydir vaqt oralig'ini tushunish kerak. Vaqtni amaliy o'lchash usullaridan biri Yerning o'z o'qi atrofidagi aylanishidagi Quyosh sutkasidan iborat. Unga ketgan vaqtning 86400 dan bir ulushi sekunddir.

Vaqtni o'lchash usullarining eng anig'i deb Seziy atomining asosiy holatlariga tegishli ikki energetik sathlari orasini o'tishda elektromagnit nurlanishning 9192631770 marta tebranishiga ketgan vaqt olinadi. Bu vaqt bir sekundga tengdir.

Fizikada amalga oshirilgan kashfiyotlar faqatgina asosiy fizik jarayonlar to'g'risidagi bilimlarimizni oshiribgina qolmay, ko'pincha boshqa fundamental fanlarning rivojlanishida ham hal qiluvchi muhim rol o'ynaydi. Masalan, kvant nazariyasining kashf etilishi ximiklarga ular tomonidan to'plangan, moddalarning ximiya viy tuzilishi va ximiya viy reaksiyalar to'g'risidagi turli axborotlarni har tomonlama tushunish imkoniyatini berdi.

O'rganiladigan materiallar harakatlari, shakllari va ob'ektlarning ko'p qirraliligiga asosan fizika bir qancha qismlarga bo'linadi: atom va molekulalar fizikasi; gaz va suyuqliklar fizikasi; qattiq jismlar fizikasi; plazma fizikasi; elementar zarrachalar fizikasi; yadro fizikasi.

Materianing harakat turlariga qarab fizika asosan, quyidagi bo'limlarga bo'linadi: moddiy nuqta va qattiq jismlar mexanikasi; termodinamika va statistika; elektrodinamika; optika; kvant mexanikasi; maydonning kvant nazariyasi; tebranish va to'lqinlar; amaliy optika.

## **Nazorat savollari:**

1. Fizik jism va modda nima?
2. Fizik hodisa deb nimaga aytildi?
3. Fizika nimani o‘rganadi?
4. Fizik kuzatish va tajriba deb nimaga aytildi?
5. Gipoteza deb nimaga aytildi?
6. Nazariya deb nimaga aytildi?
7. Fizika nimani o‘rganadi?
8. Fizik kattaliklar deb nimaga aytildi?
9. Fizik qonunlar deb nimaga aytildi?
10. Qanday fizik qonunlarga fundamental qonunlar deyiladi?
11. O‘lchash va o‘lchov birligi deb nimaga aytildi?
12. Fizika qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
13. Ilmiy-texnika taraqqiyotida fizika fanining o‘rni qanday?
14. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda fizika fanining o‘rni qanday?
15. Davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda fizika fanining o‘rni qanday?

## **1-BO‘LIM. MEXANIKA** **I.BOB. KINEMATIKA**

### **1.1 Moddiy nuqta kinematikasi**

#### **1.1.1 Mexanika, mexanikada modellashtirishlar**

*Mexanika — fizikaning, jismlarning harakati va muvozanati qonunlarini o‘rganuvchi qismidir.*

Fizikaning mexanika bo‘limi materiyalar harakatlarining oddiy shakllarini, mexanik harakatlarni o‘rganadi. Mexanikaning asosiy qonunlari asosan Galileo Galiley (1564 – 1642 yillar) tonidan aniqlangan va Isaaq Nyuton (1643 – 1727 yillar) tomonidan to‘liq asoslab berilgan. G. Galiley va I. N’yuton tomonidan to‘la asoslangan mexanika *klassik mexanika* deb nomlandi. Isaaq Nyutonning klassik mexanikasi tezliklari yorug‘likning vakuumdagi tezligi ( $c = 2,998 \cdot 10^8 \text{ m/s}$ ) dan ancha

kichik  $\vartheta$  tezlikka ega bo‘lgan makroskopik jismlarning harakatini o‘rganadi. Tezliklarini yorug‘likning vakuumda tarqalish tezligi bilan taqqoslasa bo‘ladigan makroskopik jismlar harakatini relyativistik mexanika o‘rganadi. Relyativistik mexanika Al’bert Eynshteyn (1879-1955 yillar) tomonidan yaratilgan maxsus nisbiylik nazariyasiga asoslanadi. Mikroskopik jismlar (masalan, atomlar va elektronlar) harakatini o‘rganishga klassik mexanika qonunlarini hardoim ham qo‘llab bo‘lmaydi. Bunday hollarda, relyativistik mexanikasi qonunlari qo‘llaniladi.

Klassik fizika va mexanikaning yaratilishi haqiqatdan ham I. N’yuton nomi bilan bog’liq, chunki fizikaning asosiy qonunlari I. N’yuton tomonidan qanday ta’riflangan bo‘lsa, hozirgi kunda ham amalda, xuddi shunday ko‘rinishda ifodalangan. Olamning yangi manzarasi va kosmik jismlar harakati I. N’yutonning bitta umumiy nom bilan 1679 va 1687 yillarda nashr etilgan “Natural falsafaning matematik asoslari” deb nomlangan uchta asarida ifodalangan.

Klassik mexanika uch qismga bo‘linadi: kinematika, dinamika va statika.

**Kinematika** jismlarning fazo va vaqtdagi harakatini, bu harakatning kelib chiqish sababini hisobga olmasdan o‘rganadi.

**Dinamika** jismlarning harakatini, bu harakatning kelib chiqish sababini hisobga olgan holda o‘rganadi.

**Statika** jismlar va jismlar tizimlari muvozanatini o‘rganadi. Jismlarning harakat qonunlarini bilish, ularning muvozanat qonunlarini yaratishga olib keladi.

Mexanika real jismlar harakatini ma’lum bir soddalashtirilgan (abstraktlashtirilgan) tushunchalar asosida tavsiflaydi. *Bunday tavsiflashga modellashtirish deyiladi.* Moddiy nuqta va absolyut qattiq jism tushunchalari shunday modellardandir.

**Moddiy nuqta.** Mexanikada o‘rganiladigan eng sodda ob’ekt moddiy nuqta hisoblanadi. *Moddiy nuqta deb, ma’lum massaga ega bo‘lgan, o‘rganiladigan masofalarga nisbatan o‘lchami juda kichik bo‘lgan jismga aytildi.* Moddiy nuqta tushunchasi abstrakt(mavhum) tushunchadir.

*Moddiy nuqta — berilgan masalani yechishda o‘lchamlari hisobga olinmaydigan jism.* Masalan, Yerning o‘lchami Quyoshgacha bo‘lgan masofaga nisbatan juda kichik bo‘lgani uchun, Quyosh atrofidagi harakatida uni moddiy nuqta deb faraz qilish mumkin. Bunda Yerning butun massasi uning geometrik markazida mujassamlangan deb hisoblanadi.

Ixtiyoriy makroskopik jismni bir-biri bilan o‘zaro ta’sirdagi ko‘plab qismlarga ajratish mumkin, ularning har biri o‘z massasiga ega bo‘lgan moddiy nuqtalar sifatida qaralishi mumkin. Bunday holda jismlar harakatini o‘rganish masalasini moddiy nuqtalar tizimi harakatini o‘rganish masalasiga keltirish mumkin. Mexanikada

ko‘pincha avval alohida nuqtalar harakati o‘rganiladi, so‘ngra jismlar harakati o‘rganiladi. Jismlar biri-biri bilan o‘zaro ta’sirlashganda ularning shakli va o‘lchamlari o‘zgarishi mumkin. *Har qanday sharoitda shakli va o‘lchamlari o‘zgarmaydigan (deformatsiyalanmaydigan) jism absolyut qattiq jism deb ataladi.* Absolyut qattiq jismning qismlari yoki ikki nuqtasi orasidagi masofa o‘zgarmasdir.

O‘rganilayotgan hodisalar to‘g’ri modellashtirilganda mexanika qonunlari, jism harakatining haqiqiy manzarasini aniq ifodalaydi va to‘g’ri natijaga olib keladi. Agar hodisalarning haqiqiy manzarasi buzib modellashtirilsa, bunday hodisani tahlil qiluvchi matematik usul juda mukammal bo‘lganda ham, chiqarilgan nazariy xulosalar qo‘pol xatolarga olib keladi. Hodisaning to‘g’ri modeli uning bilan boshqa hodisalar orasidagi barcha mavjud ichki bog’lanishni uzib qo‘ymaydi, hodisalar orasidagi muhim bog’lanishlarni ajratib oladi va hodisaning modelini yaratadi. Agar hodisaning modelini ishlab chiqishda hodisalar orasidagi asosiy bog’lanishlar noto‘g’ri aniqlansa, qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yiladi va bunday modelga asoslangan mulohazalar yaroqsiz bo‘ladi. Masalan, artilleriya snaryadi harakatidagi hodisalar manzarasi haqidagi masalani ko‘rib chiqaylik. Artilleriya snaryadi uchayotganda snaryad trayektoriyasi, porox zaryadinig sifati va miqdoriga, to‘pning tuzilishiga, snaryadning o‘lchamlariga, havoning qarshiligidagi, shamolning yo‘nalishiga, snaryadning shakliga, snaryadning o‘z o‘qi atrofida aylanishi tezligiga va boshqa ko‘rsatgichlariga bog’liq bo‘ladi.

Bu hodisaning boshlang’ich modelida snaryadni moddiy nuqta deb olinsa, snaryad trayektoriyasining paraboladan iborat ekanligi kelib chiqadi. Agar bu hodisaning yanada aniqroq modelini tuzishda havoning qarshiligi ham e’tiborga olinsa, snaryadning trayektoriyasi paraboladan farqli ekanligi kelib chiqadi. To‘p stvolida snaryadning parma chizig’i bo‘ylab aylanma harakati ham nazarga olinsa, hodisaning yanada aniqroq modeli hosil bo‘ladi va hisoblashlar murakkablashadi. Yanada aniqroq modelni yaratish zarurati tug’ilsa, bunday hollarda snaryadning boshlang’ich tezligi, poroxning miqdori va sifati, stvolning uzunligi boshqa kattaliklari orasidagi bog’lanishlar ham hisobga olinadi. Bunda mexanika qonunlaridan boshqa qonunlardan ham foydalanishga to‘g’ri keladi.

Shunday qilib, snaryad uchayotganda sodir bo‘ladigan hodisalarning haqiqiy modeli juda murakkabdir. Bulardan shunday xulosa kelib chiqadi: hodisaning haqiqatga yaqin modelini hosil qilishning birdan – bir to‘g’ri yo‘li o‘rganilayotgan modelni ketma-ket murakkablashtirib borishdir.

### **1.1.2 Fazo va vaqt. Sanoq tizimi. Koordinatalar tizimi. Nuqta holatining fazoda berilish usullari.**

Fazoda nuqta holatining berilishi kinematikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Erkin fazo bir jinsli (unda alohida muhim xossalnuqta yo‘q) va izotrop(unda alohida tanlangan yo‘nalish yo‘q). Shuning uchun erkin fazoda moddiy nuqta yoki jism holatini aniqlab bo‘lmaydi.

Moddiy nuqta yoki jismning fazodagi holatini aniqlash uchun hisob jismi bo‘lishi kerak. *Fazoda ixtiyoriy jismning holatini unga nisbatan hisoblash mumkin bo‘lgan absolyut qattiq jismga sanoq jismi deyiladi.*

Koordinata tizimining boshi biror jism bilan belgilanadi va u sanoq jismi bo‘ladi. Bir o‘lchovli tizim faqat bitta koordinataga muhtoj. Masalan, o‘q otishdagi qurol stvolidagi o‘qning holati zatvordan stvol uchigacha bo‘lgan masofa bilan aniqlanadi. Ikki o‘lchovli tizimda ikkita koordinata kerak, masalan, aholi yashash joyining xaritadagi o‘rni joyning geografik kengligi va uzunligi bilan belgilanadi, va uch o‘lchovli koordinatalar tizimida holatni belgilash uchun uchta raqam kerak.

Barcha fizik jarayonlar fazoda va vaqtida sodir bo‘ladi. Sanoq jismi bilan koordinata tizimi bog’lansa, unda moddiy nuqta yoki jismning o‘rnini ko‘rsatish, ya’ni fazoda nuqta yoki jismning holatini berish mumkin.

*Vaqt jarayonlar davomiyligining o‘lchovidir.* Uni hisoblash uchun soat zarur bo‘ladi. *Sanoq jismi, koordinata tizimi va soat birgalikda sanoq tizimini tashkil etadi.* Biz to‘g’ri burchakli Dekart koordinatalar tizimidan foydalanamiz (1.1-rasm). Bunday koordinatalar tizimida OZ o‘q dastasi o‘ng tomonga aylantirilgan parmaning ilgarilanma harakati tamon yo‘nalgan bo‘lib, u OX o‘qdan OY o‘qqa tomon eng qisqa burchak bo‘ylab aylanadi. U yagona imkoniyat emas. Biz nuqta holatini fazoda berishning vektor va koordinata usullaridan foydalanamiz.

**Vektor usuli.** Bu usulda **M** moddiy nuqtaning holati koordinata boshidan **M** nuqtaga o‘tkazilgan  $\vec{r}$  radius-vektor (1.2 - rasm) yordamida beriladi. Radius vektorni berish uchun koordinata boshi O nuqta, radius-vektor moduli  $|\vec{r}|$ , radius-vektorning fazodagi yo‘nalishi (o‘zaro bog’liq bo‘lmagan ikki burchak)ni ko‘rsatish zarur bo‘ladi.


Koordinata o‘qlari bilan bir xil yo‘nalgan birlik vektorlar  $\vec{i}$ ,  $\vec{j}$ ,  $\vec{k}$  dan foydalanib,  $\vec{r}$  radius-vektorni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\vec{r} = r_x \vec{i} + r_y \vec{j} + r_z \vec{k} . \quad (1.1)$$


1.2-rasmida tasvirlangan holat uchun quyidagini yozish mumkin:

$$r_x = x, r_y = y, r_z = z.$$

**Koordinatalar usuli.** Bu usulda  $\mathbf{M}$  moddiy nuqtaning holati  $x, y, z$  koordinatalar bilan beriladi va  $M(x, y, z)$  ko‘rinishda yoziladi.



1.1 – rasm



1.2 – rasm

*Fizik tizimning fazodagi holatini to‘liq aniqlovchi, eng kam mustaqil parametrlar soniga erkinlik darajalari deyiladi.* Bundan ko‘rinadiki  $M$  moddiy nuqta uchta erkinlik darajasiga ega.

**1.1.3 Mexanik harakat. Trayektoriya. Moddiy nuqta harakatining kinematik qonuni. Ko‘chish vektori. Bosib o‘tilgan yo‘l.**

Harakat tushunchasi aniqlashtirishni talab etadi.

**SAVOL.** Avtobus bekatida *tinch turgan* holda siz, *harakatlanasizmi?*

**JAVOB.** Birinchi qarashda, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar bir biriga zid, biroq, yoningizdan o‘tayotgan avtomobil haydovchisining qarashicha, siz avval unga yaqinlashasiz, so‘ngra undan uzoqlashasiz, Yer markaziga nisbatan esa, siz aylana bo‘ylab harakatlanasiz. Bu harakat nisbiyligining tipik namoyon bo‘lishidir

**Mexanik harakat.** Vaqt o‘tishi bilan jismning fazodagi vaziyatining boshqa jismlarga nisbatan o‘zgarishi jismning mexanik harakati deb ataladi. Masalan, Piyodalar jangovar mashinasi(PJM)ning dala o‘quv maydonida joylashgan turli

jismlar(daraxtlar, belgilar, to'siqlar va boshqalar)ga nisbatan vaziyatlarining o'zgarishi.

Qattiq jismlarning istalgan harakati ilgarilanma va aylanma harakatlar majmuasidan iborat. *Ilgarilanma harakat shunday harakatki, unda harakat qilayotgan jism bilan mustahkam bog'langan istalgan to'g'ri chiziq boshlang'ich holatiga nisbatan parallelligini saqlab qoladi.*

*Moddiy nuqtaning fazodagi harakati davomida qoldirgan iziga trayektoriya deyiladi.* Trayektoriyaning ko'rinishi sanoq tizimining tanlanishiga bog'liq. Tekis aylanayotgan gardish markazidan eng chetda joylashgan nuqtaning tekis harakatini ko'rib chiqaylik(1.3-rasm). Aylanayotgan gardishga bog'langan ( $X'$ ,  $Y'$ ,  $Z'$ ) tizimga nisbatan nuqta to'g'ri chiziqli trayektoriya bilan harakatlanadi.

Yer bilan bog'langan ( $X$ ,  $Y$ ,  $Z$ ) tizimga nisbatan nuqta Arximed spirali shaklidagi trayektoriya bilan harakatlanadi.

*Trayektoriyasining shakliga ko'ra harakatlar to'g'ri chiziqli va egri chiziqli bo'ladi.*


Moddiy nuqtaning harakatini tavsliflash uchun harakatining kinematik qonunini ifodalovchi tenglamani yoki tenglamalar tizimini berish zarur bo'ladi.

*Tanlangan koordinatalar tizimiga nisbatan, vaqtning istalgan paytida moddiy nuqtaning vaziyatini aniqlovchi tenglamalar yoki tenglamalar tizimiga harakatining kinematik qonuni deyiladi.*

Nuqtaning fazodagi holati vektor usulida berilganda harakatining kinematik qonuni  $\vec{r} = \vec{r}(t)$  ko'rinishda, koordinata usulida berilganda esa:


$$\left. \begin{array}{l} x = x(t); \\ y = y(t); \\ z = z(t). \end{array} \right\} \quad (1.2)$$

ko'rinishda bo'ladi.



1.3 – rasm

Agar (1.2) tenglamardan t vaqtini chiqarsak, trayektoriya tenglamasini olish mumkin bo'ladi. 1.4 – rasmda trayektoriyasi tasvirlangan M nuqtaning harakatini ko'rib chiqaylik. Faraz qilaylik t vaqt momentida nuqtaning holati  $\vec{r}_1$  radius-vektor bilan aniqlanuvchi 1 holatda,  $t + \Delta t$  vaqt momentida nuqtaning holati  $\vec{r}_2$  radius-vektor bilan aniqlanuvchi 2 holatda bo'lsin.



1.4 – rasm

*Nuqtaning boshlang'ich holatidan oxirgi holatiga o'tkazilgan  $\Delta\mathbf{r}$  vektorga ko'chish vektori deyiladi.* 1.4 – rasmdan ko'rindiki, ko'chish vektori  $\Delta\mathbf{r} = \mathbf{r}_2 - \mathbf{r}_1$  2 nuqtaning radius-vektori bilan 1 nuqtaning radius-vektori ayirmasiga teng. *Nuqtaning 1 va 2 holatlari orasida trayektoriya bo'ylab hisoblangan masofaga bosib o'tilgan yo'l deyiladi*

To'g'ri chiziqli bir tomonga yo'nalган harakatda bosib o'tilган yo'l ko'chish vektorlari farqiga teng, egri chiziqli harakatda esa, bosib o'tilган yo'l ko'chish vektorlari farqidan katta bo'ladi.

#### 1.1.4 Tezlik. Yo'lni hisoblash. Tezlanish.

Har qanday  $\Delta\mathbf{r}$  ko'chish  $\Delta t$  vaqtini talab etadi. Moddiy nuqta(zarracha)ning vaqt birligi ichidagi ko'chishi uning o'rtacha tezligini aniqlaydi:

$$\boldsymbol{\vartheta}_{o\cdot\mathbf{r}} = \frac{\Delta\mathbf{r}}{\Delta t}. \quad (1.3)$$

Bu tenglikning o'ng tomonidagi  $\Delta\mathbf{r}$  ko'chish vektori, chap tomonidagi  $\boldsymbol{\vartheta}_{o\cdot\mathbf{r}}$  vektor bilan bir xil yo'nalган. O'rtacha tezlik harakatning ancha qo'pol tavsifi hisoblanadi.

Avtomobil  $\Delta t$  vaqt davomida Toshkent(1 nuqta 1.4-rasm)dan Chirchiq(2 nuqta 1.4-rasm)gacha yo'l bosib o'tdi. Ma'lumki o'rtacha tezlik formulasi Toshkentdan Chirchiqgacha bo'lgan yo'lning istalgan qismidagi tezlikni aks ettirmaydi. Bu olinadigan natija kuzatish sharoitiga bog'liq bo'lishini ko'rsatuvchi yorqin misoldir. Bu holda natija harakatning davom etish vaqtiga bog'liq.  $\Delta t$  vaqt heksiz kichik

qiymatga intilganda ko‘chish vektori o‘zgarishining oxirgi qiymati uning cheksiz kichik qiymati  $\mathbf{dr}$  ga almashadi. Bu vektorning yo‘nalishi trayektoriyaga o‘tkazilgan urinma bo‘ylab harakat yo‘nalishida bo‘ladi.

$\Delta t \rightarrow 0$  da, ya’ni bir lahzada  $\Delta r \rightarrow dr$  bo‘ladi, va (1.3) formula quyidagi ko‘rinishni oladi

$$\vec{\vartheta} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta r}{\Delta t} = \frac{d\vec{r}}{dt}, \quad (1.4)$$

ya’ni, oniy tezlik ko‘chish vektoridan olingan hosiladir.

*Moddiy nuqtaning oniy tezligi deb, uning radius-vektoridan vaqt bo‘yicha olingan hosilaga aytildi.*  $d\vec{r}$  vektor trayektoriyaga urinma bo‘ylab harakat yo‘nalishida bo‘lgani uchun oniy tezlik  $\vec{\vartheta}$  ning yo‘nalishi ham xuddi shunday bo‘ladi. Masalan, pichoqni charxlashda, pichoq va charxtosh orasida chiqadigan uchqun charxtosh gardishiga urinma bo‘ylab yo‘naladi.

Har qanday vektor kabi, tezlik vektorini ham istalgan yo‘nalishga proyeksiyalsh mumkin, uni tanlash ko‘rilayotgan masala shartiga bog’liq.

Oniy tezlik moduli cheksiz kichik ko‘chish moduli bilan bilan aniqlanadi  $dr = ds$ :

$$\vartheta = \frac{dr}{dt} = \frac{ds}{dt}. \quad (1.5)$$

$\mathbf{s}(t)$  funksiyaning hosilasi uning ko‘rinishiga bog’liq.  $s = Ct^3$  bo‘lsa,  $= \vartheta = 3Ct^2$  ni olamiz.


Moddiy nuqta to‘g’ri chiziq bo‘ylab tekis harakatlanayotgan bo‘lsin. U holda  $\mathbf{s} = \mathbf{r} - \mathbf{r}_0 = Ct$  bo‘ladi, bu yerda  $\mathbf{r}_0$  – moddiy nuqtaning  $t = 0$  vaqt momentidagi radius-vektori(1.5a-rasm). Bundan

$$\mathbf{r} = \mathbf{r}_0 + Ct \quad (1.6)$$

**SAVOL.** C koeffitsentining ma’nosi nima?

**JAVOB.**(1.6) formuladan vaqt bo‘yicha hosila olib, (1.5) ni hisobga olsak,

$\frac{dr}{dt} = C = \vartheta$  ni olamiz. Buni integrallallasak,  $r = r_0 + \vartheta t$  ga ega bo‘lamiz.



1.5-rasm

1.5a-rasmdan foydalanib tezlik modulining grafik ma’nosini aniqlaylik. O‘rtacha tezlik formulasi va 1.5a-rasmdan  $\vartheta_{avr} = t g \alpha$ . Ixtiyoriy trayektoriya bo‘ylab harakatda(1.5b-rasm)  $\Delta t$  kamayishi bilan  $\Delta r$  trayektoriyaga urinma bilan birlashib ketadi, ya’ni  $dr \rightarrow ds$  bo‘ladi. Bundan oniy tezlik  $\vartheta = \frac{dr}{dt}$  son qiymati jihatidan trayektoriyaning shu nuqtasiga o‘tkazilgan urinmaning qiyalik burchagi tangensiga teng.

Tezlikning xalqaro birliklar tizimidagi birligi m/s. (1.1) ifodani e’tiborga olsak, oniy tezlikni quyidagi shaklda ifodalashimiz mumkin:

$$\vec{\vartheta} = \frac{d\vec{r}}{dt} = \frac{dx}{dt} \vec{i} + \frac{dy}{dt} \vec{j} + \frac{dz}{dt} \vec{k}.$$

Bundan ko‘rinadiki, tezlikning tashlik etuvchilarini mos hosilalar orqali aniqlanadi:

$$\vartheta_x = \frac{dx}{dt} = \dot{x}; \vartheta_y = \frac{dy}{dt} = \dot{y}; \vartheta_z = \frac{dz}{dt} = \dot{z}. \quad (1.7)$$

Bunday holda tezlik modulini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\vartheta^2 = \vartheta_x^2 + \vartheta_y^2 + \vartheta_z^2.$$

*Tezligining moduli o‘zgarmas*  $|\vartheta| = \text{const}$  bo‘lgan harakat tekis hatakat deyiladi. Jismning ixtiyoriy trayektoriya bo‘ylab t vaqtida 1 holatdan 2 holatgacha bo‘lgan harakatida bosib o‘tgan yo‘lini aniqlaylik(1.6-rasm). Trayektoriyani shunday kichik bo‘laklarga (keyinchalik ularni elementar bo‘laklar deyiladi) bo‘lamizki, bu bo‘laklardagi tezlikni o‘zgarmaydi deb hisoblash mumkin bo‘lsin. U holda trayektoriya  $i$  - bo‘lagining uzunligi(bosib o‘tilga yo‘l)ni quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$\Delta L_i = \vartheta_i \Delta t_i ,$$

bu yerda  $\vartheta_i$  –  $i$ -bo‘lakdagi tezlik moduli;  $\Delta t_i$  – uni bosib o‘tish uchun ketgan vaqt.

*Butun yo‘lni barcha elementar bo‘laklar uzunliklari yig’indisi sifatida aniqlash mumkin.* Bunda agar  $\Delta L_i$  qanchalik qisqa, ya’ni  $\Delta t_i$  vaqt oralig’i qanchalik kichik bo‘lsa,  $S$  – bosib o‘tilgan yo‘l shunchalik aniq hisoblanadi.


$$S = \lim_{\Delta S_i \rightarrow 0} \sum \Delta L_i = \lim_{\Delta t_i \rightarrow 0} \sum \vartheta_i \Delta t_i = \int_0^t |\vartheta(t)| dt . \quad (1.8)$$

Endi muhim kinematik vektor kattaliklardan biri tezlanishni hisoblaymiz.

**Tezlanish** tezlik vektorining o‘zgarish jadalligini xarakterlovchi fizik kattalik bo‘lib,

oniy tezlikdan vaqt bo‘yicha olingan hosilaga teng:

$$\vec{a} = \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} = \frac{d^2\vec{r}}{dt^2} = \ddot{\vec{r}} ; \quad \vec{a} \uparrow\uparrow d\vec{\vartheta} .$$



1.6 - rasm

Bu ifodani koordinata o‘qlariga proyeksiyalab quyidagilarga ega bo‘lamiz:

$$\left. \begin{aligned} a_x &= \frac{d\vartheta_x}{dt} = \frac{d^2x}{dt^2}; \\ a_y &= \frac{d\vartheta_y}{dt} = \frac{d^2y}{dt^2}; \\ a_z &= \frac{d\vartheta_z}{dt} = \frac{d^2z}{dt^2}. \end{aligned} \right\} \quad (1.9)$$

### 1.1.5 O‘zgarmas tezlanish bilan harakatlanayotgan moddiy nuqtaning kinematik qonuni.

Agar harakati davomida moddiy nuqta tezlanishi vektorining miqdori va yo‘nalishi o‘zgarmasa, bunday harakatga tekis o‘zgaruvchan harakat deyiladi.

Tezlanish ta’rifidan  $d\vartheta = \vec{a} dt$ . Bu ifodani integrallagandan so‘ng quyidagi ifoda hosil bo‘ladi.

$$\vec{\vartheta} = \vec{\vartheta}_0 + \vec{a} t, \quad (1.10)$$

bu yerda  $\vec{\vartheta}_0$  – boshlang’ich tezlik, ya’ni  $t = 0$  vaqt momehtidagi tezlik;  $\vec{\vartheta} - t$  vaqt momentidagi tezlik.

(1.4) ifodani  $d\vec{r} = \vec{\vartheta} dt$  ko‘rinishda yozib olamiz va unga tezlikning (1.10) ifodadagi qiymatini qo‘yib integrallagandan so‘ng,  $\vec{a} = \text{const}$  bo‘lgan hol uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz:  $\vec{r} = \vec{r}_0 + \vec{\vartheta}_0 t + \frac{\vec{a} t^2}{2}$ , bu yerda  $\vec{r}_0$  – jismning  $t = 0$  vaqt momentidagi holatini ifodalovchi radius – vektor.


(1.2) ifodani qo‘llab, koordinatalarning o‘zgarish qonunlarini hosil qilamiz:

$$\left. \begin{aligned} x &= x_0 + \vartheta_{0x} t + \frac{a_x t^2}{2}; \\ y &= y_0 + \vartheta_{0y} t + \frac{a_y t^2}{2}; \\ z &= z_0 + \vartheta_{0z} t + \frac{a_z t^2}{2}. \end{aligned} \right\} \quad (1.11)$$

### 1.1.6 Normal va tangehsial tezlanish.

Umumiy holda jism tezlanishi vektorining yo‘nalishi noma’lum. Buni aniqlash uchun jism trayektoriyasining har bir nuqtasida ikkita birlik vektorlarni *urinma*  $\tau$  va *normal*  $n$  vektorlarni o‘tkazamiz(1.7-rasm).  $\tau$  vektorni trayektoriyaga urinma,  $n$  vektorni trayektoriyaga perpendikulyar holda o‘tkazamiz. Aniq masalalarni hal etishda  $\vec{a}$  tezlanish vektorining urinma va normal yo‘nalishlarga proyeksiyalarini ko‘rib chiqish qulay.

$\vec{a}$  tezlanish vektorining  $n$  normal yo‘nalishga proyeksiyaga normal(markazga intilma) tezlanish deyiladi.  $\vec{a}$  tezlanish vektorining  $\tau$  tangensial(urinma) yo‘nalishga proyeksiyasi tangensial(urinma) tezlanish  $\tau$  deyiladi.



$$\vec{a} = a_\tau \vec{\tau} + a_n \vec{n}, \quad (1.12)$$

bu yerda  $a_\tau$  – tangensial tezlanishning moduli,  $a_n$  – normal tezlanish moduli.

Bu tezlanishlarning fizik ma’nosini aniqlashtiramiz. Buning uchun tezlikni quyidagi ko‘rinishda tasvirlaylik:  $\vec{\vartheta} = \vartheta \vec{\tau}$ . Tezlanishni aniqlaymiz

$$\vec{a} = \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} = \frac{d}{dt}(\vartheta \vec{\tau}) = \vec{\tau} \frac{d\vartheta}{dt} + \vartheta \frac{d\vec{\tau}}{dt}. \quad (1.13)$$


(1.12) va (1.13) formulalardagi birinchi qo‘shiluvchilarni taqqoslasak,  $a_\tau = \frac{d\vartheta}{dt}$  ekanligini ko‘ramiz. Demak tangensial tezlanish tezlik miqdorining o‘zgarishini xarakterlaydi. (1.13) ifodadagi ikkinchi qo‘shiluvchining miqdori va fizik ma’nosini aniqlaymiz.

Bilamizki, ikki  $\vec{a}$  va  $\vec{b}$  vektorlarning skalyar ko‘paytmasi  $c$  skalyar miqdordir. U ikki vektoring modullari va bu vektorlar oralig’idagi burchakning kosinusini orqali quyidagicha hisoblanadi:  $c = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \cos(\widehat{\vec{a}, \vec{b}})$ .  $(\vec{\tau}, \vec{\tau}) = 1 = const$  ekanligidan  $\frac{d(\vec{\tau}, \vec{\tau})}{dt} = 0$  bo‘ladi.  $(\vec{\tau}, \vec{\tau})$  ifodaning vaqt bo‘yicha hosilasini quyidagicha ham topish mumkin:

$$\frac{d(\vec{\tau}, \vec{\tau})}{dt} = \vec{\tau} \frac{d\vec{\tau}}{dt} + \vec{\tau} \frac{d\vec{\tau}}{dt} = 2\vec{\tau} \frac{d\vec{\tau}}{dt}.$$

Bundan ko‘rinadiki  $\vec{\tau} \frac{d\vec{\tau}}{dt} = 0$ , demak  $\vec{\tau} \perp \frac{d\vec{\tau}}{dt}$  (1.13) ifodadagi ikkinchi do‘shiluvchi  $\vec{\tau}$  ga perpendikulyar bo‘lgan  $\vec{n}$  normal vektor, ya’ni normal tezlanish vektoridir.

Moddiy nuqtaning R radiusli aylana bo‘ylab tekis harakatlanayotgan xususiy holini ko‘raylik(1.8- a rasm).




1.8 - rasm

Faraz qilaylik nuqta  $\Delta t$  vaqt oralig'ida 1 holatdan 2 holatga  $\vec{\Delta r}$  ko'chdi, bu vaqt davomida  $\vec{\tau}$  vektor yo'nalishini o'zgartirib nuqta bilan birgalikda  $\Delta\alpha$  burchakka buriladi.  $\Delta\vec{\tau} = \vec{\tau}_2 - \vec{\tau}_1$  vektorni tasvirlaymiz(1.8,b – rasm). Teng yonli uchburchaklarning o'xshashligidan quyidagi kelib chiqadi:  $\frac{|\Delta\vec{\tau}|}{\tau} = \frac{|\Delta\vec{r}|}{R}$ , bundan  $\Delta\tau = \frac{1}{R}\Delta r$ . Bunda  $\Delta t$  nolga intilsa,  $\lim_{\Delta t \rightarrow 0} \Delta\tau = d\tau$ ,  $\lim_{\Delta t \rightarrow 0} \Delta r = dr$  bo'ladi, bulardan  $d\tau = \frac{1}{R}dr$  bo'lishi kelib chiqadi. Bu ifodani dt ga bo'lsak, quyidagiga ega bo'lamiz:  $\frac{d\tau}{dt} = \frac{1}{R} \frac{dr}{dt} = \frac{1}{R} \vartheta$ . Shuning uchun (1.13) ifodadagi ikkinchi qo'shiluvchining moduli quyidagiga teng bo'ladi  $|\frac{d\tau}{dt}\vartheta| = \frac{1}{R} \vartheta^2$ . Shunday qilib, normal tezlanish moduli uchun quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:  $a_n = \frac{1}{R} \vartheta^2$ .

Agar aylana bo'ylab harakat notejis  
bo'lsa u holda

$$\vec{a} = a_\tau \vec{\tau} + a_n \vec{n} = \vec{\tau} \frac{d\vartheta}{dt} + \frac{\vartheta^2}{R} \vec{n} \quad . \quad (1.14)$$

Ixtiyoriy tekis trayektoriya(1.9-rasm)ning har bir nuqtasiga urinma aylanalarini o'tkazish mumkin, bu aylanalar trayektoriya aylanasiga aniq muvofiq keladi. Bu aylanalar radiuslariga trayektoriyaning egrilik radiusi deyiladi va  $\rho$  bilan belgilanadi.



### 1.9 – rasm

Bunday holda normal tezlanish  $a_n = \frac{\vartheta^2}{\rho}$  ko'rinishda yoziladi, to'liq tezlanish moduli esa quyidagi formuladan topiladi:

$$|\vec{a}| = \sqrt{\left(\frac{d\vartheta}{dt}\right)^2 + \left(\frac{\vartheta^2}{\rho}\right)^2} \quad . \quad (1.15)$$

## 1.2 Relyativistik kinematika

### 1.2.1.Galiley almashtirishlari

Kosmik stansiya bilan yuk kemasini tutashtirish ishlari “Yer” va “stansiya” dagi sanoq tizimlarida nazorat qilinadi, ularda kosmik kema turlicha koordinata va tezliklarga ega bo‘ladi. Havoda samolyotlarga yoqilg’i quyishda, harakatlanayotgan transportdan otish va boshqa shunga o‘xhash hollarda ham shunday bo‘ladi. Bunday hol, bir sanoq tizimidan boshqasiga o‘tishni talab etuvchi ko‘pgina muhim amaliy vazifalarini hal etishda ko‘p uchraydi.

Faraz qilaylik  $O$  va  $O'$  sanoq tizimi mavjud bo‘lsin (1.10-rasm). Bunda  $O'$  sanoq jismi,  $O$  sanoq tizimida  $\vartheta$  doimiy tezlik bilan ilgarilanma harakatlanmoqda. Ixtiyoriy A zarracha uchun

$$\mathbf{r} = \mathbf{r}' + \mathbf{r}_0 . \quad (1.16)$$

(1.16) ni vaqt bo‘yicha differensiallab, quyidagini olamiz


$$\vartheta = \vartheta' + \vartheta_0 . \quad (1.17)$$

bu yerda  $\vartheta$  A zarrachaning  $O$  sanoq tizimidagi tezligi;  $\vartheta'$  uning  $O'$  sanoq tizimidagi tezligi;  $\vartheta_0$   $O'$  sanoq tizimining  $O$  sanoq tizimiga nisbatan tezligi.

Agar desantchi harakatlanayotgan transportdan sakrasa, bunday holda u Yerga nisbatan o‘z tezligini kamaytirish uchun o‘zini xuddi tiralib itarilgandek his qiladi.

(1.16) va (1.17) tengliklar *Galiley almashtirishlari* deyiladi. Ular foydaliligi bilan bir qatorda, agar u  $O'$  sanoq tizimi ichida to‘liq izolyatsiya qilingan bo‘lsa, kuzatuvchiga o‘zining  $O$  sanoq tizimiga nisbatan harakatlanayotganligini aniqlash imkonini bermaydi. Bu  $O'$  sanoq tizimiga nisbatan o‘zgarmas tezlik bilan harakatlanayotgan,  $O$  sanoq tizimi ichida to‘liq izolyatsiya qilingan kuzatuvchi uchun ham o‘rinli. Bu shunday savolni tug’diradi:

*haqiqatda tizimlardan qaysi biri harakatlanmoqda?* Madomiki buni (1.17) formula bilan aniqlanuvchi tezliklar orqali ham aniqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun (1.17) formulani vaqt bo‘yicha differensiallab,



1.10-rasm

tezlanishni aniqlaymiz. Agar  $\vartheta_0 = \text{const}$  ekanligini hisobga olgan holda, (1.17) ifodani differensiallab, quyidagini olamiz

$$a = a'. \quad (1.18)$$

Bu harakat ham natija bermadi: O va O' sanoq tizimlarida tezlanishlar teng ekan. Bundan *Galileyning nisbiylik prinsipi* kelib chiqadi: *jism harakatining kinematik xarakteristikalarini hech qanday o'lchanashlar bilan, bu sanoq tizimi tekis va to'g'ri chiziqli harakatlanayotgani yoki tinch turganini aniqlab bo'lmaydi*. Ikkala holda ham tizim tezligi o'zgarmay qoladi, va bunday sanoq tizimlari *inertsial sanoq tizimlari deyiladi*.

Galiley almashtirishlari yorug'lik tezligini o'lchanashda ham ojizlik qildi. Yorug'lik tezligi birinchi marta daniyalik astronom O. Ryomer tomonidan 1676 yilda o'lchangan. U Yerning Quyosh atrofidagi orbital harakati davomida Yupiter yo'ldoshlaridan biri(davri  $\sim 42$ soat) bilan Yer orasidagi masofaning ortib borishidan foydalandi. Madomiki, qo'shimcha hosil bo'lgan masofani bosib o'tish uchun yorug'likka biror vaqt kerak bo'ladi, yo'ldoshning tutilish davri ham ortadi. XIX asr oxirida amerikalik fizik A. Maykelson(1852 — 1931yy.) va E. Morli(1830 — 1923yy.) yorug'lik tezligi qiymatini, yoruglik — bu efir to'lqini degan shart asosida aniqlashtirdi. Ular yorug'lik tezligini Yerning Quyosh atrofidagi orbital harakati yo'naliishida( $30\text{km/s}$ ) va unga ko'ndalang bo'lgan yo'naliishida taqqoslashdi. Maykelson bu ikkisi, avval ulardan biri efir shamoliga qarshi, so'ngra uning oqimi yo'naliishida, ikkinchisi esa, unga ko'ndalang holda ikki yo'naliishda suzuvchining musobaqasiga o'xshaydi deb aytgan edi. Biroq, yorug'lik tezligi (1.17) formulaga xilof ravishda, yil fasliga yoki qanday yo'naliishda o'lchanayotganligiga bog'liq emas. Bu hayratlanarli holat boshqa bir qancha kashfiyotlar bilan birga XX asrda buyuk nazariyaning ochilishiga olib keldi. Bu nazariya *xususiy*, yoki, *maxsus nisbiylik nazariyasi* (MNN) deb ataladi. Bu nazariyaning ochilishiga irlandiyalik fizik D. Larmor(1857 — 1942yy.), fransuz matematigi va fizigi J. A. Puankare, golland fizigi X. A. Lorens(1853 — 1928yy.), nemis matematigi G. Minkovskiy(1864 — 1909yy.)lar hissa qo'shishgan. Biroq bu nazariyaning bosh muallifi, zamonaviy fizikaning asoschilaridan biri, Shveysariyada, Germaniyada va AQSHda ishlagan fizik A. Eynshteyn(1879 — 1955)dir. U 1921 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

*MNN ga tegishli bo'lgan kattaliklarga relyativistik kattaliklar deyiladi*(lotincha *relativ-nisbiy* degan manoni bildiradi). MNN postulatlaridan biri yorug'lik tezligining o'zgarmasligi(invariantligi)ga tegishli: *barcha inertsial sanoq tizimlarida*

yorug'likning vakuumdagi tezligi bir xil  $c = 3 \cdot 10^8$  m/s qiymatga ega, yani yoruglik manbasi yoki qabul qilgichning nisbiy harakatiga bog'liq emas.

Yorug'lik tezligining invariantligi, bir qator hayratlanarli oqibatlarga olib keladi. O' sanoq tizimiga bog'langan raketa O sanoq tizimiga nisbatan  $\vartheta_0$  o'zgarmas tezlik bilan  $X$  va  $X'$  o'qlarga parallel harakatlanayotgan bo'lgin(1.11-rasm). Bu o'qlar bir biri bilan ustma-ust tushadi, rasmida ko'rgazmalilik uchun yoyilgan. Qandaydir vaqt momentida A,B,C nuqtalar A', B', C' ( $\vartheta = 0$  da  $AB = A'B' = BC = B'C'$ ). Bu vaqt momentida A(A') va C(C') nuqtalarda yorug'lik chaqnadi. Malumki, u ikkala manbadan ham O sanoq tizimidagi B nuqtaga bir vaqtda yetib keladi, biz (B nuqtada turgan holda) A va C nuqtalarda yorug'lik bir vaqtda chaqnadi deb xulosa qilamiz.


Bu chaqnashlar O' sanoq tizimidagi B' nuqtada ham bir vaqtda sodir bo'ladimi? – degan savol tug'iladi.

Yorug'lik unda ham shu tezlikka ega, ammo B' nuqtaning o'zi C' nuqtadagi chaqnashga tomon harakatlanmoqda va A' nuqtada sodir bo'lgan chaqnashdan uzoqlashmoqda. Shuning uchun C manbadan, A' manbadagi chaqnashga qaraganda B' nuqtaga ertaroq yetib keladi. Shunday qilib, *O sanoq tizimida bir paytda yuz bergan voqealar O' sanoq tizimida bir vaqtda yuz bermas ekan, yani bir vaqtlilik tushunchasi nisbiyidir*. Bu ajoyib natija turli sanoq tizimlarida vaqtning o'tishi to'g'risidagi savolni o'rta ga tashlaydi. Yorug'lik soati deb ataluvchi soatlardan foydalanib, uni taqqoslash mumkin. O va O' sanoq tizimidagi soatlarda  $\Delta t$  va  $\Delta t'$  davrlar bir birlari bilan quyidagi ifoda orqali bog'langan

$$\Delta t = \frac{\Delta t'}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}. \quad (1.19)$$

*Jism unga nisbatan tinchlikda turadigan tizimlarga, xususiy sanoq tizimlari deyiladi.* (1.19) formuladan ko'rindaniki,  $\Delta t > \Delta t'$ . *Xususiy sanoq tizimlarida unga nisbatan harakatlanayotgan sanoq tizimlaridagi qaraganda vaqt sekin o'tadi.*

Shunday qilib, ming yillar davomida vaqtning o'tishi to'g'risidagi tasavur noto'g'ri ekan: vaqt oralig'i — nisbiy tushuncha(vaqt sanoq tizimiga bog'liq), bu ajoyib xulosa tajriba asosida tasdiqlanadi.



1.11-rasm

tezlik bilan  $X$  va  $X'$  o'qlarga parallel harakatlanayotgan bo'lgin(1.11-rasm). Bu o'qlar bir biri bilan ustma-ust tushadi, rasmida ko'rgazmalilik uchun yoyilgan. Qandaydir vaqt momentida A,B,C nuqtalar A', B', C' ( $\vartheta = 0$  da  $AB = A'B' = BC = B'C'$ ). Bu vaqt momentida A(A') va C(C') nuqtalarda yorug'lik chaqnadi. Malumki, u ikkala manbadan ham O sanoq tizimidagi B nuqtaga bir vaqtda yetib keladi, biz (B nuqtada turgan holda) A va C nuqtalarda yorug'lik bir vaqtda chaqnadi deb xulosa qilamiz.

Malumki, u ikkala manbadan ham O sanoq tizimidagi B' nuqtada ham bir vaqtda sodir bo'ladimi?

– degan savol tug'iladi.

Yorug'lik unda ham shu tezlikka ega, ammo B' nuqtaning o'zi C' nuqtadagi chaqnashga tomon harakatlanmoqda va A' nuqtada sodir bo'lgan chaqnashdan uzoqlashmoqda. Shuning uchun C manbadan, A' manbadagi chaqnashga qaraganda B' nuqtaga ertaroq yetib keladi. Shunday qilib, *O sanoq tizimida bir paytda yuz bergan voqealar O' sanoq tizimida bir vaqtda yuz bermas ekan, yani bir vaqtlilik tushunchasi nisbiyidir*. Bu ajoyib natija turli sanoq tizimlarida vaqtning o'tishi to'g'risidagi savolni o'rta ga tashlaydi. Yorug'lik soati deb ataluvchi soatlardan foydalanib, uni taqqoslash mumkin. O va O' sanoq tizimidagi soatlarda  $\Delta t$  va  $\Delta t'$  davrlar bir birlari bilan quyidagi ifoda orqali bog'langan

$$\Delta t = \frac{\Delta t'}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}. \quad (1.19)$$

*Jism unga nisbatan tinchlikda turadigan tizimlarga, xususiy sanoq tizimlari deyiladi.* (1.19) formuladan ko'rindaniki,  $\Delta t > \Delta t'$ . *Xususiy sanoq tizimlarida unga nisbatan harakatlanayotgan sanoq tizimlaridagi qaraganda vaqt sekin o'tadi.*

Shunday qilib, ming yillar davomida vaqtning o'tishi to'g'risidagi tasavur noto'g'ri ekan: vaqt oralig'i — nisbiy tushuncha(vaqt sanoq tizimiga bog'liq), bu ajoyib xulosa tajriba asosida tasdiqlanadi.

**Amaliyotdan misollar:** Yer sirtidan 10 — 30 km balandlikda azot va kislorod atomlarining kosmik nurlar bilan bombardimon qilinishi natijasida ko‘plab elementar zarralar hosil bo‘ladi, shu jumladan  $\mu$  mezonlar(myuonlar). Xususiy sanoq tizimida ular  $2 \cdot 10^{-6}$ s yashaydi va so‘ng yemiriladi. Ular yorug’lik tezligida harakatlansa ham, bosib o‘tishi mumkin bo‘lgan maksimal masofalari  $2 \cdot 10^{-6} \cdot 3 \cdot 10^8 = 600$  metrga teng, biroq bu zarralarni Yer sirtida ham topishmoqda, yani ular 10 km dan ortiq uchishmoqda! Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, myuonlar faqatgina xususiy sanoq sistemalaridagina  $2 \cdot 10^{-6}$  s yashaydi, Yer soati bo‘yicha esa ancha uzoq yashaydilar.

---

### 1.2.2.Lorens almashtirishlari

Yuzaga kelgan bu vaziyat fan uchun haqiqiy halokat bo‘lib ko‘rindi.

1.11-rasmida ko‘rsatilgan tizim uchun Galiley almashtirishlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$x = x' + \vartheta t, \quad y = y', \quad z = z', \quad t = t', \quad (1.20)$$

ammo endi biz ularni tuzatishga majburmiz, bu esa mustahkam o‘rnashib olgan makon va zamон haqidagi tushunchalarni butunlay o‘zgartirdi. Bunday jasorat Gollandiyalik nazariy fizik X. Lorents (1853-1928 yy.)ga tegishli. Lorents almashtirishlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$x = \frac{x' + \vartheta t'}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}, \quad (1.21)$$

$$y = y', \quad z = z', \quad (1.22)$$

$$t = \frac{t' + \vartheta x' / c^2}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}. \quad (1.23)$$

bu erda  $c$  - yorug’likning vakuumdagи tezligi. Ularning asosiy farqi shundaki ular koordinatalarni va vaqtini ajralmas qilib bog’laydi. Vaqt esa, vaqtini hisobga olmasdan faqatgina makon haqida gapirishlariga imkon bermaydigan ajralmas to‘rtinchи parametrdir. Oddiy uch o‘lchovli bo‘shliq(vakuum) to‘rt o‘lchovli bo‘shliq bilan almashtiriladi. Demak, endi Galiley almashtirishlari haqida unutishga to‘g’ri keladimi?

Ushbu muhim savol nafaqat mazkur holatga tegishli, balki umuman ilm-fan rivojiga ham tasir qiladi. Yangi qonun paydo bo‘lganda, unga moslik tamoyili deb

nomlangan talab qoy‘iladi: yangi nazariya eskisini xususiy hol sifatida o‘z tarkibida saqlashi lozim, bundagi shart-sharoitda eski nazariya haqiqiy bo‘ladi.

**SAVOL.** Lorents almashtirishlari xususiy hol sifatida avvalgi almashtirishlarni o‘z ichiga oladimi?

**JAVOB.** Ko‘p yillar davomida insoniyat tomonidan foydalanib kelingan Galileyning almashtirishlari  $\vartheta \ll c$  tezliklarda o‘zini oqladi, (1.21) — (1.23) formulalarda  $\frac{\vartheta}{c} \ll 1$  deb olinsa, (1.20) formulaga ega bo‘lamiz. Bu Lorents almashtirishlari moslik tamoyilini qoniqtirishini tasdiqlaydi.

### 1.1.7 Absolyut qattiq jismning aylanma harakati. Qo‘zg’almas o‘q

(1.21) — (1.23) tengliklardan amalda muhim va hayratlanarli bo‘lgan natijalar kelib chiqadi. Faraz qilaylik  $x$  o‘qi bo‘ylab sterjen joylashgan bo‘lsin (1.11-rasm). Bu sterjen tinch holatda bo‘lgan O tizimdagи uning uzunligiga xususiy uzunlik deyiladi va u bir vaqtda o‘lchangan sterjen uchlari koordinatalari farqi bilan aniqlanadi:  $l = x_2 - x_1$ . O’ sanoq tizimida sterjen  $\vartheta$  tezlik bilan harakatlanadi, uning uchlari koordinatalarini bir vaqtda o‘chash O’ sanoq tizimidagi soatlar bilan amalga oshiriladi. U holda (1.21) munosabatga asosan

$$l = x_2 - x_1 = \frac{x'_2 - x'_1}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}} = \frac{l'}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}. \quad (1.24)$$

Bundan ko‘rinadiki,  $l' < l$ , yani jismning sanoq tizimidagi uzunligi u harakatlanayotgan tizimga nisbatan harakat yo‘nalishida qisqaradi. Shunday qilib, “uzunlik” tushunchasi ham xuddu “vaqt” tushunchasi kabi nisbiydir, yani jismning o‘lchami sanoq tizimiga bog’liq. (1.23) va (1.24) formulardan ko‘rinadiki,  $\frac{\vartheta}{c}$  qancha katta bo‘lsa, relyativistik natija ham shuncha katta bo‘ladi.

### 1.2.3 Tezliklarni relyativistik qo‘shish qonuni

Lorents almashtirishlaridan kelib chiqadigan yanada muhimroq natija tezliklarni relyativistik qo‘shish qonuniga tegishli. (1.21) va (1.23) ifodalardan quyidagilarni olamiz

$$\Delta x = \frac{\Delta x' + \vartheta \Delta t'}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}; \quad (1.25)$$

$$\Delta t = \frac{\Delta t' + \vartheta \Delta x' / c^2}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}. \quad (1.26)$$

Birinchi tenglikni ikkinchisiga bo‘lib quyidagini olamiz

$$\frac{\Delta x}{\Delta t} = \frac{\Delta x' + \vartheta \Delta t'}{\Delta t' + \vartheta \Delta x' / c^2}. \quad (1.27)$$

Bu ifodaning o‘ng tomoni surat va maxrajini  $\Delta t'$ ga bo‘lib, cheksiz kichik miqdorlarni hisobdan chiqarsak, tezliklarning yangi ifodasini olamiz.

$$u = \frac{u' + \vartheta}{1 + \vartheta u' / c^2}, \quad (1.28)$$

bu yerda  $u$ ,  $u'$ - jismning O va O' sanoq tizimida  $x$  o‘qi bo‘ylab yo‘nalgan tezliklari.

**SAVOL.** (1.28) formula moslik tamoyilini qoniqtiradimi?

**JAVOB.**  $\vartheta u' / c^2 \ll 1$  da (1.28) formula (1.17) qonunga aylanadi. Demak (1.28) formula moslik tamoyilini qoniqtiradi.

Ko‘rinadiki, (1.28) ifoda ham xuddi (1.17) qonunga o‘xshab har qanday tezlikka erishishga to‘sinqilik qilmaydi. Agar, O' sanoq tizimida (1.11-rasm) zarracha  $x'$  o‘q bo‘ylab  $c$  dan salgina kichik  $u'$  va  $c$  dan salgina kichik  $\vartheta$  tezliklar bilan harakatlansa,

bunday holda ularning yig’indisi  $c$  dan kata bo‘ladi. Ammo, (1.28) ifodadan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi

$$c - u = c - \frac{u' + \vartheta}{1 + \frac{\vartheta u'}{c^2}} = \frac{(c - \vartheta)(c - u')}{(1 + \frac{\vartheta u'}{c^2})} > 0, \quad (1.29)$$

bundan ko‘rinadiki, shartga ko‘ra suratdagi ikkala qavs ham musbat son. Demak, zarrachaning  $u$  tezligi O sanoq tizimidagi har qanday  $u'$  va  $\vartheta$  tezliklarda yorug’likning  $c$  tezligidan kichik.

*Yorug’likning vakuumdagi tezligi — tabiatda mumkin bo‘lgan eng katta tezlik.*

Nyuton davridan beri fanda uzoqdantasisir haqidagi tushunchasi qaror topgan bo‘lib, unga ko‘ra, kuchlar, masalan, tortishish yoki kulon o‘zarotasiri har qanday masofaga bir zumda tarqaladi. Maxsus nisbiylik nazariyasini(MNN)da olingan natija buni rad etadi, yaqindantasisir nazariyasiga ko‘ra: hech qanday jarayon, hech qanday signal yorug’likning tezligidan katta tezlik bilan tarqalishi mumkin emas!

Nemis astronomi G. Olbers(1758 — 1840yy.) tungi qop-qora osmonni ko‘rib hayratlangan(Olbers paradoksi): koinot cheksiz bo‘lgani uchun, har qanday kishi uchun u yulduzlarni nigohi yo‘nalishi bo‘yicha ko‘rishi kerak, yani osmon yorqin nur sochib turishi kerak! Biroq, yorug’lik tezligi cheklanganligi sababli, uzoq masofalardagi yulduzlardan tarqalgan yorug’lik bizga etib kelishga ulgurmaydi.

Shunday qilib, agar biz Lorens almashtirishlaridan foydalansak, unda nafaqat mexanika qonunlari, shuningdek, elektrodinamika qonunlari (yorug’likning harakati) saqlanib qoladi. Ularning bir sanoq tizimidan boshqasiga o‘tishda ko‘rinishi o‘zgartirmaydi va “haqiqiy” harakatni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qila olmaydi. Bu Eynshteynga nisbiylik printsipini *materianing barcha harakat shakllariga* qo‘llash imkonini berdi.

MNNning birinchi postulati: *inertsial tizimlarida barcha tabiiy hodisalar, bir xil boshlang’ich shartlarda bir xilda o‘tadi.*

MNN xulosalari olimlar va faylasuflarni chalkashlikka olib keldi. Ikki asrdan ko‘proq vaqt davomida fan, texnika va dunyoqarashda Nyuton mexanikasi tantana qildi.

Qizg’in munozaralardan so‘ng aniq bo‘ldiki, “fazo”, “vaqt”, “tezlik” tushunchalari nisbiyigida dunyoqarashlarga zarar yetkazadigan hech nima yo‘q. Aslida allaqachon Galileyning nisbiylik printsipi harakatga nisbatan odamlarning hukmlari noto‘g’ri bo‘lishi mumkinligiga guvohlik berdi: ular kuzatish shartlari asosida ko‘rib chiqilishi kerak va MNN faqat mazkur xulosani rivojlantirdi. U yuqori tezlikdagi, kosmos uchun xarakterli bo‘lgan, tezlatgichlardagi jarayonlar uchun yangi muhim bilish vositasini beradi.

## XULOSA

Mexanik harakat shunday ma‘noda nisbiyki, zarrachalarning koordinatalari va tezligi mos sanoq tizimini tanlash bilan aniqlanadi, ammo hech qanday inertsial sanoq tizimida harakatlanish faktini aniqlab bo‘lmaydi - mexanikaning barcha hodisalari va tabiatning boshqa barcha hodisalari sanoq tizimini tanlashga nisbatan invariantdir.

Kinematika qonunlari texnikada, shu jumladan qurol-yarog’ va harbiy texnikada keng qo‘llaniladi.


## Nazorat uchun savollari

1. Mexanika va kinematika nimani o‘rganadi?
2. Mexanikada modellashtirishlarga misollar keltiring va tushuntiring.

- 3.Sanoq tizimi deb nimaga aytildi?
- 4.Koordinatalar tizimi deb nimaga aytildi va uning qanday turlarini bilasiz?
5. Mexanik harakat deb nimaga aytildi va u qanday usullarda beriladi?
- 6.Trayektoriya deb nimaga aytildi?
- 7.Moddiy nuqta harakatining kinematik qonunini tushuntiring.
- 8.Ko‘chish vektori deb nimaga aytildi va bosib o‘tilgan yo‘l bilan qanday bog’langan?
9. Moddiy nuqta harakatining tezligi va tezlanishi?
10. Tekis o‘zgaruvchan harakat deb qanday harakatga aytildi?
11. To‘la, normal va urinma tezlanishlarni tushuntiring.
12. Galiley almashtirishlari va uning nisbiylik prinsipini tushuntiring.
- 13.Inertsial sanoq tizimi deb qanday sanoq tizimiga aytildi?
- 14.Lorentz almashtirishlarini tushuntiring.
15. Maxsus nisbiylik nazariyasi(MNN) postulatlarini tushuntiring.
16. Tezliklarni relyativistik qo‘shish qonuni tushuntiring.
17. Nega haydovchilar yo‘lning aylana qismida tezlikni pasaytirishadi?

### Masala yechish namunalari

**1.1.** Dushman bo‘linmasi h balandlikdagi jarlik ostidan  $l$  masofada yotadi(1.12-rasm).  $\vartheta_0$ boshlang’ich tezligi bilan gorizontal ravishda uloqtirilgan granata nishonga etib boradimi va agar zapal  $t$  soniya davomida yonib tursa, granata havoda yoki yerda portlashini aniqlang?



1.12-rasm

**Yechish.** Granataning gorizontal uchish uzoqligi  $l_1 = \vartheta_0 t_1$ , bu erda  $t_1$ uning tushish vaqtini bo‘lib, jarlikning balandligi bilan aniqlanadi:  $t_1 = \sqrt{2h/g}$ . Shunday qilib,  $l_1 = \vartheta_0 \sqrt{2h/g}$ .  $l_1$  va  $l$  ni hamda  $t_1$  va  $t$  ni taqqoslab, berilgan savollarga javob olamiz.

**1.2.** Bombardimonchi samolyot ufqqa  $60^\circ$  burchak ostida sho‘ng’iydi. Agar bomba tashlanayotganda samolyotning tezligi 720 km/soat va parvoz balandligi 500 m bo‘lsa, bomba nishondan qanday masofada gorizontal tashlanishi kerak? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**Berilgan:**  $\varphi = 60^\circ$ ;  $\vartheta_0 = 720$  km/soat = 200 m/s;  $h = 500$  m.

S-?

**Yechish.** Izlanayotgan masofa bomba tezligining gorizontal komponenti va uning tushish vaqt bilan belgilanadi:  $S = \vartheta_o t \cdot \cos\varphi$ .

t vaqt bomba tashlangan h balandligi va uning tekis tezlanuvchan tushishi bilan aniqlanadi:  $S = \vartheta_o t \cdot \sin\varphi + \frac{gt^2}{2}$ .

Ushbu kvadrat tenglamani t uchun echib quyidagini olamiz

$$t = -\frac{\vartheta_o}{g} \sin\varphi \pm \sqrt{\left(\frac{\vartheta_o}{g} \sin\varphi\right)^2 + \frac{2h}{g}}.$$

Bunday holda, ildiz oldidagi “—“ belgisi fizik ma’noga ega emas.

Berilgan son qiymatlarini joyiga qo‘ysak,  $t = 2,67$  s ni olamiz. Ushbu qiymatdan foydalanib,  $S = 267$  m ekanligini topamiz.


**1.3.** Snaryadning boshlang’ich tezligi  $\vartheta_o$ , uni uloqtirish chizig’ining ufq bilan tashkil qilgan burchagi  $\varphi$  ga teng. Snaryadning uchish vaqt va masofasini, traektoriyaning maksimal balandligini va uning yuqori nuqtasidagi egrilik radiusini aniqlang. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

**Yechish.** Snaryadning tezligi va koordinatalari quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi

$$\vartheta_x = \vartheta_o \cos\varphi, \vartheta_y = \vartheta_o \sin\varphi - gt; \quad (1.30)$$

$$x = \vartheta_o t \cos\varphi, y = \vartheta_o t \sin\varphi - \frac{gt^2}{2}. \quad (1.31)$$

Agar oxirgi ikki tenglamadan t chiqarilsa, u holda biz snaryadning uchish traektoriyasi  $y(x)$  ni olamiz. U 1.13-rasmida tasvirlangan parabola shaklida.



1.13-rasm

Traektoriyaning simmetriyasi tufayli snaryadning harakatlanish vaqtini t traektoriyaning eng yuqori nuqtasiga ko‘tarilish vaqtining ikki baravariga teng:

$$t_h = \frac{2\vartheta_o \sin \varphi}{g}. \quad (1.32)$$

Shuning uchun uchish uzoqligi

$$S = \vartheta_x t_h = \frac{2\vartheta_o^2 \cos \varphi \cdot \sin \varphi}{g} = \frac{\vartheta_o^2}{g} \sin 2\varphi. \quad (1.33)$$

(1.33) formuladan ko‘rinib turibdiki,  $\varphi = 45^\circ$  da u maksimal bo‘ladi:

$$S_{max} = \frac{\vartheta_o^2}{g}. \quad (1.34)$$

Traektoriyaning h balandligini tekis tezlanuvchan (yoki tekis sekinlanuvchan) harakatdagi yo‘l formulasiga  $t = t_h/2$  vaqtini qo‘yib topish oson. (1.33) formuladan foydalaniib, quyidagini olamiz

$$h = \frac{gt^2}{2} = \frac{\vartheta_o^2}{2g} \sin^2 \varphi.$$

Ko‘rib turganimizdek, h balandlik  $\varphi = \frac{\pi}{2}$  burchak ostida maksimal bo‘ladi:

$$h_{max} = \frac{\vartheta_o^2}{2g} \quad (1.35)$$

Traektoriyaning eng yuqori B nuqtasida (1.13-rasmga qarang)  $\vartheta = \vartheta_x = \vartheta_o \cos \varphi; a_x = a_\tau = 0, |a_y| = |a_n| = g = \frac{\vartheta_o^2}{R}$ , bu yerda R – trayektoriyaning egrilik radiusi. Bulardan

$$R = \frac{\vartheta_o^2}{g} \cos^2 \varphi.$$

Masalan, Kalashnikovning bronetransporterga o‘rnatilgan pulemyotidan gorizontal tekislikka  $30^\circ$  burchak ostida otilgan, boshlang’ich tezligi 825m/s, kalibri 7,62 mm bo‘lgan o‘qi uchun  $t_{u.v} = 84,2s; h \approx 9km; S \approx 60km; R \approx 26km$  ga ega bo‘lamiz. (1.34) formulani etiborga olsak, o‘qning Oydagi uchish uzoqligi Yerdagiga nisbatan kichik ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

### Mustaqil yechish uchun masalalar

1.Suzuvchi tank daryo bo‘ylab suvning oqim tezligiga nisbatan ikki baravar katta tezlikda suzadi. Uning qirg’oqqa nisbatan harakati minimal bo‘lishi uchun u o‘z yo‘nalishini qanday burchak ostida ushlab turishi kerak?

2.Sun’iy yo‘ldosh doimo Yer sirtining bir nuqtasi ustida harakatlanishi uchun uni qanday uchirish kerak (bunday orbitaga geostatsionar orbita deyiladi)?

3.Signal raketasining zapali  $t$  vaqt davomida yonib turadi. Raketa traektoriyaning eng yuqori nuqtasida chaqnashini ta’minalash uchun, uning harakatlanishining boshlang’ich tezligi va otilish burchagi qanday bog’langan?

4. GLONASS sun’iy yo‘ldoshining aylanma orbitasining balandligi 19100 km. U qanday tezlikda harakat qilmoqda?

## II BOB.DINAMIKA

### 2.1 Moddiy nuqta dinamikasi

Zarrachalarning harakatlanishini o‘rganishda, ularning qanday harakatlanishini aniqlash ko‘pincha yetarli emas, odatda nima sababdan harakatlanishini bilish talab etiladi. Bu savolga mexanikaning yana bir bo‘limi dinamika javob beradi. Dinamikada jismlarning kuch tasiri ostidagi harakatining qonuniyatlari o‘rganiladi. Dinamika taniqli ingliz fizigi I.Nyuton(1643-1727yy.) qonunlariga asoslanadi. U tabiatshunoslik asosi bo‘lgan bu qonunlarni yaratishda o‘zidan oldin ijod qilgan olimlar G. Galiley, N. Kopernik va I. Kepler tomonidan yaratilgan bilimlarga asoslanadi.

Agar jismga hech qanday tasir bo‘lmasa yoki ular bir-birini kompensasiya qilsalar, demak ular erkin harakat qiladi. *Boshqa erkin harakatlanadigan jism bilan bog’langan sanoq tizimida uning harakati to‘g’ri chiziqli va tekis bo‘ladi, yani doimiy tezlikda sodir bo‘ladi. Bunga inertsiya bo‘yicha harakat deyiladi.* Inertsiya qonunini G. Galiley va (mustaqil ravishda) fransuz faylasufi, fizik va matematik R. Dekart (1596-1650 yy.) yaratishgan, ammo u ko‘proq Nyutonning birinchi qonuni sifatida tanilgan: *jismlargacha boshqa jismlar tasir etmaguncha u doimiy tezligini saqlaydi, yoki tinch turadi.* Bu qonun faqat *inertsial sanoq tizimida*(IST)bajariladi, bu qonun bajarilmaydigan sanoq tizimlariga *noinertsial sanoq tizimlari*(NIST) deyiladi.

Ko‘pgina nazariy va amaliy masalalarda *inertsial sanoq tizim*(IST)lari *Yer sirti bilan bog’langan va laboratoriya sanoq tizimi* deyiladi. Madomiki Yer o‘z o‘qi atrofida aylanar ekan, to‘g’risini aytganda, bu noto‘g’ri albatta.

---

**SAVOL.** Xatolik juda kattami?

**JAVOB.** Yer sirtidagi normal tezlanish: $a_n = \frac{\vartheta^2}{R}$ , bu yerda  $R = R_{Yer} \cdot \cos\varphi$ ,  $R_{Yer}$  — ekvatordagи Yer radiusi;  $\varphi$  — joyning geografik kengligi;  $\vartheta = \frac{2\pi R}{T}$ ,  $T = 24$  — Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri. Bundan ko‘rinadiki, hatto ekvatorda ham  $a_n = \frac{4\pi^2 R_{Yer}}{T} = 0,033 m/s^2$ , bu erkin tushish tezlanishiga nisbatan  $\sim 3\%$  ni tashkil etadi. Yer Quyosh atrofida ham aylanadi, biroq uning orbital harakkati normal tezlanishi yanada kichik. Shuning uchun ko‘pgina masalalarda inertsial sanoq tizim(IST)larini Yer sirti bilan bog’lash bemalol mumkin, mazkur darslikda mexanik harakat, aynan laboratoriya sanoq tizimida qaraladi(agar avvaldan boshqacha kelishib olingan bo‘lmasa).

---

Inertsiya bo‘yicha harakat jismlarning o‘zarotasiri oqibatida buziladi, o‘zarotasir o‘lchovini R.Dekart taklif qilgan va buning uchun “kuch” tushunchasini kiritgan. Aynan *bir xil kuch* tasirida *turli* jismlar *turlicha* tezlanishlar oladi, xuddi uning tasiriga turlicha qarshilik ko‘rsatgandek. Materianing bu xossasiga *inertlik* deyiladi. Jism *inertligining* o‘lchoviga *massa* deyiladi. Uni *turli* kuchlar  $F_1, F_2, F_3 \dots$ tasirida *aynan bir jism, turlicha*  $a_1, a_2, a_3 \dots$ tezlanishlar oladi. Bunday holda quyidagi kelib chiqadi

$$\frac{F_1}{a_1} = \frac{F_2}{a_2} = \frac{F_3}{a_3} = \dots = \text{const.} \quad (2.1)$$

Aynan shu doimiy, jismning *inert massasi* sifatida qabul qilingan. Massa birligi 1kg ning xalqaro etaloni(platina-iridiy qotishmasi) Parij yaqinida joylashgan Sevr shahrida saqlanadi.

Tajribalarining ko‘rsatishicha, (2.1) munosabat  $\mathbf{F}$  kuch *vektorining turli yo‘nalishlarida* ham haqiqiy, yani kuchdan farqli ravishda *massa — skalyar kattalik*. Uning jism hajmi  $V$  bo‘yicha taqsimlanishini xarakterlovchi kattalikka  $\rho$  zichlik deyiladi. Massaning  $V$  hajm bo‘yicha tekis taqsimlanishida

$$\rho = \frac{m}{V}. \quad (2.2)$$

Agar massa notekis taqsimlangan bo‘lsa, (2.2) formula faqatgina *o‘rtacha* zichlik, uning aniq qiymati  $\rho = \frac{dm}{dV}$  bo‘ladi. Masalan, suv uchun  $\rho \sim \frac{1g}{sm^3}$ , Yer markazida  $\rho \sim \frac{10g}{sm^3}$ , Quyosh markazida  $\rho \sim \frac{102g}{sm^3}$ , neytron yulduzlarda esa  $\rho \sim \frac{1015g}{sm^3}$ .

Massa jismga tasir etuvchi kuch bilan bir xil yo‘nalgan jism tezlanishini aniqlaydi. Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan,

$$\mathbf{a} = \frac{\mathbf{F}}{m}, \quad (2.3)$$

yani *jismning kuch tasirida olgan tezlanishi, tasir etuvchi kuchga to‘g’ri proporsional, jism massasiga teskari proporsional.*

Demak tezlanish, uni yuzaga keltirgan kuch orqali aniqlanadi. Shu bilan bir vaqtida kuch, bu jismlar o‘zarotasiri o‘lchovi bo‘lib, erkin jism tezlanishi yoki bog’langan jism deformasiyasi bilan aniqlanadi. (2.3) tenglamadan ko‘rinadiki, tezlanish o‘zini o‘zi orqali aniqlamaydi. (2.3) tenglamaga *moddiy nuqtaning harakat tenglamasi* deyiladi. Tenglamadagi  $\mathbf{F}$  —.bu natijalovchi kuch:

$$\mathbf{F} = \sum_i F_i$$

(2.3) tenglama keltirib chiqarilmagan, yani postulat sifatida aytilgan. Bu qonun Nyutonnig ko‘p sonli kuzatishlari natijalarini mantiqiy tahlil qilish va umumlashtirishi tufayli olingan.

(1.5) tenglikdan foydalanib, (2.3) formulani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin

$$\mathbf{F} = \frac{m d\vartheta}{dt} = \frac{d(m\vartheta)}{dt} = \frac{dp}{dt}, \quad (2.4)$$

bu yerda  $m\vartheta = p$  jism impulsidir. (2.4) formuladan quyidagi ifoda kelib chiqadi

$$F dt = dp \quad (2.4')$$

$F dt$  ko‘paytmaga kuch impulse deyiladi. (2.4) va (2.4') formulalar (2.3) formulaga qaraganda ancha umumiyligi, *massaning vaqtga bog’liqligi* holatlarini ham ko‘rsatadi. (2.4') tenglama terminologiyaga nisbatan malum simmetriyani shakllantiradi: *zarrachaga tasir etuvchi kuch impulsi, zarracha impulsining o‘zgarishiga teng.*

(2.3) tenglama kuch birligi **Nyutonni** aniqlaydi:  $1\text{N} = 1\text{kg} \cdot \frac{1\text{m}}{\text{s}^2}$ , u esa, o‘z navbatida boshqa kattalik birligini keltirib chiqaradi, masalan bosimni:

$$p = \frac{F}{s}, \quad (2.5)$$

bu yerda  $F$ - S yuza sirtiga perpendikulyar yo‘nalgan kuch moduli. Bosim birligi paskal(Pa) fransuz matematigi, fizigi va filosofi B.Paskal(1623—1662yy.)sharafiga qo‘yilgan:  $1\text{Pa} = 1\text{N/m}^2$ .

Jismlar o‘zarotasiri xarakterini(bu o‘zarotasir tabiatiga bog’liq bo‘lмаган holda) Nyutonning uchinchi qonuni ifodalaydi: *jismarning o‘zarotas kuchlari modullari bo‘yicha teng va ular uchun umumuiy bo‘lgan to‘g’ri chiziq bo‘ylab qarama-qarshi yo‘nalgan.*

Nyuton qonunlari texnikaning jadal rivojlanishiga asos yaratdi va unga keng qamrovli tasir ko‘rsatmoqda. X. Gyuygens barcha tabiat hodisalari oxir-oqibat mexanikaga olib keladi deb takidlagan edi. Bu nuqtai nazar “mexanizm” yoki “mexanik determinizm” deb nomlangan falsafiy yo‘nalishga asos bo‘ldi. Vaqt unga jiddiy tuzatishlar kiritdi, ammo hali ham ko‘philik amaliy, shu jumladan harbiy ishlardagi masalalarni hal qilishga imkon beradigan Nyuton qonunlarining qiymati pasaymadi.

## 2.2. Elastiklik kuchlari

Kuch tasirida jism nafaqat tezlanish oladi, balki deformatsiyalanadi ham. Agar kuch tasirini to‘xtatgandan so‘ng, jism asl shakli va hajmiga qaytsa, bunday deformatsiya elastik deformatsiya deyiladi. Elastik deformatsiya atomlar orasidagi


elektrostatik o‘zaro tasir tufayli yuzaga keladi. Buni prujinaning ishlashiga o‘xshatish mumkin: atomlarni bir-biridan uzoqlashtirishga harakat qilinsa, ular tortishadi, bir-biriga yaqinlashtirilganda esa, ular itarishadi. Shu sababli tashqi kuch butun qattiq jismga tasir qiladi, masalan, sim arqonga (2.1-rasm) osilgan yuklar. Elastik deformatsiyadan tashqari

plastik deformatsiya ham yuzaga kelishi mumkin. Agar kuch tasirini to‘xtatgandan so‘ng, jism asl shakli va hajmiga qaytmasa, bunday deformatsiyaga plastik deformatsiya deyiladi. Bu keltirilgan tariflarda *ideal* plastik va *ideal* elastik deformatsiya ko‘zda tutiladi.

Elastik sterjen  $x$  uzunligining kuch tasiridagi  $\Delta x = x - x_0$  cho‘zilishiga absolyut cho‘zilish deyiladi.

**SAVOL.** Nima sababdan o‘zgarmas kuch tasiri ostidagi jismning uzayishi to‘xtaydi?

**JAVOB.** Teng tasir etuvchi kuch nolga teng bo‘ladi: chunki jismda unga tasir etayotgan  **$F$**  tashqi kuchga moduli bo‘yicha teng va yo‘nalishi antiparallel bo‘lgan  **$F_{el}$** -elastiklik kuchi yuzaga keladi.



2.1-rasm

Bu kuch bilan jismning cho‘zilishi orasidagi bog’lanishni ingliz fizigi R. Guk (1685-1703 yy) har tomonlama aniqlagan. U boshqa yo‘nalishdagi fanlardan ajratilgan fizika bilan professional shug’ullangan birinchi olim hisoblanadi. R.Guk tomonidan 1660 yilda kashf etilgan *elastiklik qonuni*, fizikaning birinchi miqdoriy qonuni: *elastiklik* kuchi *absolyut cho‘zilishga* to‘g’ri proporsional, yani

$$F_{el} = -k\Delta x. \quad (2.6)$$


Bu yerda “minus” ishora elastiklik kuchi  $x$  o‘qiga antiparallelligi bilan bog’liq. (2.6) formula faqatgina cho‘zilish(siqilish) uchungina emas, balki, deformatsiyaning boshqa turlari uchun ham to‘g’ri: siljish, burilish yoki buralish, bularda *absolyut cho‘zilish* o‘rniga burilish burchagi yoki o‘qdan egilish tushunchalari qatnashadi(laboratoriya amaliyotida avtomobil osmalari prujinalarining *cho‘zilishi* va ressor listlarining o‘qdan egilishi o‘lchanadi).

(2.6) ifodadagi  $k$ -proporsionallik koeffitsentiga *qattiqlik* deyiladi. *Qattiqlik* koeffitsenti muayyan jismni xarakterlaydi. Turli elastic jismlarni loyihalashda yoki tadqiq etishda (2.6) formuladan foydalanish noqulay, shuning uchun jismning tasodifiy o‘lchamlariga bog’liq bo‘lgan xarakteristika emas, balki materialning asosiy parametrlariga bog’liq bo‘lgan xarakteristika zarur bo‘ladi.

Uzunligi  $l$  va ko‘ndalang kesim yuzi  $S$  bo‘lgan bir jinsli sterjenni xayolan xuddi shunday uzunlikdagi, ammo asosining yuzi bir birlikka teng bo‘lgan bo‘laklarga bo‘lamiz(2.2-rasm). Har qaysi asosga sterjen o‘qi bo‘ylab yo‘nalgan  $\sigma = F/S$  kuch tasir qiladi, modomiki har bir silindrchaning  $\Delta l$  *absolyut cho‘zilishi* butun silindrning *absolyut cho‘zilishiga* teng, u holda  $\Delta l \sim \sigma$ . Xuddi shunday bir xil  $l/n$  uzunlikdagi sterjen elementlari, bir xil  $\Delta l/n$  cho‘zilishga ega bo‘ladi, u holda sterjenning umumiy cho‘zilishi  $\Delta l \sim l$  bo‘ladi. Bu formulalar majmuidan quyidagini olamiz

$$\sigma = E\varepsilon, \quad (2.7)$$

bu yerda  $\sigma = \frac{F_{el}}{S}$  – elastik kuchlanish. Bu sterjenning birlik ko‘ndalang kesim yuzasiga qanday elastiklik kuchi tasir etayotganligini ko‘rsatadi;  $\varepsilon = \Delta l/l$  nisbiy cho‘zilish,  $E$  proporsionalik koeffisenti esa, ingliz fizigi, mexanigi va astronomi T. Yung(1773-1829 yy) sharafiga Yung moduli deyiladi. (2.7) formula Guk qonunini ifodalaydi: *elastik kuchlanish nisbiy cho‘zilishga proporsional*. (2.7) formuladan ko‘rinadiki,  $E = \frac{\sigma}{\varepsilon}$ , yani Yung moduli  $\varepsilon = 1$  da qanday *elastik kuchlanish* yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Bu xarakteristika faqatgina jismning materialiga bog’liq ( $E$  ning qiymatlari malumotnomalardagi jadvallarda beriladi).



**2.2-rasm**

$\sigma(\varepsilon)$  bog'lanish, shu jumladan elastiklik chegarasidan chiqishga, *uzilish diagrammasi* deyiladi. U faqatgina elastik deformatsiyani emas, balki turli materiallarning plastik deformatsiyasini ham, hatto kuchlanishgacha xarakterlaydi, bunday sharoitda material oqadi va undan keyin uziladi, bu texnologik jarayonlarda amalga oshiriladigan ayrim ishlar va qurollarning yakson etish tasiri uchun muhimdir.

**Tarixga nazar.** Qurollar tarixi insoniyat tarixi bilan birligida ribojlanib brogan. Odamning muskul kuchi imkoniyatlari, yakkakurash usullarini qo'llagan holda yovvoyi hayvonni yoki odamni yiqitishi hatto o'ldirishi mumkin. Biroq, odam oraliq masofa bir necha metrdan ortgach uni nazorat qilaolmaydi, charchaydi shuning uchun jismoniy kuchayishini texnik vositalar bilan almashtirib, dushmanidan ustun kelish, undan uzoqlashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda qadimgi odamning miyasiga tosh, tayoq va o'q uchini o'tkir qilish fikri kelgan: ko'ndalang kesim yuzi qancha kichik bo'lsa,  $\sigma$  shuncha katta bo'ladi(bir xil kuchda) va materialning uzilish ehtimolligi shuncha yuqori bo'ladi. Shu sababdan sanchiladigan, kesadigan, yaralaydigan qurollar hozirgi kunda ham qo'llaniladi.

Materiallarga mexanik va issiqlik bilan ishlov berish, shuningdek, kuchning tasir vaqt davomiyligi, ularning xususiyatlarini o'zgartiradi. Agar, masalan, elastik po'latni qizdirsak, u egiluvchan bo'ladi, va aksinchal - suyuq azot bilan sovutilgan egiluvchan qo'rgoshin mo'rt bo'ladi. Agar elastik material tanasi uzoq vaqt davomida deformatsiyalangan holatda saqlansa, undan yukni olib tashlanganidan keyin u o'z shaklini to'liq tiklamaydi.

Ushbu hodisa materialning *moddiy charchoqligi* deb ataladi.

Agar elastik qarshilik bo'lmasa, har qanday jism sirt bo'ylab harakatlanish imkoniyatiga ega bo'mas edi. Hech qanday mashina ishlamasdi: uning qismlarining

bir-birining sirtidagi har qanday harakati, ularning shakli va o‘lchamining o‘zgarishiga olib kelar edi.

Texnikaning elastik elementlari bu-ressorlar, shinalar, avtomobilarning prujinalari, minalarning portlatgichlari, otish qurollari zatvorlari, tashiladigan narsalarning elastik osmalari va boshqalar. Shu bilan birga, bolg’alash, shtamplash va prokat plastik deformatsiyaga asoslanadi, tokarlik ishlov berishi, burg’ulash va frezalash mustahkamlik chegarasini yengib o‘tish (qurol stvolida u katta bo‘lishi kerak) va boshqalar.

### 2.3 Ishqalanish kuchlari

Agar turli xil jismlarning atomlari orasidagi masofa atom kattaligi tartibida bo‘lsa ( $\sim 10^{-10}$  m), u holda elektrostatik tortishish jismlarning o‘zaro tegishuvchi sirtlari yuzasi bo‘ylab harakatiga qarshi yonal‘adi (yelimning tasirini ham xuddi shu orqali tushuntiriladi).

Qarama-qarshi tasir "dog'lar" hosil qiluvchi sirtdagi mikrocho‘qqilalar va mikro chuqurliklar tufayli kuchayadi. Bir jismni boshqa jism sirtida siljitilganda, bu jism tomonidan tasir qiluvchi  $F$  kuchga teng bo‘lgan uni muvozanatlovchi  $F_{\text{tinch}}$  kuch paydo bo‘ladi, bu kuchga *tinchlikdagi ishqalanish kuchi* deb ataladi. Jismlarning nisbiy harakati hali paydo bo‘lmagandagi uning maksimal qiymatiga tinchlikdagi ishqalanishning chegaraviy kuchi ( $F_{\max}$ ) deyiladi. Bu jismlarning materiallariga, ularning sirtlari holatiga va tasirlashuv joylarida o‘zaro "tishlashish"lar soni va chuqurligi bilan aniqlanadigan normal bosim  $N$  kuchiga bog’liq. Fransuz fiziklari G. Amonton (1663-1727) va (undan ancha keyin) Sh. Kulon (1736-1806) quyidagi bog’lanishni topdi.

$$F_{\max} = kN, \quad (2.8)$$

bu yerda *k-tinchlikdagi ishqalanish koeffisenti*.  $F < F_{\max}$ da sirtlar bir-biri ustida sirpanmaydi, bu piyodalar, avtomobillar va boshqalarning harakatlanishi assosi hisoblanadi.  $F_{\max}$  ni oshirish uchun avtomobillar shinalari “rasm”li protektorlar bilan taminlanadi, qishda esa zanjirlar qo‘llaniladi, zanjir bilan tanklar gusenisalari, yuguruvchilar hamda alpinistlar botinkalari va boshqalar taminlanadi.

$F > F_{\max}$  da elastik deformatsiya plastik deformatsiyaga aylanadi: notekisliklar silliqlanadi, qisman yo‘q qilinadi (silliqlash va abrazivlash bunga asoslanadi) va jism harakatlana boshlaydi. Bu yerda tasir qilayotgan ishqalanish kuchiga *sirpanish ishqalanish kuchi* deyiladi. Sirpanish ishqalanish kuchi quyidagicha ifodalaniladi.

$$F_s = k_s N, \quad (2.9)$$


bu yerda  $k_s$ -*sirpanish ishqalanissh koeffisenti*, bu nafaqat o‘zarotasirlashuvchi sirtlarning materiali va holatiga, shuningdek, harakat tezligiga ham bog’liq bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan ishqalanishning afzalliklari uning teskari tomoni bilan dialektik jihatdan muvozanatlanadi - ishqalanishb o‘zgurliklari yuzalarining yemirilishiga va ularning qizib ketishiga olib keladi, bu esa harakatlanish energiyasining yo‘qolishiga olib keladi. Sirpanish ishqalanishni kamaytirish uchun ishqalanuvchi juftlarning materiallari tanlanadi va ularning sirtlari ko‘zgudek yaraqlaguncha silliqlanab, ishlov beriladi, masalan, quroq stvoli yoki dvigatel silindrining ichki sirtlari. Xuddi shu maqsadda ishqalanish xarakterini o‘zgartiradigan yopishqoq suyuqlik, moylash materiallari ishlataladi - bunda endi ishqalanish sirtlar orasida emas, balki suyuqlik qatlamlari orasida yuzaga keladi.

Dinamik va energetik yo‘qotishlarning yanada radikal usuli - sirpanish ishqalanishni dumalash ishqalanish bilan almashtirish fikriga minglab yillar oldin nomalum daho tomonidan kelingan. Dumalash - ham teskari tomonga dialektik o‘tishdir. Agar sirpanish ishqalanishda g’adir-budurliklarga qarshi ish qilinadi, dumalashda esa ulardan foydalaniladi: bu tishli g’ildiraklarning tishli reyka ustida dumalashiga o‘xshaydi. Ammo, dumalanish ham qarshilikdan xoli emas. Unga bazi tegishish joylarida sirtlarning siljishi qarshilik qiladi: sirpanish ishqalanish kuch  $F'$ (2.3-rasm) burovchi momentga qarama-qarshi moment hosil qiladi. Bundan tashqari, g’ildirakning tortish kuchi ta’siri ostida tayanchda deformatsiyasi sodir bo‘ladi. G’ildirak harakatsiz bo‘lganda, reaksiya N yuqoriga yo‘nalgan va O aylanish markazidan o‘tadi (2.3-rasm), va dumalayotgan valikda N vektor aylantiruvchi momentga qarama-qarshi moment hosil qiladi. Oddiy bosim kuchi qancha past bo‘lsa, aylanayotgan korpusning radiusi r qanchalik katta bo‘lsa, dumalanish ishqalanish kuchi shunchalik past bo‘ladi:

$$F_d = k_d \frac{N}{r}, \quad (2.10)$$

bu yerda  $k_d$  - dumalanish ishqalanish koeffisent bo‘lib, u tasirlashuvchi materialga va uning sirtining holatiga bog’liq.



2.3 - rasm

---

Faraz qilaylik massasi  $m$  bo'lgan raketa Yerga nisbatan  $\mathbf{v}$ , gazlar esa raketa korpusiga nisbatan  $\mathbf{u}$  tezlikda, yani Yerga nisbatan  $\mathbf{v} - \mathbf{u}$  tezlikda oqadi.  $dt$  vaqtida raketani  $dm$  massali gaz tashlab ketadi, va raketaning Yerga nisbatan tezligi  $d\mathbf{v}$  ga ortadi, biroq tizimning umumiylashtirishida gaz oqimi o'zgarmay qoladi (3.11-rasm):

$$m \mathbf{v} = (m - dm)(\mathbf{v} - d\mathbf{v}) + (\mathbf{v} - \mathbf{u})dm.$$



3.11-rasm.

Ifodadagi  $dmd\mathbf{v}$  hadni ikkinchi tartibli cheksiz kichikligi uchun hisobga olmasak, quyidagiga ega bo'lamiz

$$md\mathbf{v} - udm = 0.$$

Buni  $\mathbf{v}$  vektor yo'nalishiga proyeksiyalasak bu tenglik quyidagi ko'rinishni oladi

$$mdv + udm = 0. \quad (3.32)$$

O'zgaruvchilarini ajratib integrallasak, quyidagini olamiz

$$\int_0^v dv = -u \int_{m_0}^m \frac{dm}{m},$$

bundan

$$v = u \ln \frac{m_0}{m}. \quad (3.33)$$

K.E. Siolkovskiy tomonidan olingan bu formuladan ko‘rinadiki, birinchi kosmik tezlik(taxminan 7,9 km/s)ga erishish uchun raketaning yoqilg‘i bilan birlashtiriladi. Bundan ko‘rinadiki,  $m_0$  massa  $u$  tezlikka bog‘liq bo‘ladi.  $u$  tezlik esa, yoqilg‘i tarkibi, soploning tuzilishi va boshqalar bilan aniqlanadi. Bundan esa, tezlashtiriladigan massani kamaytirish maqsadida ishlatib bo‘lingan qismlarni tashlab yuborish zaruriyati kelib chiqadi.

(3.32) formuladan quyidagi munosabat ham kelib chiqadi

$$m \frac{dv}{dt} = -u \frac{dm}{dt}.$$

Bilamizki, bu tenglikning chap tomoni kuchni ifodalaydi, demak o‘ng tomoni ham kuch o‘lchamligiga ega bo‘ladi. U *reaktiv kuch* deb ataladi:

$$\mathbf{F}_r = u \frac{dm}{dt}.$$

$\frac{dm}{dt}$  ko‘paytma *yoqilg‘i sarfining sekunddagи massasi* deb ataladi. Agar, tizimga reaktiv kuchdan tashqari tashqi  $\mathbf{F}$  kuch ham tasir qilsa, masalan, havoning qarshilik kuchi, u holda

$$\mathbf{F}_r = \mathbf{F} - u \frac{dm}{dt}. \quad (3.34)$$

Bu *Mesherskiy tenglamasi* bo‘lib, o‘zgaruvchan massali jismning harakatini ifodalaydi va raketa texnikasida keng qo‘llaniladi.

### Tarixga nazar

---

Birinchi reaktiv samolyot nemislar tomonidan 1939 yilda uchirilgan. Rossiyada ikkinchi jahon urushigacha boshqarilmaydigan reaktiv snaryadlar qiruvchi samolyotlarga o‘rnatilgan. 1941 yilda avtomobil shassisiga o‘rnatilgan ko‘p marta zaryadlanadigan qurilma qurollanishga qabul qilindi, uni “gvardeyskiy minomyot”(Katyusha) deb atashgan. Uning birinchi marta jangavor qo‘llanilishi 1941 yil 14 iyulda amalga oshirilgan. Bunga o‘xshash zalp bilan o‘t ochuvchi tizimlar hozirgi vaqtida ham takomillashtirilmoqda (“Grad”, “Uragan”, “Smerch” va boshqalar).

---

Reaktiv dvigatellar gaz hosil bo‘lishi usuli bilan farqlanadilar. Samolyot va raketalarining poroxli reaktiv dvigatellari (PRD), xuddi o‘qotar qurodek, yoqilg‘isi yonuvchan, va oksidlovchi qismlardan tarkib topadi.

Suyuqlikli reaktiv dvigatel (SRD) g‘oyasi 1920 yillardayoq Rossiyalik muxandis F.A. Tsander(1887-1933 yillar) tomonidan aytilgan va uning o‘zi tomonidan 1930 yillarda benzin va kislorodda amalga oshirilgan.

---

Zamonaviy suyuqlikli reaktiv dvigatel(SRD)lar yoqilg‘isi kerosin yoki spirtdan tashkil topadi va oksidlovchi – tarkibida kislorod bo‘lgan modda alohida beriladi. Aynan PRD va SRDlar kosmik uchishlar haqidagi orzularni real loyihalarga aylantirdi.

Havo-reakтив dvigatellar(HRD)da oksidlovchi sifatida havo kislorodidan foydalaniladi. To‘g‘ri oqimli HRDda atmosfera havosi dvigatel tezligining bosimi bilan siqiladi, shuning uchun tezlik bo‘lmasa bunday samolyot ucha olmaydi. Turbo-reaktiv dvigatel(TRD) bunday kamchilikdan xoli, uning kompressori havoni so‘radi va siqadi. Tezlik  $\sim 2M$ (bu yerda M - Max soni bo‘lib, jism tezligining havo tezligiga nisbati bilan aniqlanadi)ga yetganda kompressorga ehtiyoj qolmaydi chunki, qarshi tomonidan esayotgan shamolning bosimi yetarli darajada katta bo‘ladi.

Zamonaviy raketa texnikasi-“yer-havo”, “havo- yer”, -“havo-havo”sinfidagi taktik va strategik qurollar asosi hisoblanadi. Yerdan, suv ustidan va suv ostidan uchirish mumkin bo‘lgan qit’alararo ballistik raketalar eng dahshatli qurol hisoblanadi. So‘nggi yillarda, portativ tizimlar: tanklarga qarshi boshqariladigan raketalar(TQBR) va ko‘chma zenit-raketa majmualari (KZRM) ancha keng tarqalmoqda.

Impuls saqlanishi qonunining ZJT da namoyon bo‘lishi va qo‘llanilishi faqatgina raketa texnikasi bilan cheklanib qolmaydi.

### **Amaliyotdan misollar**

---

1.Termoyadro yoqilg‘isini qizdirish uchun odatdagи yadro zaryadi portlashi yordami bilan uning hajmli siqilishi amalga oshiriladi. Portlashning rentgen nurlari qo‘rg‘oshin qobiqni bug‘lantiradi va u radial ravishda tarqalib, markazga intiluvchi reaktiv kuchni hosil qiladi. Adiabatik siqish (bir necha ming marta) termoyadroviy yoqilg‘ining  $\sim 10^7$  K temperaturagacha qizishiga olib keladi, bu sintez reaksiyasining boshlanishi uchun yetarli hisoblanadi.

Xuddi shunday texnologiya boshqariladigan termoyadro reaksiyalar loyihalarida ham qo‘llaniladi. Turli tomonдан o‘nlab quvvatli lazerlarning nurlari

diametri ~ 1 mm bo‘lgan, deyteriy va tritiy aralashmasini o‘z ichiga olgan qobiqda fokuslangan. Bir zumda bug‘lanib ketgan qobiq aralashmaning siqilishiga va qizib ketishiga olib keladi.

2. Quroq snaryadning uchish yo‘nalishiga qarama-qarshi impuls oladi. Bunday orqaga tepish energiyasi snaryad chiqarilgandan keyin ham to‘planadi: stvoldan chiqayotgan porox gazlari snaryadga, stvoldan bir oz masofada ham ta’sir o‘tkazishda davom etadi. Qo‘lda ushlab turiladigan qurollarda zatvorning massasi o‘qning massasidan ancha katta. Shuning uchun, orqaga tepilganda, hali o‘q stvolda bo‘lganida u teskari yo‘nalishda gaz chiqishining oldini olish uchun yetarlicha sekin harakat qiladi.

Tepish energiyasi (~20 J) uzoq davom etgan otishma paytida odamning charchashiga olib keladi. Artilleriyada, odatda, tepiish energiyasi snaryadning stvol og‘zidagi energiyasining ~ 3% ni tashkil qiladi. Bu juda katta energiya, ammo to‘p o‘rnatilgan stanok uni o‘chirishga imkon beradi va hatto zaryad olish uchun uning bir qismidan foydalilaniladi. Qolgan energiya isrof qilinadi, bu esa quroq FIK kamayishiga olib keladi. Masalan, minamyotda barcha tepish energiyasi amortizator yordamida so‘ndiriladi. Artilleriyada orqaga tepish puflash tormozi yordamida kamayadi. Bunda stvoldan oqib chiqadigan gazlar ko‘ndalang bo‘rtmalarga uriladi, va chiqish yo‘nalishini o‘zgartiradi va maxsus kanallar orqali chiqariladi.

Orqaga tepmaydigan qurollarda (bu g‘oya Birinchi Jahon urushi paytida paydo bo‘lgan), orqaga tepishga sabab bo‘lgan porox gazlarining bir qismi snaryadning harakat yo‘nalishiga qarama-qarshi yo‘nalishda olib chiqariladi. Bu oldinga yo‘naltirilgan reaksiya kuchini yaratadi. Bunday qurollarga noqulay orqaga chekinadigan qurilma kerak emas. Xuddi shu tamoyil zamonaviy tankga qarshi granata otish moslamalarida qo‘llaniladi.

---

Energiya va impulsning saqlanish qonunlari doimo bajariladi. Agar ularning “buzilishi” topilgan bo‘lsa, demak, bu hisobga olinmagan hodisalar yoki jismlarni qidirish uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi. Energiya va impulsning saqlanish qonunlari (nazariya) *yordamida* bashorat qilish mumkin. Masalan, Neptun(1846yil) sayyorasi va neytrino zarralari mavjudligini energiya va impulsning saqlanish qonunlari yordamida taxmin qilindi. Boshqa tomondan, agar saqlanish qonunlari har qanday jarayonlarni taqiqlasa, unda ular hech qachon sodir bo‘lmaydi.

### 3.6. Zarb

Saqlanish qonunlari har qanday zorbalar natijasini belgilaydi – pressning ishlov beriladigan qismga, snaryadning tankga, o‘qlarning nishonga va hokazolarga. Gaz molekulalarining sirtga ta’siri bosim hosil qiladi, ularning bir-biriga ta’siri zichlik va temperaturani tenglashtirishga, shuningdek kimyoviy reaksiyalarga, qo‘zg‘alish, ionlanish va boshqalarga olib keladi.

*Zarb deb, jismlarning (zarralarning) qisqa muddatli o‘zaro ta’siriga aytildi, bunda o‘zaro ta’sir kuchlari tashqi kuchlarga qaraganda ancha katta bo‘ladi.*

Demak, to‘qnashgan zarralar sistemasini yopiq deb hisoblash mumkin.

*Agar zarralar o‘zlarining inertsiya markazlarini bog’laydigan chiziq bo‘ylab bir-biriga yaqinlashsa, bunday zarba markaziy zarba deyiladi. Zarbning natijasi uning turiga bog‘liq.*

*To‘qnashgan jismlar zarbdan so‘ng, shakli va ichki holatini saqlab qolgan holda, har tomonga uchib ketsa, bunday zarba elastik to‘qnashuv deyiladi.*

Bunday ta’sir paytida (masalan, billiard sharlari to‘qnashganda) jismlarning nisbiy harakatining kinetik energiyasi, ularning elastik deformatsiyasining potentsial energiyasiga to‘liq aylanadi va so‘ngra jismlarning shaklini tiklash bo‘yicha ish bajaradi.

Faraz qilaylik massasi  $m_1$  bolgan zarracha  $\vartheta_{10}$  tezlikda,  $m_2$  bo‘lgan zarracha esa  $\vartheta_{20}$  tezlik bilan harakatlanmoqda (2.12-rasm, a). Ma’lumki elastik zorb ta’siri paytida mexanik energiya sarf bo‘lmaydi. Shu sababli, bunda mexanik energyaning va impulsning saqlanish qonunlari bajariladi:

$$\begin{aligned} m_1 \vartheta_{10} + m_2 \vartheta_{20} &= m_1 \vartheta_1 + m_2 \vartheta_2, \\ \frac{m_1 \vartheta_{10}^2}{2} + \frac{m_2 \vartheta_{20}^2}{2} &= \frac{m_1 \vartheta_1^2}{2} + \frac{m_2 \vartheta_2^2}{2}, \end{aligned} \quad (3.35)$$

bu erda  $\vartheta_1$ ,  $\vartheta_2$  - zarrachalarning zarbadan keyingi tezligi (2.12-rasm, b). Yuqoridagi tenglamalar tizimini echib, quydagini olamiz

$$\begin{aligned} \vartheta_1 &= \frac{1}{m_1 + m_2} [2m_2 \vartheta_{20} + (m_1 - m_2) \vartheta_{10}], \\ \vartheta_2 &= \frac{1}{m_1 + m_2} [2m_2 \vartheta_{10} + (m_2 - m_1) \vartheta_{20}]. \end{aligned} \quad (3.36)$$

$m_1 = m_2$  bo‘lganda  $\vartheta_1 = \vartheta_{20}$ ,  $\vartheta_2 = \vartheta_{10}$ ni olamiz, ya’ni jismlar tezliklarini almashadilar, masalan, bunday holat elastik sharlarning markaziy to‘qnashuuvidagi zarbasi paytida kuzatiladi (bunday zarba laboratoriya amaliyotida o‘rganiladi). Agar zarracha devorga yoki metall quymasiga - tankning zirxiga urilsa, bunday holda  $m_1 \ll m_2$ ,  $\vartheta_{20} = 0$ . U holda  $\vartheta_2 \approx 0$ ,  $\vartheta_1 = -\vartheta_{10}$ , ya’ni, devor (yoki tank zirxi) deyarli harakatsiz bo‘lib qoladi, zarracha esa, qanday tezlikda urilgan bo‘lsa, xuddi shunday miqdori bir xil kattalikdagi va yo‘nalish qarama-qarshi bo‘lgan tezlikda qaytadi. Bularni hisobga olib, impulsning saqlanish qonunidan quyidagini olamiz

$$m_1 \vartheta_{10} = -m_1 \vartheta_{10} + p_{dev}$$

bundan devor olgan impuls:

$$p_{dev} = 2m_1 \vartheta_{10} \quad (3.37)$$

Keling, endi zarrachalarning “yopishib qolish” holatini ko‘rib chiqaylik (2.12-rasm, v).

*Jismlarning nisbiy harakatining kinetik energiyasi tizimning ichki energiyasiga aylanadigan to‘qnasuv, elastik bo‘lmagan to‘qnasuv deyiladi.*


Albatta, mutlaqo elastik bo‘lmagan to‘qnasuv, shuningdek, mutlaqo elastik to‘qnasuvlar ham mavjud emas: bir turdagি zarbada boshqasining elementlari mavjud bo‘lishi mumkin.

(2.30) formulaga asoslanib, quyidagini olamiz

$$m_1 \vartheta_{10} - m_2 \vartheta_{20} = (m_1 + m_2) \vartheta$$

Bu tenglikni  $\vartheta_{10}$  vektor yo‘nalishi bo‘yicha proektsiyalab va  $\vartheta$  vektorning  $\vartheta_{10}$  vektor bilan bir tomonga yo‘lganligini hisobga olasak, quyidagiga ega bo‘lamiz

$$m_1 \vartheta_{10} - m_2 \vartheta_{20} = (m_1 + m_2) \vartheta, \vartheta = \frac{(m_1 \vartheta_{10} - m_2 \vartheta_{20})}{m_1 + m_2}. \quad (3.38)$$



3.12-rasm.

$\vartheta > 0$  yoki  $\vartheta < 0$  ekanligiga qarab  $\vartheta$  vektor yo‘nalishi haqida taxmin qilish noto‘g‘ri.

Ko‘p hollarda, ayniqsa harbiy ishlarda, jismlarning nisbiy harakati energiyasining ichki energiyaga aylanadi qismi muhim.  $v_{20} = 0$  (bu, odatda, to‘g‘ri bo‘ladi) ekanligini hisobga olib, (3.38) formuladan tizimning to‘qnashuvdan keying tezligi va energiyasi uchun quyidagilarni olishimiz mumkin:

$$\vartheta = \frac{m_1 \vartheta_{10}}{m_1 + m_2}; E = \frac{m_1 \vartheta_{10}^2}{2(m_1 + m_2)}. \quad (3.39)$$

Bulardan qidirilayotgan energiya

$$\Delta E = E_0 - E = \frac{m_1 \vartheta_{10}^2}{2(m_1 + m_2)} = \frac{E_0}{1 + m_1/m_2}. \quad (3.40)$$

Ko‘rib turganingizdek,  $\Delta E$  qancha katta bo‘lsa, snaryadning boshlang‘ich energiyasi  $E_0$  shunchalik yuqori bo‘ladi va uning massasi  $m_1$ , nishonning massasi  $m_2$  bilan taqqoslaganda ancha kichik bo‘ladi  $m_2 \gg m_1$  bo‘lganda  $\Delta E \approx E$  bo‘ladi, ya’ni snaryadning energiyasi nishonni to‘liq deformatsiyashga sarflanadi. Nishonga o‘q yoki zinxni teshuvchi snaryad urilganida aynan shu sodir bo‘ladi (laboratoriya amaliyotida o‘q uzun osmalarga osilgan nishonga tifilib qoladi; elastik bo‘lmagan to‘qnashuv qonunlaridan foydalanib, o‘q tekkandan keyingi nishonning og‘ishi bo‘yicha o‘qning tezligini aniqlashingiz mumkin).

Agar  $m_2$  massa kichik bo‘lsa, bunday holda nishonning deformatsiyasi ham kichik bo‘ladi.  $m_2 \ll m_1$  chegarasida  $\Delta E = 0$ . Bu shuni anglatadiki, nishon snaryad tomonidan “qasmrab olinadi” va u bilan birgalikda uchadi. Bunday holda, nishonni yakson qilish ehtimoli uning materialiga va tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi. Nishonga ta’sir qiluvchi kuchning moduli:  $F = \Delta p_2 / \Delta t$ , bu erda  $\Delta p_2 = m_2 \vartheta$  nishon impulsi o‘zgarishining moduli. Agar bu kuch nishonda uning mustahkamlik chegarasidan

kattaroq kuchlanish hosil qilsa, bunday holda nishon kichik bo‘lsa ham yakson qilinadi, masalan, harakatlanayotgan avtomobilning old oynasiga urilgan hasharot bilan xuddi shunday hodisa sodir bo‘ladi.

(2.40) formula barcha turdag'i hodisalarning, kosmik va mahalliy masshtablardagi energiyaviy natijasini ifodalaydi.

### **Amaliyotdan misollar**

Asteroidning Yerga elastik bo‘lmagan urilishida, Xirosimaga tushgan yadro bombasining portlashi natijasida ajralgan energiyadan katta energiya chiqarishi mumkin va global miqyosdagi oqibatlarga olib keladi. Bolg‘alash, shtamplash, poydevor qozig‘ini qoqish yoki yo‘l-transport hodisasi paytida sezilarli darajada kamroq, ammo texnologik jihatdan muhim energiya ajralib chiqadi. Harbiy harakatlarda, bunday “hodisalar” ba’zan qasddan amalga oshirilgan: ikkinchi Jahon urushi paytida sovet uchuvchilari va yapon kamikadzelari halokatga uchragan samolyotlarini dushman kolonnsasi ustiga yo‘naltirishgan. Harbiy texnika tuzilmalarining mustahkamligi qurollarning yakson etuvchi ta’siriga chidamliligin, ag’darilishlar, to‘qnashuvlar va hokazolarda xavfsizlikni belgilaydi.

Qadim zamonlardan buyon nishonga tegadigan elastik bo‘lmagan zarbalar qurol yordamida, tosh, qo‘rg‘oshin va quyma temirlarni uloqtirish orqali amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda kinetik qurol-yarog‘lar, o‘qlar, kalibrangan zirxni teshuvchi snaryadlar, elektromagnit qurollarning snaryadlari. XVI asrda portlovchi snaryadlar ishlatila boshladi.

Porox bilan to‘ldirilgan ichi kovak cho‘yan yadrolar(olv olish uchun trubkasi bilan), hozirgi davrda minalar, kassetali bombalar, granatalar, torpedalar va yadro qurollari shaklini oldi.

O‘qning teshib o‘tish ta’siri uning kalibriga, massasiga, shakli va tuzilishiga shuningdek, teshib o‘tiladigan muhit materialiga bog‘liq. Tez oqim ta‘sirida, u ba’zan kutilmagan xususiyatlarni namoyish etadi, masalan, suyuqlik o‘zini qattiq va mo‘rt shisha kabi tutadi, zarbalarda parchalanadi. Shu bilan birga shisha o‘qning qobig‘ini deyarli butunlay “yechib olishga” qodir, ayniqsa uchli o‘q, uchib ketgan qismida faqat kichik massani qoldirish. To‘mtoq pistolet o‘qlari past tezlikda uchayotganida bunday bo‘lmaydi.

Yengil zirx qoplangan samolyotni urib tushirish uchun energiyasi 1000 J ga teng bo‘lgan o‘q kerak, odamning mag‘lubiyati uchun 80 J energiyали o‘q yetarli bo‘ladi.

Merganlar miltig'i o'qining shikastlovchi ta'siri tanasining bosh qismida biroz seziluvchi yon tomonga qiyshaytirib qo'yilgan po'lat yadrosi bilan kuchayadi. Chunki u tananing yumshoq to'qimalariga kirganda yon tomonga burilib uni titib tashlaydi va unga katta shikast yetkazadi. O'qning teshib o'tish ta'siri 2,5 sm qalinlikdagi birbiridan 2,5 sm masofada joylashgan qarag'ay taxtalari yordamida aniqlanadi. Masalan, snayper miltig'inining o'qi 100 metr masofadan 36 ta taxtaga qadar kirib boradi. Snaryadlar nishonni zarb bilan, portlash gazlari va snaryad parchalari bilan shikastlaydi.

### 3.7. Relyativistik dinamika

Kinematikaga maxsus nisbiylik nazariyasini (MNN) tomonidan kiritilgan tuzatishlar u bilan bog'liq bo'lган dinasmikaga ta'sir qilmasligi mumkin emas. Maksimal chegaraviy tezlikning (yorug'lik tezligi) mavjudligi mexanikaning asosiy qonuni - Nyutonning ikkinchi qonuniga shubha tug'diradi. Unga ko'ra, agar kuch jismga yetarlicha uzoq vaqt ta'sir qilsa, unga har qanday tezlikka erishishiga hech narsa to'sqinlik qilmaydi. Bunday hodisa sodir bo'lmashigi uchun, tezlik ortishi bilan tezlanish kamayishi kerak, ammo doimiy kuch bilan, bu faqat jism massasi oshgan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

Bu qanday sodir bo'lishini elastik bo'lmanan to'qnashish misolida baholash mumkin. A.Eynshteyn tomonidan olingan formula quyidagi ko'rinishga ega

$$m = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}} . \quad (3.41)$$

Bu erda  $m_0$  - zarrachaning xususiy sanoq tizimidagi massasi bo'lib, unga zarrachaning *tinchlikdagi massasi* deyiladi. Ko'rib turganingizdek, jismning tezligi ortishi bilan uning massasi ham orta boradi, ya'ni massa nisbiy tushuncha, u sanoq tizimiga bog'liq. Bundan - relyativistik impuls va dinamikaning relyativistik qonuni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$P = m\vartheta = \frac{m_0\vartheta}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}, F = ma = \frac{d(m\vartheta)}{dt} = \frac{d}{dt} \left( \frac{m_0\vartheta}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}} \right). \quad (3.42)$$

(3.42) formuladan ko'rindiki, turli inertsial sanoq tizimlari(IST)da kuch turli modul va yo'naliishga ega bo'ladi.

$\frac{\vartheta^2}{c^2} \ll 1$  bo'lganda, (3.41) ifodani quyidagi qatorga yoyish mumkin:

$$m = m_0 \left(1 - \frac{v^2}{c^2}\right)^{-\frac{1}{2}} \approx m_0 \left(1 + \frac{1}{2} \frac{v^2}{c^2}\right),$$

bu yerda kamayuvchi qatorning faqat dastlabki ikki hadi taqdim etilgan. Bundan

$$mc^2 = m_0 c^2 + \frac{m v^2}{2},$$

ya'ni

$$mc^2 = m_0 c^2 + E_k. \quad (3.43)$$

Bunda oxirgi had kinetik energiya bo'lgani uchun, qolgan ikkitasi uning o'lchamiga ega. Bundan tashqari, agar ma'lum bir ISTdagi jism tinch holatda bo'lsa ( $E_k = 0$ ), u holda jism *tinchlikdagi energiyaga* ega:

$$E_0 = m_0 c^2. \quad (3.44)$$

Bu MNN ning eng mashhur xulosasi bo'lib, u asrlar davomida energiya jismlarning nisbiy holati bilan (potentsial energiya) yoki harakati bilan bog'liq (kinetik) bo'ladi degan ishonchli fikrni rad etdi. Temiryo'l poyezdi g'oyatda katta kinetik energiyaga egadek ko'rindi, ammo uning tinchlikdagi energiyasi bilan nisbati  $\sim (c/v)^2 = 10^{14}$  ga teng. Bundan ko'rindiki,  $m_0 c^2$  g'oyatda katta miqdor: jism energiyasining asosiy qismi jism tezligi bilan emas uning massasi bilan aniqlanadi. Demak, *massa – faqatgina jismning inertlik va gravitatsion o'zarota'sirlari o'lchovi emas, balki uning energiyasi o'lchovi ham.*

A.Eynshteyn tomonidan olingan natijaga ishonish nihoyatda qiyin: hech kim hech qachon bunday (3.44) formula talab qiladigan darajadagi ulkan energiyani sezmag'an. To'g'ri, ko'pincha biz energiyaning o'zi bilan shug'ullanmaymiz, uning o'zgarishi bilan shug'ullanamiz. Ba'zi tog'li qishloqlarda futbol o'ynashingiz, temirni toblashingiz, trotil zaryadini portlatishingiz mumkin va bularning barchasi dengiz sathidagi kabi sodir bo'ladi - potentsial energiya farqining hech qanday ta'siri sezilmaydi. Ko'rrib turibdiki, shunga o'xshash narsa (3.44) formulada aks etadi va  $m_0 c^2$  yashirin energiyani qidirishga undaydi. Ko'p yillar o'tgach ma'lum bo'ldiki, u materianing faqat chuqr strukturaviy darajasida o'zini namoyon qilishi va shuning uchun yuqoriroq sathlarda energiya namoyon bo'lishiga ta'sir qilmasligi aniq bo'ldi. Yadro quollarida amalga oshiriladigan katta halokatlarga mazkur energiya olib keladi. Bu to'g'risida "Atom yadrosi fizikasi"da bat afsil bilib olasiz.

## XULOSALAR

Konservativ kuchlar ta'sirida bajarilgan ishlar mexanik energiyaga aylanadi va aksincha. Bunday holda, yopiq tizimda to'liq mexanik energiya (kinetik va potentsial

energiyalar yig‘indisi) doimiy bo‘lib qoladi. Bunda jismlar yopiq tizimining impulsi ham doimiy bo‘lib qoladi. Agar ochiq tizimda biron bir yo‘nalishda paydo bo‘ladigan natijaviy kuch nolga teng bo‘lsa, tizim impulsining ushbu yo‘nalishdagi tashkil etuvchisi ham o‘zgarmas bo‘ladi.

Elastik to‘qnashuvda ikkala saqlanish qonuni ham bajariladi, elastik bo‘lmagan to‘qnashuvda esa faqat impulsning saqlanish qonuni bajariladi.

Jism massasi - nisbiy tushunchadir (sanoq tizimiga bog‘liq). U nafaqat harakatsizlik va tortishish o‘zarota’sirining o‘lchovidir, shuningdek, jismning energiyasi o‘lchovi hamdir.

Energiya va impulsning saqlanish qonunlari makro va mikroolamlarda qat’iy bajariladi va ko‘plab texnik yechimlar, shu jumladan quroq va harbiy texnika bilan bog‘liq masalalar yechimlari asosida yotadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. 1919 yilda ingliz astrofizigi A. Eddington Quyosh tutilishi paytida Quyosh gardishi yaqinidagi yulduzlarni kuzatdi. Bunday kuzatuv sharoiti yulduzlarning ko‘rinadigan holatiga ta’sir qiladimi?

2. Nima uchun raketalar ikki va uch bosqichli qilinadi?

3. Massasi 3 tonna bo‘lgan avtomobil 60 km/soat tezlikka ega. Uning kuzoviga bog‘langan sanoq tizimiga nisbatan kinetikasi energiyasi nimaga teng?

4. Vertolyotda 10 kg yukni 100 m balandlikka ko‘tarish orqali 1 kJ dan ortiq ish bajarish mumkinmi? 1 kJ dan kamchi?

5. Avtomobil tezligini ikki baravar oshirganda, boshlang‘ich tezlik 20 km/soat va 50 km/soat bo‘lgan holatlarda, yonilg‘i sarfi bir xil bo‘ladimi? Xuddi shu boshlang‘ich tezliklarda, uning tezligini 20 km/soatga oshirsakchi?

6. Nega yuqoriga qarab harakatlanayotganda mashina haydovchisi tezlikni uzatmalar qutisidan pastki tezlikga o‘tkazadi va pastga tushayotganda uni o‘chiradi?

7. Yadro reaktorlaridagi neytronlarni sekinlashtirish uchun, neytronlar bilan massasi neytronning massasidan 12 baravar katta bo‘lgan uglerod yadrolarining elastik to‘qnashishidan foydalaniladi. Har bir to‘qnashuvda neytron enargiyasining qanday qismini yo‘qoladi?

8. Uzun yengil ipga osilgan yog‘och sharga, karabindan gorizontal yo‘nalishda o‘q uzildi. Qaysi holatda osmaning vertikaldan og‘ishi kattaroq bo‘ladi: ip materiali po‘lat yoki rezina bo‘lganda?

9. O‘zgarmas tezlikda harakatlanadigan mashina marshrutning uzunligi teng bo‘lgan uch sohasidan o‘tadi: qavariq, gorizontal va botiq. Bu sohalardan qaysi birida

yoqilg‘i sarfi maksimal? Qaysi birida minimal?

10. Arava novda ishqalanmasdan dumalayapti, uning shakli yo‘lning do‘nglik va chuqurliklarini simulyatsiya qiladi. Konservativ kuchning ishi potentsial energiyaning sarfiga teng ekanligidan foydalanib, aravaga turli nuqtalarda ta’sir qiluvchi kuchlarning yo‘nalishlarini aniqlang. Barqaror va beqaror muvozanat holatlarni aniqlang.

### Masala yechish namunalari

3.1. Haydovchi avtomashinalar o‘rtasida to‘qnashuvning oldini olish uchun oraliq masofasini saqlashi shart. Ommalashgan tavsiyalar: avtomobillar orasidagi metrlardagi masofa  $l$ ,  $9 \text{ km}/\text{soat}$  dagi tezlikning yarmiga teng bo‘lishi kerak: agar tezlik, masalan,  $60 \text{ km} / \text{soat}$  bo‘lsa, u holda masofa  $30 \text{ m}$  va shunga o‘xshashlar. Shu tavsiya to‘g‘rimi?

**Yechish.** Masofa ikki komponent bilan belgilanadi. Ulardan kichigi tezlikka mutanosibdir, chunki u haydovchi reaktsiyasining kechikish vaqtida avtomobilning bosib o‘tgan masofasi bilan belgilanadi. Kattaroq komponent - bu avtomobilning tormozlanish masofasi  $l$ . U avtomobilning kinetik energiyasi bilan sirpanish ishqalanish kuchi  $F_{s.i.}$  ning bajargan ishi tengligidan foydalanib aniqlanadi. Tormozlangan g‘ildiraklar gorizontal yo‘lda  $\frac{m\vartheta^2}{2} = F_{s.i.}l$  ish bajaradi, bu yerda  $F_{s.i.} = k_s mg$ . Bu formuladan kelib chiqadiki,  $l(x)$  bog‘liqlik kvadratik bo‘ladi. Agar tezlik ortsa, masalan, 2 baravar, bunda xuddi shu ishqalanish kuchida tormozlanish yo‘li 4 baravar ortadi. Tezlik oshishi bilan ishqalanish koeffitsienti  $k_s$  kamayishini hisobga olsak, masofa yanada oshadi.

**Javob.** Tavsiya noto‘g‘ri.

3.2. Parashyutchining osoyishta ob-havo sharoitida tushishining barqaror tezligi  $5 \text{ m/s}$  ga teng. Uning bo‘yi  $180 \text{ sm}$ , vazni  $80 \text{ kg}$ . Yon tomondan esayotgan shamolning tezligi  $4 \text{ m/s}$  bo‘lsa, Parashyutchining yerga zarbi ta’sirining o‘rtacha kuchi qancha?

**Berilgan:**  $h = 180 \text{ sm} = 1,8 \text{ m}$ ;  $m = 80 \text{ kg}$ ;  $\vartheta_1 = 5 \text{ m/s}$ ;  $\vartheta_2 = 4 \text{ m/s}$ .

$F_{o.i.}$  -?

**Yechish.** Zarb ta’siri parashyutchining yerga urinishidan boshlanadi odamning inertsiyasi markaz yerga tushguncha davom etadi. Uning bu holati  $l_c = 0,5h$  munosabat bilan baholanadi. Zarbning o‘rtacha ta’sir kuchining moduli Nyutonning ikkinchi qonuni bilan aniqlanadi.

$$F_{o'} = \frac{\Delta m\vartheta}{\Delta t},$$

bu yerda  $\Delta m\vartheta = m\vartheta$ - parashyutchining yerga urinishi paytidagi impulsi,  $\Delta t$  – parashyutchining yerga urinishidan to‘liq tushguncha o‘tgan o‘rtacha vaqt. Bu vaqt davomida tezlik chiziqli ravishda kamayadi deb faraz qilsak, quyidagini olamiz

$$\Delta t = \frac{2l_c}{\vartheta}.$$

Shunday qilib,

$$F_{o'} = \frac{m\vartheta^2}{2l_c} = \frac{m\vartheta^2}{h} = \frac{m(\vartheta_1^2 + \vartheta_2^2)}{h},$$

bu yerda  $\vartheta^2 = \vartheta_1^2 + \vartheta_2^2$  ekanligi hisobga olingan.

Son qiymatlarini o‘rniga qo‘yib hisoblasak,  $F_{o'} \approx 1,810^3 N$ .

**Izoh.** So‘nggi formulani parashyutchining kinetik energiyasi va kuchning ishi formulalaridan ham keltirib chiqarish mumkin.

3.3. Orqaga qaytish moslamasi bilan bирgalikdagi massasi 2400 kg quroldan, massasi 25 kg bo‘lgan snaryad, 800 m/s boshlang‘ich tezlik bilan otildi. Porox gazlarning massasi 3,8 kg ni tashkil etadi. Agar qaytish uzunligi 1 m masofa bilan cheklangan bo‘lsa, orqaga qaytarish moslamasidagi o‘rtacha hisoblanilgan tormoz kuchini aniqlaylik.

**Berilgan:**  $M = 2400 \text{ kg}$ ;  $m_c = 25 \text{ kg}$ ;  $\vartheta_c = 800 \text{ m/s}$ ;  $m_{pg} = 3,8 \text{ kg}$ ;  $l = 1 \text{ m}$ .

$F_t$  - ?

**Yechish.** Orqaga qaytarish moslamasining ishi uning kinetik energiyasining kamayishi hisobiga bajarilishi kerak:

$$F_t \cdot l = \frac{M\vartheta_{oqm}^2}{2},$$

bundan

$$F_t = \frac{M\vartheta_{oqm}^2}{2l}.$$

Qurolning orqaga qaytarish moslamasining tezligini impulsning saqlanish qonuni asosida toppish mumkin

$$M \cdot \vartheta_{oqm} = m_c \cdot \vartheta_c + m_{pg} \cdot \vartheta_{pg},$$

bu yerda  $\vartheta_{pg}$  – porox gazlarining tezligi, bu birinchi yaqinlashishda zatvordagi noldan stvol tumshug‘idagi o‘q tezligigacha chiziqli ravishda ortadi ( $\vartheta_{pg} = \frac{0+\vartheta_c}{2} = \frac{\vartheta_c}{2}$ ).

Shuning uchun impulsning saqlanish qonuni tenglamasi quyidagi shaklni oladi

$$M \cdot \vartheta_{oqm} = m_c \cdot \vartheta_c + m_{pg} \cdot \frac{\vartheta_c}{2} = (m_c + 0,5m_{pg}) \cdot \vartheta_c.$$

Bundan

$$\vartheta_{oqm} = (m_c + 0,5m_{pg}) \cdot \frac{\vartheta_c}{M},$$

$$F_t = \frac{(m_c + 0,5m_{pg})^2 \vartheta_c^2}{2Ml}.$$

Masala shartida berilgan kattaliklarning son qiymatlarini formuladagi joyiga qo‘yib hisoblasak, quyidagini olamiz

$$F_t = \frac{(25 \text{ kg} + 0,5 \cdot 3,8 \text{ kg})^2 \left(800 \frac{\text{m}}{\text{s}}\right)^2}{2 \cdot 2400 \text{ kg} \cdot 1\text{m}} \approx 96000N \approx 96kN.$$

3.4. Razvedka sun’iy yo‘ldoshini aylana orbitaga uchirayotgan raketadan ajralayotgan gazning chiqish tezligi 2500 m/s ga teng. Uning boshlang‘ich massasi oxirgi massasidan necha marta kattaroq bo‘lishi kerak?

**Berilgan:**  $u = 2500 \text{ m/s}$ .

$$\frac{m_0}{m} - ?$$

**Yechish.** Toppish talab etilayotgan massa nisbati Tsiolkovskiy formulasi bilan aniqlanadi:

$$\frac{\vartheta}{u} = \ln \frac{m_0}{m},$$

bu yerda  $\vartheta = 7900 \text{ m/s}$ , ya’ni raketa aylana orbitaga chiqishi uchun unga birinchi kosmik tezlik berish kerak.

Masala shartida berilgan raketadan ajralayotgan gazning chiqish tezligi kattaligi va birinchi kosmik tezlikning son qiymatlarini formuladagi joyiga qo‘yib hisoblasak, quyidagini olamiz

$$\frac{m_0}{m} \approx 24.$$

3.5. Yuk uning ta’sirida 0,5 sm pastga tushgan prujinali platformada yotadi. Xuddi shu yuk 10 sm balandlikdan tushganda prujinali platform qancha pastga tushadi?

**Berilgan:**  $l = 0,5\text{sm}$ ;  $h = 10 \text{ sm}$ .

$$l_1 - ?$$

**Yechish.** Birinchi holda, yukning og‘irligi elastik kuch bilan muvozanatlashadi

$$mg = kl,$$

bu yerda  $m$ - jismning massasi,  $k$ -prujinaning qattiqligi. Yuk tushganda, uning tortishish potentsial energiyasi prujinaning elastik deformatsiya energiyasiga aylanadi:

$$mg(h + l_1) = \frac{kl^2}{2}.$$

Birinchi ifodani bunga qo‘ysak, quyidagi tenglamani olamiz  

$$l_1^2 - 2ll_1 - 2lh = 0.$$

Bu kvadrat tenglamani yechib, quyidagini topamiz

$$l_1 = -l \pm \sqrt{l^2 + 2lh}.$$

O‘ng tomondagi ikkinchi had mutlaq qiymatda birinchisidan kattaroq bo‘lgani uchun,” - “ belgisi o‘ziniing fizik ma’nosini yo‘qotadi.

Masala shartida berilgan kattaliklar son qiymatlarini qo‘yib hisoblasak,

$$l_1 = 3,7 \text{ sm}$$

**Eslatma.** Masalani yechish jarayonining borishi shuni ko‘rsatadiki, masalalarning aksariyati oxirigacha umumiyl shaklda echilishi kerak, keyin birinchi qarashda qisqartirilishi zarur bo‘lgan noma’lum kattaliklar qisqartiriladi (bu holda  $m$  va  $k$ ).

### **Mustaqil echim uchun masalalar**

3.6. Agar o‘qining massasi 7,9 g bo‘lgan avtomatning otish tezligi 715 m/s bo‘lganda, minutiga 600 o‘q otish tezligiga ega bo‘lsa, u yelkaga qanday o‘rtacha kuch bilan tepadi?

3.7. Agar shikastlash uchun 79 J energiya yetarli bo‘lsa, og‘irligi 7,9 g bo‘lgan, 6,9 m/s tezlikda uchib kelayotgan o‘q odamni shikastlashidan qanday qalinlikdagi daraxt himoya qilaoladi. Daraxtning o‘q harakatiga o‘rtacha qarshilik kuchi 10 kN.

3.8. Og‘irligi 3,5 tonna bo‘lgan vertolyot havoda muallaq turibdi. Rotor havo oqimini qanday tezlikda pastga qarab otadi, uning diametrini, 18 m bo‘lgan rotor diametriga teng deb hisoblang? Havoning zichligini  $1,2 \text{ kg/m}^3$  ga teng deb qabul qiling.

3.9. Massasi 40 kg bo‘lgan, 600 m/s tezlik bilan gorizontal uchayotgan snaryad ikki qismga bo‘linadi. Massasi 30 kg bo‘lgan parcha gorizontal yo‘nalishda 900 m/s tezlikda uchadi. Ikkinci parchaning yo‘nalishini va teliginining modulini aniqlang.

3.10. Gorizontal yo‘lda o‘z inertsiyasi bilan harakatlanayotgan avtomobil (muftasi ajratilgan holda) to‘xtaguncha 20 m yo‘lni bosib o‘tdi. Bunda unga, og‘irligining 10% ga teng bo‘lgan qarshilik kuchi ta’sir qildi. Avtomobilning boshlang‘ich tezligi qancha bo‘lgan?


## 4-BOB. AYLANMA HARAKAT

### 4.1. Aylanma harakat kinematikasi


Avvalgi boblarda ko‘rib chiqilgan mexanika qonunlarining barchasi harakati davomida zarralari bir xil traektoriyalarni chizadigan, bir xil tezlik va bir xil yo‘l bosadigan, jismlarning harakatiga, ilgarilanma harakatga taalluqlidir. Jismlar harakatining yana shunday bir xil shakli ham mavjudki, unda trayektoriyalarining shakli bir xil - aylanalar - turli uzunliklarga (radiuslarga) ega. Bunday harakat aylanma harakat deb nomlanadi. Ilgarilanma harakatdan farqli o‘laroq, u fazoda cheklangan, bu ba’zi hollarda foydali bo‘ladi: metr o‘lchovlarida energiya olish mumkin, buning uchun ilgarilanma harakatda bir necha kilometr yo‘l bosish talab etiladi. Aylanma harakat, xususan, zamonaviy zaryadlangan zarrachalar tezlatgichlarini yaratishga imkon berdi va unda ajoyib natijalar olingan. Bu to‘g‘risida “Atom yadrosi fizikasi”da batafsil bilib olasiz. Aylanish tabiatda keng tarqalgan: Yer Quyosh atrofida va o‘z o‘qi atrofida aylanadi, Oy - Yer atrofida aylanadi va boshqalar. Texnikada g‘ildiraklar va dvigatellar maxoviklari, kemalar va vertolyotlarning vallari va parmalari, otish paytida - snaryadlar va o‘qlar aylanadi.

*Erkin qattiq jism uchun aylanish markazi uning inertsiya markazidir, erkin bo‘lmagan jismda esa uning ichida yoki tashqarisida joylashgan qo‘zg‘lmas nuqta aylanish markazi bo‘ladi. Agar jismda ikkita qo‘zg‘almas nuqta bo‘lsa, u holda ular orqali o‘tadigan o‘qga nisbatan aylanish sodir bo‘ladi. Bu ikki nuqtalar orqali o‘tadigan o‘qga aylanish o‘qi deyiladi.* Bunday holda jismning barcha zarralarining aylanish markazlari bu o‘qda yotadi.

Agar ilgarilanma harakati paytida jism zarralarining ko‘chishi bir xil bo‘lsa, aylanma harakat paytida u boshqacha bo‘ladi. Buni 4.1.-rasmdan ham ko‘rish mumkin.



4.1.-rasm.



4.2.-rasm.

buni jismning O aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan kesimida ko‘rish mumkin:

1-zarrachaning  $dl_1$  ko‘chishi 2-zarrachaning  $dl_2$  ko‘chishidan katta. Shu bilan birga, ularning *radius - vektorlarining* burilish burchagi  $d\varphi$  va shuningdek burchak tezligi  $\omega$  ham bir xil bo‘ladi:

$$\omega = \frac{d\varphi}{dt}. \quad (4.1)$$

O o‘q atrofida aylanish ikki yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin, ularning aylanish markazi cheksiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, burchakli tezlik nafaqat moduli (4.1) bilan, balki o‘ng parma qoidasi bilan belgilanadigan yo‘nalish bilan ham tavsiflanadi: agar parmaning o‘ng dastasini jismning aylanishi yo‘nalishi bo‘yicha aylantirilsa, u holda parma o‘qining ko‘chishi  $\omega$  vektorining yo‘nalishini ko‘rsatadi(4.2-rasm).

Jismning burilish burchagini (1.8) ga o‘xshash (4.1) ifodani integrallash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$\int_{\varphi_0}^{\varphi} d\varphi = \int_0^t \omega dt, \quad (4.2)$$

bu yerda  $\varphi_0$ - t = 0 bo‘lgandagi boshlang‘ich burchak. Masalan,  $\omega = const$  bo‘lganda (4.2) formuladan quyidagini olamiz

$$\varphi = \varphi_0 + \omega t. \quad (4.3)$$

*Jismning to‘liq bir marta ( $2\pi$  ga) aylanishi uchun ketgan vaqt  $T$  davr deyiladi, vaqt birligi ichida aylanish soni  $v$  aylanish chastotasi deyiladi.* Ularning orasidagi bog’liqlik aniq:

$$v = \frac{1}{T} = \frac{\omega}{2\pi}. \quad (4.4)$$

Ushbu ifodalardan  $\omega$  burchak tezligi nima uchun *doiraviy*, yoki *tsiklik* chastota deyilishi tushunarli.

O‘zgaruvchan burchak tezligi burchak tezlanishi  $\varepsilon$  bilan tavsiflanadi. U chiziqli tezlashishga o‘xshash tarzda aniqlanadi:


$$\varepsilon = \frac{d\omega}{dt}. \quad (4.5)$$

$\omega$  qattiq jismning barcha zarralari uchun bir xil, u holda  $\varepsilon$  ham qattiq jismning barcha zarralari uchun bir xil.  $\omega = const$  bo‘lsa,  $\varepsilon = 0$  bo‘ladi, ammo bu hech qanday tezlanish yo‘q degani emas: aylanish sodir bo‘lishining o‘zi normal tezlanish mavjudligini anglatadi.

(4.5) formuladan ko‘rinib turibdiki,  $d\omega > 0$  bolsa,  $\varepsilon$  vektori  $\omega$  vektori bilan bir xil yo‘nalgan (3.3-rasm, a) va  $d\omega < 0$  bo‘lsa,  $\varepsilon$  vektori  $\omega$  vektoriga yo‘nalgan bo‘ladi.

(4.1) formulaga  $dr = rd\varphi$  tenglikni qo‘yib(4.1-rasmga qarang), chiziqli va burchak tezliklar o‘rtasidagi bizga malum bo‘lgan munosabatni olamiz:

$$\vartheta = \omega r. \quad (4.6)$$



**4.3-rasm**

### Amaliyotdan misollar

1. (4.6) formulaga muvofiq, dastgoh shpindelining burchak tezligi kesuvchi, parmalovchi va silliqlovchi qismlarining detal yuzasi bilan aloqa qilish nuqtalarida ishlov berishning chiziqli tezligini va burilish burchagi tezligini aniqlaydi. G‘ildiraklarning burchak tezligi avtomobilning chiziqli tezligini aniqlaydi.

2. Qadimgi davrlardan boshlab (4.6) formuladan palaqmon va katapult bilan snaryadlarni otish uchun intuitiv ravishda foydalanib kelingan. 1908 yilda rus muhandisi B.N.Bezobrazov mazkur printsipni vertikal g‘ildiraklari aylanayotganda tangensial ravishda otiladigan snaryadlarga ega markazdan qochirma to‘p shaklida ishlab chiqdi. 1920-1930 yillarda amerikaliklar va yaponlar xuddi shu g‘oyani pulemyotlarda qo‘llashga harakat qilishdi, ammo buning uchun kuchli dvigatellar va katta radiusli otiladigan gardish talab qilingan. Bunday qurol katta hajmli bo‘lib, otishning aniqligi va o‘qlarning g‘ujligini ta’minlamaydi.

(3.6) formulada  $\vartheta, \omega$  va  $r$  kattaliklarning modullari ko‘rinadi. *Tegishli vektorlarni bog‘laydigan matematik operatsiyaga vektor ko‘paytma deyiladi.*

$$\vartheta = [\omega, r], \vartheta = \omega \cdot r \cdot \sin\varphi, \quad (4.7)$$

bu yerda ikkinchi ifoda  $\vartheta$  vektorining modulini aniqlaydi,  $\varphi$  esa  $\omega$  va  $r$  vektorlari orasidagi burchak. (4.7) formuladan ko‘rinadiki, (4.6) formula faqatgina  $\varphi = \frac{\pi}{2}$  bo‘lgan xususiy holnigina aks ettiradi.

(3.7) munosabatlarga muvofiq  $\vartheta$  vektorining yo‘nalishi o‘ng parma qoidasi bilan belgilanadi: *parmaning dastasi  $\omega$  burchak tezligi vektoridan  $r$  radius-vektorga tomon aylantirilsa, uning o‘qining harakati  $\vartheta$  vektor yo‘nalishini ko‘rsatadi.*

Shunday qilib, 4.3-rasmda 1 zarrachaning radius-vektori  $\mathbf{z}$  aylanish o‘qi bilan  $\frac{\pi}{2}$  burchakni tashkil etadi - zarracha  $\mathbf{z}$  aylanish o‘qida joylashgan O markazi atrofida aylanadi. Uning chiziqli tezligining  $\vartheta$  vektori traektoriyaga(rasmida uzuq-uzuq chiziq bilan ko‘rsatilgan) urinma ravishda yo‘naladi,  $\omega$  burchak tezligi vektorining yo‘nalishi esa yuqorida tavsiflangan o‘ng parma qoidasi bilan aniqlanadi.

Burchak va chiziqli tezlanishlarni miqdoriy jihatdan bog‘lash uchun (1.13) formulaning o‘ng tomonidagi birinchi hadga (4.6) ifodani qo‘yamiz. U holda, tezlanish modullarini bog‘lovchi  $\mathbf{a}_\tau = \varepsilon \cdot \mathbf{r}$  ifoda hosil bo‘ladi. Mazkur vektorlar orasidagi bog‘liqlik vektor ko‘paytma bilan ham aniqlanishi mumkinligiga ishonish qiyin emas:

$$\mathbf{a}_\tau = [\varepsilon, \mathbf{r}]. \quad (4.8)$$

## 4.2. Jismning aylanma harakati dinamikasi

Tinch turgan maxovikga ta’sir chizig‘i uning aylanish o‘qi orqali o‘tadigan kuch qo‘yamiz, bunday holda maxovik tinch holatda qoladi. Endi biz kuchni mazkur yo‘nalishga nisbatan burchak ostida yo‘naltiramiz (maxovik tekisligida), bunday holda u aylanadi. Farq nimada ekanligini tushunish uchun chizma tekisligida joylashgan O aylanish markaziga qattiq bog‘langan 1-zarrachani ko‘rib chiqamiz. Bu zarrachaga chizma tekisligida  $\mathbf{F}$  kuch ta’sir qiladi (4.1-rasmga qarang).

Kuchning zarracha radius-vektori  $\mathbf{r}$  bo‘ylab yo‘nalgan  $\mathbf{F}_r$  tashkil etuvchisi uning markaz bilan bog‘lanishining faqat  $f$  elastik reaktsiyasini keltirib chiqaradi, zarrachaning  $dl_1$  ko‘chishi kuchning  $\mathbf{F}_\tau$  tashkil etuvchisi ta’sirida sodir bo‘ladi.

Qo‘yilgan kuch quyidagi ishni bajaradi

$$\partial A = \mathbf{F} dl = F(\cos\beta) dl = F(\sin\alpha) dl = r F(\sin\alpha) d\varphi, \quad (4.9)$$

bu erda  $dl = rd\varphi$  tenglik hisobga olingan. (4.9) formulani (3.2) formulasi bilan taqqoslaysizlik. Agar  $d\varphi$  siljish analogi bo‘lsa, u holda  $r F \sin\alpha$  kuch moduli analogi

vazifasini bajaradi(aniqrog‘i kuchning siljish bo‘yicha proektsiyasi). U *aylanish markaziga nisbatan kuch momentining moduli deb ataladi* (kuch momenti tushunchasi Arximed tomonidan kiritilgan):

$$M = rF \sin\alpha = F \cdot d \quad (4.10)$$

bu erda  $d = r \cdot \sin\alpha$  (4.1-rasmga qarang) - *aylanish markazidan kuch ta’sir chizig‘igacha bo‘lgan eng qisqa masofa. Bunga kuch yelkasi deyiladi.* (4.10) formula  $\mathbf{r}$  va  $\mathbf{F}$  vektorlarning vektor ko‘paytmasining modulini ifodalaydi.

$$\mathbf{M} = [\mathbf{r}, \mathbf{F}], \quad (4.11)$$

bu vektor  $\mathbf{M}$  vektor yo‘nalishini belgilaydi. Agar zarrachaga bir necha kuch momentlari ta’sir etsa, bunda ularning qo‘shilib ketishi namoyon bo‘ladi.

$$\mathbf{M} = [\mathbf{r}, \mathbf{F}] = [\mathbf{r}, (\mathbf{F}_1 + \mathbf{F}_2 + \dots)] = \mathbf{M}_1 + \mathbf{M}_2 + \dots \quad (4.12)$$

*Natijaviy moment har bir kuchlar momentlarining vektor yig‘indisiga teng.*

### **Amaliyotdan misollar**

---

1.Jilvir g‘ildiragini aylantiruvchi kuch momenti va keskichni charxlash natijasida paydo bo‘lgan tormozlovchi kuch momenti qarama-qarshi yo‘nalgan.

2. Avtomobil g‘ildiragi va valikga bosilgan tamg‘alarning g‘ildirak yer sirtiga tegishidagi reaktsiyasi g‘ildirakning aylanishiga to‘sqinlik qiladigan moment hosil qiladi (2.3-rasmga qarang).

---

4.3, b-rasmda  $\mathbf{z}$  o‘q atrofida aylanayotgan jism ko‘rsatilgan. Uning 4.1-rasmdan farqli tomoni shundaki,  $\mathbf{F}$  kuchi bu erda 1 zarrachaning aylanish tekisligida yotmaydi va shuning uchun aylanish o‘qiga parallel ravishda qo‘shimcha  $F_z$  tashkil etuvchisini hosil qiladi. Bu tashkil etuvchi burchakli tezlanishga ta’sir qilmaydi, ammo aylanish o‘qini eguvchi kuch momentini hosil qiladi. Masalan, avtomobil g‘ildiragi uchun bu turli g‘adir-budurliklarda yoki yarimo‘qning qiyshayishida yuzaga keladi.  $\mathbf{F}_r$  komponenti, 3.1-rasmdan ham ko‘rinadiki aylanishga ta’sir qilmaydi, chunki uning elkasi nolga teng - u faqat aylanish o‘qida yuklama hosil qiladi. Avtomobil g‘ildiragi o‘qiga ta’sir qiladi, bu kuch avtomobil og‘irligining tarkibiy qismidir. Shunday qilib, burchak tezlanish faqat aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan va aylanish momenti

**M** ni hosil qiluvchi  $F_\tau$  komponentasi bilan aniqlanadi, *bu aylanish o‘qiga nisbatan kuch momenti deyiladi*. Uning yo‘nalishi (4.11) formula bo‘yicha aniqlanadi. Avtomobil g’ildiragiga bunday moment uni o‘qga mahkamlaydigan tirkaklar va murvatlar tomonida ta’sir qiladi.

Kuch momenti zarrachaga kinetik energiya berish ishini bajaradi  $E_k = \frac{m\vartheta^2}{2}$ .

(3.6) formuladan foydalanib, uni  $E_k = \frac{(mr^2)\omega^2}{2}$  shakliga o‘tkazamiz va unu ilgarilanma harakat uchun  $E_k$  formulasi bilan taqqoslaymiz.  $\omega$  chiziqli  $\vartheta$  tezlikning analogi bo‘lgani uchun massaning analogi sifatida bu erda  $mr^2$  ni olamiz, *bu zarrachaning aylanish markaziga nisbatan inertsiya momenti deb nom oldi*:

$$J = mr^2. \quad (4.13)$$

(4.13) formuladan, inertsiya momenti  $kg \cdot m^2$  bilan o‘lchanishi kelib chiqadi.

Shunday qilib, zarrachaning kinetik energiyasi

$$E_k = \frac{J\omega^2}{2}. \quad (4.14)$$

Bunday energiyani olish uchun ifodasi (4.9), (4.10) va (4.14) formulalardan kelib chiqadigan quyidagi ishni bajarish lozim:

$$\delta A = M d\varphi = dE_k = J \omega d\omega. \quad (4.15)$$

Ushbu ifodalarni birlashtirib, zarrachani cheklangan burchak ostida burash bo‘yicha ishni topish oson. (4.1) ifodani (4.15) formulaga qo‘yib,  $M dt = J d\omega$  ni, ya’ni  $M = J \varepsilon$  ni olamiz. (4.8) va (4.11) formulalarni taqqoslash  $M$  va  $\varepsilon$  bir tomoniga yo‘nalgan vektorlar ekanligini anglatadi. Shuning uchun, vektor shaklida

$$M = J \varepsilon. \quad (4.16)$$

Ushbu ifoda shakl va ma‘no jihatidan (2.3) ifodaga o‘xshashdir, ammo zarradan jismga o‘tishda formulalar o‘rtasida farqlar paydo bo‘ladi. Ilgarilanma harakati davomida jismning barcha zarralari bir xilda harakatlanadi. Shuning uchun uning massasi (2.3) tenglamaga zarrachalar massalarining yig‘indisi sifatida kiradi. Aylanma harakatda massalar emas, balki  $J$  inertsiya momentlar qo‘shilishi kerak (4.13), ammo ular zarrachalarning radius-vektorlari  $r$  ning aylanish markazlariga nisbatan turli xil joylashganligi tufayli. Ikkinchi farq shundaki, ilgarilanma harakati davomida (2.3) tenglama o‘z ichiga kuchlarning vektor yig‘indisini oladi va aylanish bilan - ularning momentlari yig‘indisi  $M_n$  oladi, bu nafaqat modul va yo‘nalishlarga, balki kuchlarning qo‘yilish nuqtalariga ham bog‘liqdir. Aylanayotgan jism uchun dinamika qonunlarini olish uchun, biz uni aylanishda bajarilgan ish natijasida kinetik

olganligidan foydalanamiz. Jismning harakatlanuvchi ixtiyoriy zarralari 1 va 3 ning elementar ishi (4.1-rasmga qarang) quyidagiga teng

$$\delta A = F_1 dl_1 + F_3 dl_3 + f_{13} dl_1 + f_{31} dl_3 \quad (4.17)$$

bu yerda  $F_1, F_3$  — zarrachalarga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar;  $f_{13}, f_{31}$  — ular orasidagi bog'lanish kuchlari;  $dl_1, dl_3$  — zarrachalarning elementar ko'chishlari. (4.9), (4.10) formulalarga asosan (4.17) ifodani quyidagi ko'rinishga keltiramiz

$$\delta A = (\mathbf{M}_1 + \mathbf{M}_3)d\varphi + (\mathbf{M}_{13} + \mathbf{M}_{31})d\varphi, \quad (4.18)$$

bu erda  $d\varphi$  burchagi barcha zarralar uchun bir xil ekanligi hisobga olingan.  $f_{13}$  va  $f_{31}$  bog'lanish kuchlarining aylanish markaziga nisbatan yelkalari kattaligi teng va qarama-qarshi yo'nalishda bir to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan. Shunday qilib, (3.18) tenglikning o'ng tomonidagi ikkinchi hadi har qanday juft zarra uchun nolga teng. U holda butun jism uchun

$$\delta A = d\varphi \sum_i M_i = \omega dt \sum_i M_i, \quad (4.19)$$

bu erda o'ng tomonda tashqi kuchlar momentlari modullari yig'indisi ko'rsatilgan.

Ularning ishi jismning kinetik energiyasini oshirishga sarflanadi, bu kinetik energiya jism zarralarining kinetik energiyalari yig'indisiga teng. (4.13), (4.14) formulalar asosida aylanma harakat qilayotgan jismning kinetik energiyasi uchun quyidagini olamiz

$$E_k = \frac{\omega^2}{2} \sum_i m_i r_i^2 = \frac{J\omega^2}{2}, \quad (4.20)$$

bu yerda

$$J = \sum_i m_i r_i^2 \quad (4.21)$$

*Ushbu summa jismning aylanish o'qiga nisbatan inertsiya momenti deb ataladi.*

(3.20) formuladan quyidagi kelib chiqadi

$$dE_k = J\omega d\omega. \quad (4.22)$$

(4.19) va (4.22) formulalardan quyidagini olamiz

$$\varepsilon = \frac{M}{J}, \quad (4.23)$$


bu erda  $\mathbf{M} = \sum_i \mathbf{M}_i$  va  $\boldsymbol{\varepsilon}$  vektor miqdorlar sifatida belgilanadi, chunki ko'pincha ular bir toonga yo'naladi. (4.23) formula - bu aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunidir: *jismning burchakli tezlashishi tashqi kuchlarning aylanish o'qiga nisbatan momentlari yig'indisiga to'g'ri proportsional va jismning shu o'qga nisbatan inertsiya momentiga teskari proportsionaldir.*

Ushbu qonun Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonunlari natijasida olingan. Jismlar uchun inetsiya momenti harakat paytida o‘zgarmaydi. Shakli bo‘yicha bu Nyutonning ikkinchi qonuning analogidir.

### **Amaliyotdan misollar**

---

$$f(\vartheta)d\vartheta = \frac{dn}{n}. \quad (5.11)$$

U tezligi  $\vartheta$  dan  $\vartheta + \Delta\vartheta$  gacha bo‘lgan molekulalarning soniga teng. Mos holda, butun egri chiziq ostidagi yuza tezligi 0 dan  $\infty$  gacha bo‘lgan molekulalarning ulushini aniqlaydi, shuning uchun u birga tengdir. Har qanday tasodifiy o‘zgaruvchining ehtimollik zichligining unga bog‘liqligi qiymati uning taqsimot funktsiyasi deyiladi.

4.3-rasmda tasvirlangan egri chiziq molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimotining funktsiyasi. Ideal gaz molekulalari uchun uni, fizik hodisalarini tavsiflashga birinchi bo‘lib statistikani kiritgan J.Maksvell nazariy jihatdan olgan. Uning ko‘rinishi

$$f(\vartheta) = 4\pi \left( \frac{m}{2\pi kT} \right)^{3/2} \vartheta^2 e^{-\frac{m\vartheta^2}{2kT}}. \quad (5.12)$$

Aynan shu *Maksvell taqsimoti* va 5.3-rasmda ham shu shakl ko‘rsatilgan. Uning maksimal darajasi  $\vartheta = \vartheta_{ke}$  tezligiga to‘g‘ri keladi.

**Savol.**  $\vartheta_{ke}$  tezligining fizik ma’nosi nima?

**Javob.** Bunday tezlik bilan harakatlanadigan molekulalarning ulushi maksimal bo‘lgani uchun, bu *eng katta ehtimollikli tezlik*.

Uning qiymatini har qanday ekstremum kabi, funktsiyasi (5.12) dan v ga nisbatan hosilani olish va uni nolga tenglashtirish orqali topish mumkin. Natijada, quyidagini olamiz

$$\vartheta_{ke} = \sqrt{\frac{2kT}{m}}. \quad (5.13)$$

Masalan,  $0^\circ\text{C}$  darajadagi vodorod molekulalari uchun  $\vartheta_{ke} \sim 1500$  m/s. Ko‘p hisob-kitoblar uchun o‘rtacha tezlik  $\bar{\vartheta}_o$ , (yoki  $\bar{\vartheta}$ ) ham muhimdir:

$$\vartheta_o = \frac{1}{n} (\vartheta_1 \Delta n_1 + \vartheta_2 \Delta n_2 + \dots + \vartheta_n \Delta n_n) = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \vartheta_i \Delta n_i, \quad (5.14)$$

bu erda  $\vartheta_{o'}$  tezlikdagi  $\Delta n_{o'}$  molekulalar mavjud deb taxmin qilinadi. Taqsimot funktsiyalari ma’nosini hisobga olgan holda, quyidagini topamiz

$$\vartheta_{o'} = \frac{1}{n} \int_0^{\infty} \vartheta d n_{\vartheta} = \int_0^{\infty} \vartheta f(\vartheta) d\vartheta = \sqrt{8kT/(\pi m)}, \quad (5.15)$$

bu erda (5.12) munosabat ishlataligani. Maksvell taqsimoti assimetrik (o‘ng shox tekisroq) bo‘lgani uchun  $\vartheta_{o'} > \vartheta_{ke}$ . Shu tarzda molekulalar majmuasining boshqa har qanday xarakteristikasining o‘rtacha qiymatini topish mumkin, (5.15) ifodadagi integralga,  $\vartheta$  o‘rniga, masalan,  $\vartheta^2$  qiymatini qo‘yiladi. Bunday integralning ildizi *o‘rtacha kvadratik tezligi*  $\vartheta_{kv}$  deb ataladi. U molekulalar *energiyasining o‘rtacha qiymatini* aniqlaydi:

$$\vartheta_{kv} = \sqrt{\int_0^{\infty} \vartheta^2 f(\vartheta) d\vartheta} = \sqrt{3kT/m}. \quad (5.16)$$

Ushbu tezliklarni o‘rnatilishida molekulalar to‘qnashuvlar katta rol o‘ynaydi. To‘qnashuvlarning o‘rtacha chastotasi molekulalarning o‘rtacha tezligi va ularning diametri  $d$  asosida aniqlanishi mumkin:

$$z_{o'} = \sqrt{2}\vartheta_{o'} \pi d^2 n. \quad (5.17)$$

Bu shuningdek, ketma-ket to‘qnashuvlar orasidagi o‘rtacha yo‘lni belgilaydi, bu *o‘rtacha erkin yugurish yo‘li* deb ataladi:

$$\lambda_{o'} = \frac{\vartheta_{o'}}{z_{o'}} = \frac{1}{\sqrt{2}\pi d^2 n}. \quad (5.18)$$

(5.2) formuladan kelib chiqqan holda,  $T = \text{const}$   $n \sim p$  va shuning uchun  $\lambda_{o'} \sim 1/p$ . Masalan, normal sharoitda havoda ( $p_o = 760$  mm.sim.ust. = 101,325 kPa,  $T_o = 273$  K)  $\lambda_{o'} \sim 10^{-7} m$ .

Maksvelli taqsimoti, harakatlari klassik mexanika qonunlariga bo‘ysunadigan o‘zaro ta‘sir qilmaydigan yoki elastik o‘zaro ta‘sirlashuvchi zarrachalar tizimlarida issiqlik muvozanatida o‘rnatiladi: gazlar, ba‘zi suyuqliklar, broun zarralari va boshqalar. To‘qnashuvlar paytida molekulalar tezligini doimiy ravishda o‘zgartirganiga qaramay, Maksvelli taqsimoti statsionar (vaqt bo‘yicha o‘zgarmas) u

dinamik muvozanatni saqlaydi. Agar to‘qnashuv natijasida molekulalarning bir qismi tezlikning  $a$  elementar oralig‘idan  $b$  oralig‘iga o‘tgan bo‘lsa (5.3-rasmga qarang), demak, shu vaqt ichida aynan shuncha qism teskari yo‘nalishda ketadi.

Fizikada odatdagidek, ideallashtirilgan modelni ko‘rib chiqqandan so‘ng, unga o‘zgartirishlar kiritiladi. Atmosfera molekulalari , masalan, Yerning tortishish kuchi maydonida. Bu uning xususiyatlariga ta‘sir qiladimi? Ha, B. Paskal XVII asrdayoq balandlikning oshishi bilan atmosfera bosimi pasayishini aniqlagan.

Vertikal o‘qi h bo‘lgan silindrni xayolan ajratib olaylik. Uning maydoni bilan gorizontal kesmaning  $1 \text{ m}^2$ , pastki 1 va ustki 2 asosga ta’sir etuvchi kuchlari  $p_1$  va  $p_2$  bosimiga teng. Muvozanat holatida  $p_1 = p_2 + nmgdh$ , bu erda o‘ngdagi ikkinchi had silindr ichidagi gazning tortishish kuchi;  $n$  - molekulalarning konsentratsiyasi;  $m$  - bitta molekulaning massasi. Shuning uchun  $dp = p_2 - p_1 = -nmgdh = kTdn$ , bu erda keyingisi  $T = \text{const}$  tenglikni hisobga olgan holda (5.2) formuladan kelib chiqadi. Shunday qilib,  $dn/n = -mgdh/kT$ . Oxirgi balandliklarning farqi 0 dan h gacha

$$\int_{n_0}^n \frac{dn}{n} = -\frac{mg}{kT} \int_0^h dh, \quad (5.19)$$

bu erda  $n_0 - h = 0$  balandlikdagi molekulalarning konsentratsiyasi. Bundan

$$n = n_0 e^{-\frac{mgh}{kT}} = n_0 e^{-\frac{E_n}{kT}}. \quad (5.20)$$

Ko‘rib turganimizdek,  $n$  molekulalarning kontsentratsiyasi ularning potentsial energiyasining ortishi bilan eksponent ravishda kamayadi. Bunday holda, molekulalarning energiya bo‘yicha Maksvelli taqsimoti barcha balandliklarda saqlanib qoladi.

(5.20) formuladagi oxirgi ifoda yanada umumiyligi shaklga ega. Endi u faqat tortishish kuchiga taalluqli emas va olingan natijani, masalan, turli xil potentsial maydonidagi zarrachalarning har xil turlariga, masalan, elektrostatik maydonidagi zaryadlangan zarrachalarga.

(5.20) formula *Boltsman taqsimoti* deb ataladi. Undan uchish apparatlarining aerodinamikasini tahlil qilish uchun foydalilaniladi; ularning qoplamasiga termal ta’sir;

raketalarini uchirishdagi yoqilg‘i sarfi; ichki yonish dvigatellarining tog‘li sharoitlarda ishlashi va boshqalar. Xususiy holda  $E_p = mgh$  formula (5.2) ni hisobga olgan holda (5.20) formulaga quyidagi ko‘rinishni berishi mumkin


$$p = p_0 e^{-\frac{mgh}{kT}}. \quad (5.21)$$

Boltsman taqsimotining bu *ko‘rinishiga barometrik formulalar* deyiladi u atmosfera bosimining balandlikka bog‘liqligini tavsiflaydi. (5.21) munosabatiga asoslanib ishlaydigan asboblargalarga, *al’timetrlar* deyiladi va masalan, aviatsiyada (aslida formulasi ancha murakkab, chunki balandligi 0 — 10 km gacha ko‘tarilganda havo temperaturasi chiziqli ravishda -50°C gacha pasayadi).

MKN ni ko‘rib chiqishni yakunlab, biz real gazlar va bug‘lar yuzlab atmosfera bosimi yoki kondensatsiya temperaturaga yaqin bo‘lgan temperatura uning dastlabki holatiga mos kelmaydi. Molekulalar egallagan hajm molekulalararo fazo hajmiga mutanosib bo‘ladi. Uning hajmi  $V - Nb$  ga teng bo‘ladi, bu erda  $b$  - bitta molekulaning hajmi. Bundan tashqari, molekulalarning o‘zaro tortilishi ham ta’sir qiladi.

Agar devorga urilgan molekula boshqa gaz molekulalari tomonidan tortilsa, u holda tortishish kuchi devordan yo‘naltiriladi va shu sababli bosim  $p$  kamayadi. Natijalovchi F kuchining moduli (5.4-rasm) molekulalar soniga mutanosib, radiusi  $R$  bo‘gan yarim sharda joylashgan molekulalar, ularning ichida o‘zaro tortishish ta’sir qiladi va natijada ularning kontsentratsiyasi:  $F \sim n$ .

Shuning uchun (5.2) formulaga kiritiladigan tuzatish, bitta molekula bilan bog‘liq:  $\Delta p_i \sim n$  va bosim bilan bog‘liq barcha molekulalar tomondan:  $\Delta p = n\Delta p_i \sim n^2 = an^2$ , bu erda  $a$  - mutanosiblik koefitsienti. Ushbu omillarni hisobga olgan holda *holat tenglamasi* quyidagi shaklni oladi



$$p = \frac{NkT}{V-Nb} - an^2. \quad (5.22)$$

Эта формула называется уравнением Ван-дер-Ваальса по имени нидерландского ученого Й. Д. Ван дер Ваальса (1837—1923, Нобелевская премия 1910 г.) получившего его эмпирическим путем.


#### 5.4-rasm

#### 5.4. Ko‘chish jarayonlari

**Savol.** Garajda benzinli idish qopqog‘i ochilgan bo‘lsa, uning hidi idishdan uzoqroqda seziladimi?

**Javob.** Idish og‘zidan benzin molekulalari havoga tarqaladi. Bu shuni anglatadiki, havo — benzinli tizim issiqlik muvozanatiga mos kelmaydi. Xuddi shu narsani radioaktiv bulut yoki zaharli gazlar buluti zarralarining tarqalishi to‘g‘risida ham aytish mumkin. Hozirgi paytda bunday qurol taqiqlangan. Xuddi shu narsa bir jinsli bo‘lmagan suyuqliklarni aralashtirishda ham yuz berishi mumkin va hokazo. Bunday jarayonlar juda keng tarqalgan, har xil hodisalarda muhim rol o‘ynaydi va shuning uchun miqdoriy ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Tahlilni soddalashtirish uchun molekulalarning konsentratsiyasi  $n$  ning bitta x koordinata bo‘ylab,  $T = \text{const}$  da o‘zgarishini ko‘rib chiqamiz (5.5-rasm).



5.5 - rasm

5.2-rasmida qanday bajarilgan bo'lsa shunga o'xshash, parallelepipedni tasavvur qiling x o'qiga perpendikulyar bo'lgan birlik yuzi, va uning x o'qiga parallel qirrasi  $\vartheta_o, \Delta t$  uzunlikka ega, bu erda  $\vartheta_o$  - molekulaning o'rtacha tezligi. Agar  $\vartheta_o, \Delta t < \lambda_o$ , bo'lsa, parallelepiped hajmidagi molekulalar orasida amalda to'qnashuvlar yo'q. U holda  $\Delta t$  vaqtidan keyin molekulalarning 1/6 qismi qirra yuzidan, uning hajmida joylashgan:  $N = \frac{n\vartheta_o \Delta t}{6}$  tasi o'tadi. Qolganlari beshta qirralar yuzi tomonga qarab harakat qilishadi. Shuning uchun har qanday yo'nalishda molekulalarning oqim zichligi:

$$j = \frac{N}{\Delta t} = \frac{1}{6} n \vartheta_o. \quad (5.23)$$

Endi molekulalarining  $j_1$  va  $j_2$  oqimlarini  $x_0$  kesim orqali o'tishini taqqoslaylik (5.5-rasmga qarang).  $x_0$  ning turli tomonlarida  $n_1$  va  $n_2$  kontsentratsiyalar har xil va shuning uchun hosil bo'lgan oqim zichligi quyidagigaa teng

$$j = j_1 - j_2 = \frac{1}{6} (n_1 - n_2) \vartheta_o = -\frac{1}{6} \Delta n \vartheta_o,$$

bu erda  $\Delta n = n_2 - n_1$ .  $\lambda_o$ , juda kichik bo'lgani uchun  $\Delta n$  ni quyidagii shaklda ifodalash mumkin

$$\Delta n = \frac{dn}{dx} \Delta x = \frac{dn}{dx} [x_0 + \lambda_o - (x_0 - \lambda_o)] = \frac{dn}{dx} 2\lambda_o, \quad (5.24)$$

bu erda  $dn/dx - x_0$  nuqtada  $n(x)$  funktsiyaning hosilasi. Bundan

$$j = \frac{\Delta n}{\Delta t} = -D \frac{dn}{dx}, \quad (5.25)$$

bu erda  $D = \frac{\lambda_o \vartheta_o}{3}$ , va minus belgisi  $dn/dx < 0$  uchun  $j > 0$  ekanligini aks ettiradi.

(5.25) tenglikning ikkala tomonini bitta molekulaning  $m$  massasiga ko'paytirsak, quyidagini olamiz

$$j_m = -D \frac{d\rho}{dx}, \quad (5.26)$$

bu yerda  $j_m$  — massaning oqim zichligi;  $\rho$  — gaz zichligi.

*Molekulalarning konsentratsiyasining pasayishi yo‘nalishi bo‘yicha oqimi diffuziya deb ataladi.* (5.26) formula Fik qonuni deyiladi, (5.25) dagi D koeffitsienti esa, (5.26) da *diffuziya koeffitsienti* deyiladi. Agar biz molekulalarning tezlik va o‘rtacha erkin yugurish yo‘llari bo‘yicha taqsimlanishini hisobga olsak, uni ancha aniq hisoblash mumkin.

(5.25) munosabat faqat kichik  $\frac{\Delta n}{\Delta x}$  uchun amal qiladi. Aks holda, (5.24) formuladan faqatgina birinchi hosilada foydalanish mumkin emas. Ushbu eslatma ko‘plab jarayonlar uchun juda muhimdir (keyingi paragrafga qarang).

$\lambda_o' \sim \frac{1}{n}$  va  $\vartheta_{o'} \sim \sqrt{\frac{T}{m}}$  bo‘lgani uchun keyin  $D \sim \frac{\sqrt{\frac{T}{m}}}{n}$ . Bu shuni anglatadiki, issiq, siyrak va engil gazlarda diffuziya tezroq yuz beradi. Normal sharoitlarda, masalan, suv bug‘ining havoda diffuziyalanish koeffitsenti  $D = 0,23 \cdot 10^{-4} m^2/s$ .

Diffuziya nafaqat aralashmalarda (*o‘zaro diffuziya*), balki va bir xil molekulalarning muhitida (*o‘z-o‘ziga diffuziya*) ham yuzaga keladi. Diffuziya mexanizmidan tushunarlikni, uning sababi — molekulalarning xaotik harakatidir.

Diffuziya butun hajmdagi molekulalarning konsentratsiyasini tenglashtirganligi sababli, u issiqlik muvozanatini o‘rnatishga hissa qo‘shadi. Molekulalar konsentratsiyasining tenglashish davri *relaksatsiya vaqtி* deb ataladi. Diffuziya  $D$  koeffitsientining oshishi va bir jinsli bo‘lmagan sohaning L o‘lchamining kamayishi bilan kamayadi. Bu mulohazalar va  $\tau_d$ , D va L kattaliklarning o‘lchamliliklarini hisobga olgan holda quyidagi taxminiy ifodani olamiz

$$\tau_d \sim \frac{L^2}{D}. \quad (5.27)$$

(5.27) formuladan, masalan,  $\text{CO}_2$  tarkibidagi *o‘z-o‘ziga diffuziya* uchun ( $D \approx 10^{-5} m^2/s$ ) o‘lchami  $\sim 0,1$  m bo‘lgan sohasida  $\tau_d \sim 10^3$  s ni olamiz, ya’ni diffuziya – jarayon juda sekin. Uning tezligi  $\vartheta_d = \frac{L}{\tau_d} \approx \frac{D}{L}$ . Masalan, ko‘rib chiqilgan holat uchun  $\vartheta_d \sim 10^{-4} m/s$ , bu molekulalarning issiqlik harakati tezligidan ko‘p marta

kichik. Yengil shamoldagi chivinlar to‘dasining harakati singari, molekulalar har tomonga juda tez va xaotik tarzda harakatlanib, kontsentratsiyaning kamayish yo‘nalishi b‘yicha sekin harakat qilib siljiydi.

Suyuqliklarda diffuziya kattaligi gazlarga qaraganda bir necha daraja sekinroq, qattiq jismlarda esa suyuqliklarga qaraganda bir necha daraja sekinroq , va shunga qaramay uning namoyon bo‘lishi hamma joyda va juda muhimdir. U ichki yonish dvigatelida havo bilan yonilg‘ining, ishchi aralashmaning shakllanishiga mas’uldir (ularning aralashishini tezlashtirish uchun kiritish kollektoridagi temperatura oshiriladi).

Zaryadlangan zarrachalarning diffuziyasi gazlarning elektr xossalariiga ta‘sir qiladi, elektrolitlar, yarim o‘tkazgichlar va boshqalar. Diffuziya tezligi molekulalarning massasiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, undan gazlar aralashmasining tarkibiy qismlarini ajratishda foydalanish mumkin. Bundan, masalan, yadroviy bomba yaratishda, uran izotoplari  $^{238}_{92}U$  va  $^{235}_{92}U$  ni ajratishda amalga oshirildi va ikkinchisini yadroviy zaryad bilan boyitadi (Atom va yadro fizikasiga qarang).

Issiqlik muvozanatini temperaturalar farqlari ham buzishi mumkin.

*Issiqlik uzatish jarayonida yuqori temperaturali sohadan past temperaturali sohaga issiqliknini ko‘chirish issiqlik o‘tkazuvchanligi deb ataladi.*

Issiqlik oqimi zichligi uchun *Fur’ye qonuni* (5.26)ga, ya’ni *Fik qonuniga* juda o‘xhash shaklga ega, chunki issiqlik o‘tkazuvchanligi ham molekulalarning xaotik harakatiga asoslangan. Issiqlik o‘kazuvchanligi asosan ma’no mohiyati bilan molekulalarning issiqlik energiyasining diffuziyasi hisoblanadi:

$$j_Q = \frac{dQ}{dt} = \chi \frac{dT}{dx}, \quad (5.28)$$

bu erda  $\chi$  issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti deb ataladi. Diffuziya singari, issiqlik o‘tkazuvchanligi ham nisbatan sekin jarayon bo‘lib, u moddaning xususiyatlariga bog‘liqdir.

## **Amaliyotdan misollar**

---

Gazlar past issiqlik o‘tkazuvchanligiga ega, shuning uchun u issiqlik izolyatori sifatida, ya’ni issiqlik o‘tkazmovchi sifatida ishlataladi: deraza romlari, g‘ovakli materiallar, kiyim-kechak (materialda qancha ko‘p havo bo‘shtiligi bo‘lsa, shunchalik yaxshi izolyatsiya qiladi ). Zargarlar soxta olmoslarning issiqlik o‘tkazuvchanligi haqiqiyinika qaraganda ancha past ekanligini bilishadi. Metallarning issiqlik o‘tkazuvchanligi gazlarga qaraganda ancha yuqori, shuning uchun samarali issiqlik uzatish moslamalari (isitish batareyalari, sovutish radiatorlari va boshqalar) hisoblanadi.

Jism odatda sirtidan isitiladi, u erdan issiqlik hajmga «oqadi».

Shu nuqtai nazardan, masalan, raketaga qarshi mudofaa tizimidagi lazer qurolining ta’siri lazer impulsining ta’sir vaqtiga  $\tau$  va kema yoki raketa qobig‘i temperaturasining relaksatsiya vaqtiga  $\tau_T$  bog‘liq. Agar  $\tau < \tau_T$  bo‘lsa, u holda  $\tau$  vaqt davomida faqat sirtqi qism eriydi va bug‘langan material orqaga qaytishni hosil qiladi - reaktiv zarb yuzaga keladi. Agar  $\tau > \tau_T$  bo‘lsa, u holda devor qismining yonishi sodir bo‘ladi.

---

**Savol.** Qurol stvolida gazning temperaturasi  $\sim 3000^{\circ}\text{C}$  bo‘lib, po‘latning erish temperaturasi ( $1400^{\circ}\text{C}$ )dan, ancha ko‘p. Nega stvol erimaydi?

**Javob.** Snaryad stvolni  $\tau_T$  vaqtidan ancha qisqa vaqt ichida tark etadi.

Porox gazlarining bosimi atmosfera bosimiga teng bo‘lgandan keyin stvol ichida uning arjimas darajadagi kichik qismi qoladi. Biroq, otishning yuqori tezligida, ayrtim issiqlik impulsleri sezilarli o‘rtacha komponentni hosil qiladi va bunday holda stvol kuchli qizishi mumkin. Bunday hollarda stvol sovuguncha kutish yoki maxsus sovutish tizimlaridan foydalanish kerak.

---

Qishda  $dT/dx$  temperatura pasayishining oshishi tufayli issiqlikni yo‘qotish darajasi yuqori. Binobarin, stvolning temperaturasi va shunga mos ravishda porox gazlarining bosimi kamayadi. Bu o‘qning boshlang‘ich tezligi va qurolning FIK ga ta’sir qiladi. Qishda ham xuddi yozdagidek uzoqqa otadigan qurollarga ega bo‘lish uchun ovchilar qish uchun mo‘ljallangan stvollardan foydalanadilar, ular yozdagidan bir necha santimetr uzunroq bo‘ladi, va snayperlar esa havo temperaturasi bo‘yicha uzoqlikka tuzatishlar kiritadilar (tegishli jadvallar bo‘yicha). Jismlarning harakati tufayli ham issiqlik muvozanati buziladi.

**Savol.** Nima sababdan cho‘kayotgan kema yaqinida turish xavfli?

**Javob.** Kema yaqinidagi suv qatlami ham, kema borti qanday tezlikda harakatlansa, xuddi shunday tezlikda harakatlanadi. Bu qatlam molekulalari qo‘shni qastlam molekulalariga yo‘nalgan harakat impulslarini beradiva hakoza. Shu sababdan kema yonidan o‘tuvchi shamol seziladi.

Yo‘nalgan harakat impulsining diffuziyasiga *qayishqoqlik* deyiladi.

Impuls oqimining zichligi uchun Nyuton qonuni (5.26) formulaga o‘xshash shaklga ega:

$$j_p = \frac{\Delta p}{\Delta t} = -\eta \frac{du}{dx}, \quad (5.29)$$

bu yerda  $\eta$  *dinamik yopishqoqligi* deyiladi.

$\frac{\Delta p}{\Delta t}$  kuch o‘lchamiga ega bo‘lgani uchun (5.29) tenglama muhitning qarshilik kuchi  $F_m$  ni aniqlaydi. Agar jism  $u$  tezlikda,  $d$  kenglikdagi hovuzdagi suyuqlikka botirilsa, u holda suyuqlikning jismdan devorlarga yo‘nalishidagi tezligining chiziqli o‘zgarish-  $\frac{du}{dx} \sim \frac{u}{d}$  bo‘ladi. U holda (5.29) formula quyidagi shaklni oladi

$$F_m = ku, \quad (5.30)$$

bu erda mutanosiblik koeffitsienti  $k$  muhit va jismning xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, tushayotgan jism uchun  $F_m$  ni hisobga olgan holda harakat tenglamasi quyidagicha bo‘ladi

$$F_o + F_A + F_m = ma. \quad (5.31)$$

Bu erda  $F_o = g\rho_j V$  – og‘irlik kuchi moduli ( $\rho_j$ ,  $V$  - jismning zichligi va hajmi);  $F_A = g\rho_m V$  – Arximed kuchining moduli ( $\rho_m$  – muhitning zichligi);  $F_m$  – muhitning qarshilik kuchlari moduli. Tushishning barqaror tezligida ( $a = 0$ ) quyidagini olamiz

$$g(\rho_j - \rho_m)V = ku. \quad (5.32)$$

Masalan, sharcha uchun (Stoks formulasi):  $k = 6\pi\eta r$ , bu erda  $r$  - sharchaning radiusi;  $\eta$  - muhitning dinamik yopishqoqligi. Shunday qilib, ma’lum bo‘lgan  $\rho_j, \rho_m, V$  ga binoan va  $u$  tezlikni o‘lchab  $\eta$  ni aniqlish mumkin. Masalan, yog‘larning dinamik yopishqoqligini aniqlashda shunday qilinadi (bunday ish laboratoriya mashg‘ulotida amalga oshiriladi). Gazlar uchun yopishqoqlik temperatura oshishi bilan ortadi, suyuqliklar uchun temperaturaga bog‘liqlik teskari bo‘ladi, masalan, avtomobil moylari uchun temperaturani  $120^{\circ}\text{C}$  dan  $20^{\circ}\text{C}$  gacha tushirsak, yopishqoqlik  $\sim 10^4$  barobar ko‘payadi. Ba’zi moddalar uchun yopishqoqlik shu darajada ko‘payadiki, suyuqlik qattiq jismga o‘xshaydi (smola, kanifol’, shisha va boshqalar). Moddaning bu holatiga *amorf* deyiladi.

Demak, diffuziya - bu molekulalarning ko‘chishi, issiqlik o‘tkazuvchanligi - ularning energiyasining ko‘chishi, va yopishqoqlik – yo‘naltirilgan impulsning ko‘chishi jarayonlaridir. Ko‘chish jarayonlari holat parametrlarining o‘rtacha qiymatlaridan har qanday og‘ishlarini tarqatadi(sochadi) va shuning uchun *dissipativ* (lotincha *dissipatio* - sochilish) deb nomlanadi. Ular nafaqat tabiat va texnologiyada, balki materianing o‘z-o‘zini tashkil qilish hodisalarida ham katta rol o‘ynaydi.


## 5.5. Girdobli harakat

Fik qonuniga nisbatan qilingan fikr, boshqa ko‘chish qonunlariga nisbatan ham qo‘llaniladi: ularning tenglamalari faqat ko‘chirilgan kattalikdagi kichik farqlar uchun amal qiladi, ammo, bu har doim ham haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Agar farqlar katta bo‘lsa, unda molekulalarning xaotik to‘qnashuvi endi ularni tenglashtirish uchun zarur bo‘lgan massa, issiqlik yoki yo‘naltirilgan tezlik oqimlarini ta’minlay olmaydi. Bunday hollarda «silliq» molekulyar darajada sodir bo‘ladigan jarayonlar «shiddatli» jarayonlarga makroskopik *girdobli harakatga* (*turbulentlikka*) aylanadi. Ular tizim holati parametrlarini ancha tezroq tenglashtiradi va juda noodatiy hodisalarga olib kelishi mumkin.

Kichik u tezliklarda va (5.29), (5.30) formulalar amal qilganda suyuqlik yoki havo oqimi *laminar* (*qatlamli*) bo‘ladi - oqim yo‘nalishlari silliq jismmnинг sirtini aylanib chiqib, uning konturlarini takrorlaydi (5.6-rasm, a). Tezlik oshgani sayin, molekulalarning qatlamdan qatlamga xaotik harakati endi oqim chiziqlari konfiguratsiyasini saqlab tura olmaydi va *girdoblar*, teskari oqimlar va boshqalar paydo bo‘ladi. (5.6-rasm, b).

Bunday «oqim uzilishi» quruq barglarning avtomobil atrofini o‘rab, orqasida qoldiradigan girdoblar ketma-ketligini kuzatish bilan aniq tasvirlanadi. Bunga o‘xhash oqim *turbulent oqim* deb nomlanadi. Oqimning bir turidan boshqasiga o‘tish o‘lchamsiz *Reynolds* sonining kritik qiymati bilan belgilanadi  $Re = \rho Lu / \eta$ , bu yerda  $\rho, \eta$  — muhitning zichligi va dinamik yopishqoqligi; L — muhitga nisbatan harakatlanadigan jismning xarakterli chiziqli kattaligi.  $Re < Re_{kr}$  da oqim *laminar*,  $Re > Re_{kr}$  da oqim *turbulent* va kattalikning miqdori  $Re_{kr} \sim 10^3$  tartibida.

---



**5.6-rasm**

Jismning orqasida paydo bo‘lgan *turbulent* girdoblarda (5.6-rasm, b-rasmga qarang), gaz (suyuqlik) molekulalari bir vaqtning o‘zida jismning «tumshuq» qismidagi laminar oqimga qaraganda kattaroq yo‘lni bosib o’tadi, Bernulli tenglamasi(3.25) ga binoan tezlik ortishi bilan, bosim pasayadi. Binobarin, bosimning pasayishi, ya’ni. harakatga qarshilik kuchining ortishidir.  $Re_{kr}$  kiritik kattalikning miqdorini oshirish bilan girdoblar boshlanadigan tezlik qiymatini oshirish mumkin. Buning uchun jismga suyri shakli beriladi: orqadan g‘oyib bo‘ladigan yumaloq yuzalar (4.6-rasm, v). Bunday shakl(delfin, avtomobil, raketa, suv osti kemasi)larda girdoblar yuqori tezlikda hosil bo‘ladi. Shakldan tashqari, sirtning silliqligi muhim ahamiyatga ega, chunki g‘ovaklar va g‘adir - budurliklar girdoblar shakllanish markazlari bo‘lib xizmat qiladi.

Turbulent oqimda qarshilik kuchining tezlikka bog‘liqligi laminarga qaraganda keskinroq - chiziqli emas, balki kvadratik ko‘rinishda:

$$F_m = k_1 u^2, k_1 = 0,5 c S \rho_m, \quad (5.33)$$

bu erda  $S$  - Midelev kesimi deb ataladigan - oqimga perpendikulyar yo‘nalishda jismning eng katta ko‘ndalang kesimi maydoni;  $c$  – *peshona* qarshilikning o‘lchamsiz koeffitsenti, jismning shakliga bog‘liq(5.1-jadval).

Havoda harakat qilayotgan ko‘pgina jismlar uchun Arximed kuchini e’tiborsiz qoldirish mumkin. U holda (5.33) formuladan  $F_m$  muhitning qarshilik kuchini og‘irlik kuchiga tenglashtirsak, barqaror tezlikning quyidagi ifodasini olamiz

$$u = \sqrt{\frac{2mg}{cS\rho_m}}. \quad (5.34)$$

Jismning shakli	c koeffitsenti
Tomchisimon jism	0,01
Qo‘llari va oyoqlarini tanasiga jipslashtirgan va boshini pastga qaratgan holda	0,15
Parashyutchi yuzini pastga qaratib, qo‘llarini cho‘zgan holda	0,3
Dumaloq parashyut soyaboni	0,9

### Amaliyotdan misollar

---

1.Kuchning gorizontal komponenti (5.33), snaryadning yon sirtiga ta’sir qilib, uning tekis harakatini shu yo‘nalishda sekinlanuvchan harakatga o‘zgartiradi. Kuch tezlikka bog‘liq bo‘lgani uchun tormozlanish tezlanishi doimiy ravishda kamayib boradi. Traektoriyaning yuqoriga ko‘tarilgan qismidagi  $F_m$  kuchining vertikal komponenti tortishish kuchi bilan bir xil yo‘nalishda. Ko‘tarilish paytida u kamayadi, lekin tushish paytida ko‘payadi. Bu ballistika uchun bir qator oqibatlarga olib keladi: traektoriyaning eng yuqori nuqtasidan snaryadning tushishi vaqtin unga ko‘tarilish vaqtidan ko‘p; snaryadning uchish uzoqligi qisqaradi; traektoriyaning tushayotgan shoxi ko‘tarilgandan qisqaroq va tik, eng uzoqqa uchish uchun haqiqiy balandlik burchagi  $45^\circ$  nazariy burchakdan kam va  $\sim 35^\circ$ ; tushish burchagi balandlik burchagidan kattaroq; snaryadning oxirgi tezligi boshlang‘ich tezligidan kichik.

Masalan, zirxli transport vositasi Kalashnikov pulemyotidan  $30^\circ$  balandlikda otilgan 7,62 mm kalibrli o‘q uchun, yopishqoq ishqalanishsiz nazariy jihatdan hisoblangan uchish masofasi va traektoriya balandligi mos ravishda 59 va 9 km ga teng. Shu bilan birga, ushbu qiymatlarning haqiqiy qiymatlari mos ravishda 3,8 va 0,9 km ni tashkil qiladi.

Girdobli harakatlar nafaqat yopishqoq ishqalanish, balki boshqa ko‘chish hodisalari bilan ham bog‘liq.

2.Suv ustiga sulfat kislota qatlami solingan bo‘lsin. Bir xil aralashma hosil bo‘lguncha u suvga tarqalishi kerak edi. Biroq, sulfat kislotaning zichligi suvning zichligidan katta bo‘lgani uchun, tizimning massa markazi mumkin bo‘lganidan yuqori, va minimal energiya printsipiga ko‘ra har qanday tizim minimal energiyali holatga intiladi. Shuning uchun yuqori qatlamning pastki qatlamga eng kichik fluktuatsion o‘pirilishi sulfat kislotaning boshqa hajmlarining ham shu tomonga intilishiga olib keladi. Natijada, turli joylardagi chegara qatlamlari aylanadi, aralashadi va reaksiya ekzotermik bo‘lgani uchun mahalliy qizish, qaynash va xavfli chiqindilar paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun akkumulyator elektrolitini tayyorlash suvga oltingugurt kislotasini kam, kamdan qo‘sish orqali amalga oshiriladi. kislota va hosil bo‘lgan aralashmani bir tekis isitish uchun aralashtirish (oltingugurt kislotasiga suv qo‘sish xavfli, chunki uning kichik hajmi issiqlik sig‘imi kamligi tufayli darhol qaynab ketadi va xavfli chiqindilarni keltirib chiqaradi).

---

Barqaror bo‘limgan issiqlik effektlari bir jinsli tizimlarda ham paydo bo‘ladi. Suyuqlikni yoki gazni qizdirganda issiqlik va sovuq qatlamlarning mexanik aralashuvi natijasida paydo bo‘ladigan issiqlik almashinushi *konvektsiya* deb ataladi.

## XULOSA

Moddaning holatini tahlil qilish uchun mexanikaning dinamik qonuniyatları yaroqsizdir. Moddaning holatini tahlil qilish uchun, MKNga asoslangan statistik usullar kerak. Uning natijalari yetarli darajada tizimlarning haqiqiy holatlari, shu jumladan ko‘chish hodisalari, va moddaning issiqlik energiyasini aniqlaydigan, molekulalarning tartibsiz harakatining o‘rtacha energiyasi o‘lchovi sifatida temperaturaning ma’nosini tushuntiradi.

## Nazorat uchun savollar

1. kg suvda qancha miqdorda modda bor? Uglerodning 12 m.a.b.da? 2 mol azotda?  $10^{20}$  ta kislorod va azot molekulalarida modda miqdori bir xilmi?

2. Nima uchun qishda avtomobil g‘ildiragi shinasiga yozdagiga qaraganda ko‘p havo damlanadi?

3. Nima sababdan tibbiyot bankalari terini banka ichiga tortadi?

4. Nima uchun pech trubalarining tortishi qishda, yozdagiga qaraganda katta?

5.  $10^3$  km balandlikda atmosfera temperaturasi bir necha ming kel’vin. Nima uchun sun’iy yo‘ldoshlar erib ketmaydi?

6. Nega metall yog‘ochdan sovuq tuyuladi? Havo bilan issiqlik muvozanatida bo‘lgan barcha jismlarning temperaturasi bir xilku.


7. Normal sharoitda, ichi bo‘sh shisha idishda nechta havo molekulasi bor? Ulardan nechtasi, 20 m/s dan 100 m/s gacha tezlikka ega bo‘lishini qanday topamiz?

8.(5.20) formulaga asoslanib, javob bering: atmosferaning mavjudligi sayyoraning kattaligiga bog‘liqmi, uning balandligi oshishi bilan tarkibi o‘zgaradimi?

9. Avtomobil harakatlanayotganda qayerda yopishqoq ishqalanish ko‘proq, dvigatelning ishlashi natigasida ajralib chiqqan gazlar tezroq tarqaladi va dvigatell tezroq soviydi, past tekislikdami yoki togda?

## Masala yechish namunalari

5.1. Nemis fizigi O. Shtern gaz molekulalarining tezliklar bo‘yicha Maksvell taqsimlanishini tekshirib ko‘rish uchun tajriba o‘tkazdi (5.7-rasm). Koaksiall tsilindrning o‘qi bo‘ylab joylashgan va kumush bilan qoplangan **C** metal ip qizdirilganda, bug‘langan kumush atomlari gaz hosil qiladi va vakuumda erkin harakatlanadi. Ulardan ba’zilari **A** tsilindrning tirqishidan **D** traektoriya bo‘ylab uchib, **B** tashqi tsilindrga yetib boradilar va tsilindr devorida **d** qatlam hosil qilib joylashadilar. Tsilindrlarni bir xil **ω** burchak tezligi bilan aylantirilsa, **B** silindrdagi atomlarning izidan ularning radial yonalishdagi **θ** tezligini qanday aniqlash mumkin?



**5.7-rasm**

**Yechish.** Kumush atomlarining **A** tsilindrning tirkishidan **B** tashqi tsilindrga yetib kelgunicha o'tgan vaqt davomida tashqi tsilindr biror burchakka burilishga ulguradi. Kumush qatlamining **l** siljishi kumush atomlarining tashqi va ichki tsilindr oraligidagi harakatlanish vaqtini **t** hamda tashqi tsilindar sirtining chiziqli tezligi bilan aniqlanadi:

$$l = ut = \omega R_2 t, t = \frac{R_2 - R_1}{\vartheta},$$

bu yerda  $\vartheta$  kumush atomlari tezligi. Bu tenglikdan quyidagini olamiz

$$\vartheta = \frac{\omega R_2 (R_2 - R_1)}{l}.$$

*Izoh.* Aylanayotgan tashqi tsilindrda kumush tasmasi, tinch turgan tsilindrda qaraganda ancha sochilgan. Maksvell bashorat qilganidek, kumush atomlari har xil tezlikka ega. Molekulalarda tezlik qancha katta bo'lsa, shu joyda kumush kumush qatlami zichroq. Kumush qatlami zichligini optik tadqiq etishning ko'rsatishicha, kumush tasmasi kengligi bo'yicha u Maksvell taqsimotiga mos ravishda o'zgaradi.

5.2. Qiruvchi samolyotning ko'tarilish paytida bortdagisi barometrda  $1,1 \cdot 10^5$  Pa bosimni ko'rsatdi, parvoz paytida esa  $0,8 \cdot 10^5$  Pa. Har ikki holatda ham havo temperaturai  $7^\circ\text{C}$  ga teng. Parvoz balandligi qanday? Havoning molyar massasi 29 g/mol.

**Berilgan:**  $p_0 = 1,1 \cdot 10^5$  Pa;  $p = 0,8 \cdot 10^5$  Pa;  $t = 7^\circ\text{C} = 280$  K;  $M = 29$  g/mol  
 $= 29 \cdot 10^{-3}$  kg/mol.

h—?

**Yechish.** Barometrik formulaga asosan

$$p = p_0 e^{-\frac{mgh}{kT}}.$$

Bundan

$$\ln\left(\frac{p_0}{p}\right) = \frac{mgh}{kT}, \quad h = \frac{kT}{mg} \ln\left(\frac{p_0}{p}\right).$$

Son qiymatlarini qo'yib hisoblasak,  $h \approx 1900 \text{ m}$  ni olamiz.

5.3. Bo'yi 1,7 m, ko'kragini kengligi 0,4 m va massasi 80 kg bo'lgan parashyutchining belgilangan tushish tezligi qanday? Agar parashyutni ancha vaqt ochmasdan tushayotganda tanasi gorizontal, qo'llari esa ikki tomonga yoyilgan.

**Berilgan:**  $l = 1,7 \text{ m}; b = 0,4 \text{ m}; m = 80 \text{ kg}.$

$u - ?$

**Yechish.** Parashyutchining belgilangan tushish tezligini (5.33) va (5.34) formulalar hamda 5.1 jadval yordamida aniqlash mumkin. Jadvaldan  $c = 0,3$ . Faraz qilaylik o'rtacha kesim  $S = lb = 0,7 \text{ m}^2$ . Qo'llar ikki tomonga yoyilganligini hisobga olsak, yuzani kvadrat deb olish mumkin:  $S = l^2 \approx 2,9 \text{ m}^2$ . Bu qiymatlarning o'rtachasini olsak,  $S = 1,8 \text{ m}^2$  bo'ladi. Berilgan va topilgan kattaliklarni (5.34) formulaga qo'yib hisoblasak quyidagini olamiz  $u \approx 49 \text{ m/s} (\approx 180 \text{ km/soat})$ .

**Izoh.** Atmosferaning balandligi va holatiga bog'liq holda parashyutchining tushish tezligi 50 — 150 m/s ni, balkim undan ham ko'jni tashkil etishi mumkin. Misol uchun, avstriyalik parashyutchi F. Baumgartner maxsus skafandrda 39 km dan boshini pastga qilib sakraganda 1343 km/soat tezlikka erishgan, bunday paytda 0°C temperaturali havoda tovushning tarqalish tezligi 1193 km/soat ni tashkil etadi.

### Mustaqil yechish uuchun masalalar

5.4. Chiqarish taktida dvigatel tsilindridan atmosferaga tarkibida massasining 1,8% ga teng miqdorda uglerod oksidi bo'lgan, 0,6 g chiqindi gazlar chiqariladi. Tirsakli valining aylanish chastotasi  $1800 \text{ min}^{-1}$  bo'lgan to'rt taktli sakkiz silindrli

dvigateldan 1 s ishida atmosferaga qancha CO molekulalari chiqadi? (Eslatma: Dvigatelning ish tsikli chastotasi tirsakli vali aylanish chastotasining yarmiga teng.)

5.5. Avtomobilning pnevmatik tormoz tizimining 20 litrli tsilindrida  $20^{\circ}\text{C}$  temperaturada havo bosimi  $8 \cdot 10^5\text{Pa}$ . Xavfsizlik qopqog'i ishga tushirilganda, bosim tezda  $7,5 \cdot 10^5\text{ Pa}$  gacha kamayadi. Tsilindrda undan chiqarilgan havo qancha hajmi egallagan? Tsilindrda qolgan gazning temperaturai qanday? (Eslatma: Havo molekulasini ikki atomli va o'zaro qattiq bog'langan deb hisoblansin.)

5.6. Suv osti sho'ng'uvchisi nafas olishi natijasida hosil bo'lgan havo pufakchasining hajmi suv havzasi yuzasida bir yarim barobar oshdi. Atmosfera bosimi  $1,01 \cdot 10^5\text{Pa}$ . Suv osti sho'ng'uvchisi qanchalik chuqurlikda joylashgan? Temperatura doimiy deb hisoblansin.

5.7. Bir xil parashyutlarda og'irligi 100 kg va 50 kg bo'lgan bir xil shakl va o'lchamdagи yuklarni tashladilar. Birinchisi  $6\text{ m/s}$  barqaror tezlikda tushadi. Agar havoning qarshilik kuchi tezlik kvadratiga mutanosib bo'lsa, ikkinchi yuk qanday tezlikda tushadi?

5.8. Domkrat ishlatilganda 20 litr hajmli avtomobil shinalari kamerasidagi havo bosimi  $2 \cdot 10^5\text{Pa}$ . Mashinani domkratdan tushirilgandan so'ng, kameraning deformatsiyasi natijasida uning hajmi 0,5 litrga kamaydi. Havoni siqish uchun qanday ish bajarilgan?

## 6 - BOB. TEMODINAMIKA

### 6.1.Termodinamikaning birinchi qonuni

MKN ko'pkomponentli tizimlarni (moddalarni) ko'rib chiqish (o'rghanish)ning yagona usuli emas. Moddalarni o'rghanishning yana bir usuli mavjud bo'lib, unga *termodinamik* usul deyiladi. Termodinamik usul, bu insonning ish bajarish uchun issiqlikdan foydalanish istagiga mos keladi.

**Tarixga nazar.** Issiqlikning birinchi mazmunli qo'llanilishiga ajdodlarimiz gulxanlarini kiritish mumkin, u isituvchi konveksion havo oqimini hosil qilish bo'yicha ish bajargan. Qadimgi Misr mis metallurgiyasini ham eslashingiz mumkin, miloddan avvalgi 4 ming yillarga oid eng qadimiy bronza qilich va antiqa o'rtalasrular alkemyosi va aeronavtika davrini ochgan, XVIII asrning havo sharlari issiq havosi va eng muhim - issiqlik dvigatellarini yaratish bosqichlari.

Termodinamik usul energiyaning saqlanish qonuniga asoslanadi. Tizimning ichki energiyasi uning barcha N molekulalarining energiyalari yig'indisiga (5.8) teng:

$$U = N \frac{i}{2} kT = \frac{i}{2} \frac{N}{N_A} N_A kT = \nu \frac{i}{2} RT. \quad (6.1)$$

Energiya  $U$  ish bajarilishi natijasida o'zgarishi mumkin. XVIII asrda lord Rumford artilleriya quroli stvolini parmalash 'aytida ular qizib ketganiga e'tibor qaratdi. Bu, issiqlik — alohida harakat turi ekanligini anglatardi.

Miqdoriy baholash uchun porshenning S yuzali asosiga ta'sir qiluvchi  $F = pS$  kuchni ko'rib chiqamiz. Agar u porshen silindrda  $dx$  ga siljitsa, u holda quyidagi ish bajariladi

$$\delta A = pSdx = pdV \quad (6.2)$$

bu erda  $dV = Sdx$  - gaz hajmining o'zgarishi. Gazni siqishda  $dV < 0$ ,  $\delta A < 0$  porshen unga eng yaqin molekulalarga energiya beradi. Ular gazning ichki energiyasini oshirib, bu molekulalarni boshqalar orasiga tarqatadilar. Aksincha jarayonda  $dV > 0$  — gaz kengayib, ichki energiyasi hisobiga  $\delta A > 0$  ishini bajaradi, natijada gazning ichki energiyasi kamayadi.

(6.2) formula va 6.1-rasmdan, boshlang'ich ish shtrixlangan to'rtburchakning yuziga teng. Hajmning yakuniy o'zgarishi bilan, masalan, V<sub>2</sub> — V<sub>3</sub> — V<sub>5</sub> sxemasiga binoan, ish 235 egri chiziq va V o'qi bilan chegaralangan shakl yuzasiga teng bo'lgan integralga teng ravishda aniqlanadi:


---

$$A = \int_{(235)} p dV \quad (6.3)$$


Gazning ichki energiyasi U isitish-sovitish natijasida, shu jumladan elektromagnit to'lqinlarning yutilish-nurlanishi bilan ham o'zgarishi mumkin. Energiyani ish bajarmasdan o'tkazish *issiqlik uzatish* deb ataladi va issiqlik uzatish bilan uzatiladigan gazning ichki energiyasi U isitish-sovitish natijasida, shu jumladan elektromagnit to'lqinlarning yutilish-nurlanishi bilan ham o'zgarishi mumkin.

Energiyani ish bajarmasdan o'tkazish *issiqlik uzatish* deb ataladi va issiqlik uzatish bilan uzatiladigan molekulalar xaotik harakatining energiyasi *issiqlik* deyiladi. Energiyaning saqlanish qonunidan quyidagilar kelib chiqadi: *tizim tomonidan olinadigan issiqlik uning ish bajarilishiga va ichki energiyasini oshirishga sarflanadi*:

$$\delta Q = \delta A + dU \quad (6.4)$$



**6.1-rasm**



**6.2-rasm**

Bu tenglama *termodinamikaning birinchi qonunini* ifodalaydi, bu tarixiy sabablarga ko'ra termodinamikaning birinchi bosh qonuni deb ham ataladi. Uning R. Klauzius tomonidan ishlab chiqilgan, ammo aslida bu energiyaning saqlanish va aylanishi qonunidir va undan oldin L.F. Helmgolts tomonidan ta'riflangan. (6.4) tenglamaning tarkibiy qismlari algebraik kattaliklardir: agar tizimga issiqlik kirsa,  $\delta Q > 0$  bo'ladi; agar tizim tashqi kuchlarga qarshi ish bajarsa,  $\delta A > 0$ . Teskari jarayonlarda ishora(belgi) o'zgaradi.

(6.4) formuladagi  $d$  va  $\delta$  belgilar orasidagi farq quyidagicha izohlanadi.  $pV$ -diagrammasidagi har qanday nuqta, masalan, 2-nuqta (p2, V2) (6.1-rasmga qarang), T2 ning to‘liq aniqlangan qiymatiga va shu sababli U2 ga to‘g‘ri keladi. Binobarin, *ichki energiya U tizim holatining bir qiymatli termodinamik funktsiyasi bo‘lib, u ushbu holatga o‘tish yo‘liga bog‘liq emas:  $\Delta U_{235} = \Delta U_{215}$ .* Xuddi shunday  $\Delta U_{512} = -\Delta U_{215} = -\Delta U_{235}$ , u holda  $\Delta U_{235} + \Delta U_{512} = 0$ , ya’ni *termodinamik jarayonda yopiq traektoriyasi bo‘ylab o‘tishda, tizimning ichki energiyasining o‘zgarishi nolga teng.*

Xuddi shunday natija tortishish maydonidagi potentsial energiya (va ish) uchun ham olingan (3.11 formula). Shunday qilib,

$$\oint dU = 0 .$$

Matematik nuqtai nazardan, bu formulada  $dU$ , U funktsiyasining to‘liq differentialsalini anglatadi va u  $d$  belgisi bilan belgilanadi. Bundan farqli ravishda ish nafaqat tizimning dastlabki va yakuniy holatlariga, balki ular orasidagi o‘tish traektoriyasiga va shuning uchun jarayonning turiga ham bog‘liq. Shunday qilib, 215 yo‘lda ish 235 trekka qaraganda kamroq (egri chiziqlar ostidagi yuzalar har xil). Shuning uchun,  $\delta A$  to‘liq differentials emas, faqat elementar orttirma, bu  $\delta$  belgi bilan ko‘rsatiladi. Chunki (6.4) formulaning o‘ng tomoni  $\delta A$  ni o‘z ichiga oladi, demak  $\delta Q$  ham to‘liq differentials bo‘lishi mumkin emas. Haqiqatdan ham, qaysi jarayon bo‘layotganiga qarab, tizimga bir temperaturadan boshqasiga o‘tish uchun har xil miqdorda issiqlik kerak. Bu shuni anglatadiki, tizimning *issiqlik sig‘imi* turli jarayonlar uchun har xil.

Issiqlik sig‘imi moddaning miqdoriga(moliga) bog‘liq. Agar C ixtiyoriy jisning issiqlik sig‘imi bo‘lsa, u holda uning moddasining molyar issiqlik sig‘imi

$$c = \frac{C}{v} = \frac{1}{v} \frac{\delta Q}{dT}. \quad (6.5)$$

(6.4) tenglama har qanday jarayonlar uchun amal qiladi va tarixi asrlarga borib taqaladigan issiqlik dvigatellarini loyihalash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

---

**Tarixga nazar.** I asrda Iskandariya qahramonlari shar shaklidagi bug‘ turbinasini loyihalashtirdilar, u suv bug‘lari oqimi tufayli aylanadi, Leonardo da Vinci esa, (XV-XVI asrlar) suv va porshenli silindrni loyihalashtirdi, u suvni isitish natijasida hosil bo‘lgan bug‘ bilan harakatlanishi va foydali ishni bajarishi kerak.

XVII-XIX asrlar davrida shaxtalardan suvni tortish uchun bitta silindrli bug‘dvigateli paydo bo‘ldi (T. Severi); I.I.Polzunov va J. Uattning ikki silindrli bug‘dvigatellari yaratildi, va nihoyat, N. Otto va P.-A. Dizel tomonidan ichki yonish dvigatellari kashf qilindi. Ilmiy -texnik tafakkurning bu yutuqlari bilan bir qatorda, harbiy qurilmalar ham rivojlandi. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda ham greklar quvurlar orasidan otilgan olovni dushman mudofaasi tomon yo‘naltirishgan. Ko‘p asrlardan keyin paydo bo‘lgan yunon olovi (VII asr), bunday qurolning ishlash mexanizmi bilangina emas, balki uni o‘chirish qiyin bo‘lgan yonuvchan aralashmaning tarkibi bilan ham mashhurdir. Miloddan avvalgi III asrda Arximed bug‘ bilan o‘q otadigan to‘p yasadi. U keyinchalik kashf etilgan Paskal qonunini intuitiv ravishda qo‘llagan: harakatlanuvchi qismida idishning devorlari boshqalar kabi bug‘ bosimidan ta’sirlanadi, lekin harakatlanayotganda u ish bajaradi. Xitoya poroxning ixtiro etilishi (IX asr atrofida), qurol termodinamikasini rivojlantirishga tarixiy jihatdan muhim turtki bo‘ldi. X asrda o‘qotar qurollarning prototipi paydo bo‘lgan, u bambukdan yasalgan olovli nayza, keyinchalik evropalik qurolsozlar tomonidan meros qilib olingan. Evropadagi qurollar tinch maqsadlarda foydalilanidigan issiqlik dvigatellaridan ancha eski. Agar birinchi ichki yonish dvigatellari (IYD) XIX asrda ishlab chiqilgan bo‘lsa, birinchi to‘plar XII asrda Xitoya ishlatilgan va o‘rta asrlardan boshlab ular harbiy janglar yo‘nalishini sezilarli darajada o‘zgartirib yuborgan. X asrda o‘qotar qurollarning prototipi paydo bo‘lgan, u

bambukdan yasalgan olovli nayza, keyinchalik evropalik qurolozlar tomonidan meros qilib olingan. Evropadagi qurollar tinch maqsadlarda foydalaniladigan issiqlik dvigatellaridan ancha eski. Agar birinchi ichki yonish dvigatellari (IYD) XIX asrda ishlab chiqilgan bo'lsa, birinchi to'plar XII asrda Xitoyda ishlatilgan va o'rta asrlardan boshlab ular harbiy janglar yo'naliishini sezilarli darajada o'zgartirib yuborgan.

---

Ularning qo'llanilishi porox gazlarining ishini o'rganishga, zaryad va snaryad massalarining nisbatini, snaryad traektoriyasini, materiallar, tuzilmalar, o'q otish va boshqalar bilan shug'ullanishga undadi. Ba'zi tarixchilarning fikriga ko'ra, bu voqelikni ilmiy o'rganishga asosiy turtki bo'lib, xurofot va yolg'onchlikni siqib chiqarishga asosiy turtki berdi.

Qaysidir ma'noda o'q otish qurollari va issiqlik dvigatellari turli traektoriyalar bo'ylab rivojlangan. Agar qurol nisbatan sodda bir martalik harakatni bajarsa, issiqlik dvigateli davriy ravishda, ya'ni yopiq tsiklda ishlaydi. Bu nafaqat materialarga va mashinalarning konstruktiv va texnologik xususiyatlariga e'tiborni, balki jarayonlarning termodinamikasini nazariy tushunishni ham talab qiladi. Xususan, (6.4) formulasi  $\delta Q$  issiqliknini tashqaridan qarz olmasdan ishlashi mumkin bo'lgan *birinchi turdag'i abadiy dvigatelni* yaratish mumkin emasligini ko'rsatadi.

---

Real dvigatellarning ishchi jismining moddasi — ko'pincha gaz yoki bug', kengayish va qisqarish orqali bir holatdan ikkinchisiga osonlik bilan o'tadigan moddalar(ichki yonish dvigatellari, bug' turbinalari va boshqalar).

Agar yopiq tsikl 23532 traektoriyasi bo'ylab amalga oshirilsa (6.1 -rasmga qarang), u holda 532 jarayondagi ish 235 jarayondagi ish bilan bir xil, lekin teskari ishorali.

Shuning uchun, tsikl bo'yicha ish nolga teng va bunday mashina hech kimga kerak emas.  $A > 0$  ish olish uchun  $pV$  diagrammadagi qaytish jarayoni to'g'ri chiziq

bilan emas, undan pastroqdan o‘tishi kerak, buni  $T_2 < T_1$  talab etadi. Bunga issiqlik almashinuvi orqali erishiladi: to‘g‘ridan - to‘g‘ri jarayonda, gaz (bug‘) temperaturasi  $T_1$  bo‘lgan isitgichdan  $Q_1$  issiqlik oladi va kengayadi, ishni bajaradi (6.1 -rasmga qarang), keyin u siqiladi, asl holatiga qaytadi va  $T_2 < T_1$  temperaturali sovutgichga  $Q_2$  issiqligini beradi (6.2 -rasm). Madomiki tsikli uchun  $\Delta U = 0$  bo‘lsa, u holda (6.4) formula quyidagi shaklni oladi

$$A = \Delta Q = Q_1 - Q_2 \quad (6.6)$$

(6.6) formuladan juda muhim xulosa kelib chiqadi: *issiqlik dvigatelei isitgichdan olgan barcha  $Q_1$  issiqliknini mexanik energiyaga aylantira olmaydi u  $Q_2$  qismini qaytarishga majburdir.* Bu termodinamikaning ikkinchi qonunini aks ettiradi, u ingliz fizigi V.Tomson (Kelvin) (1824-1907) tomonidan ishlab chiqilgan, shuningdek termodinamikaning ikkinchi qonuni R. Klauzius(1858) va M. Plank (1947) tomonidan quyidagicha ta’riflangan: *tizimga berilgan issiqlik to‘liq mexanik ishga aylanadigan tsikl mavjud emas.*

Aks holda, masalan, ming yillar davomida Jahon okeanining issiqligi mexanik energiyaga aylanishi mumkin bo‘lardi, va bunday mashina ikkinchi turdag'i abadiy dvigatei bo‘lardi. Uning mavjudligi termodinamikaning birinchi qonuni bilan to‘liq tan olingan, lekin u termodinamikaning ikkinchi qonuniniga zid.

Tabiatning eng aqlli «mashinasi» - bu odamning o‘zi (boshqa mashinalarni yasovchi). Masalan, uning xotirasini saqlash uchun qon ta’mnoti uchun sarflanadigan energiya xarajatlari uning ishlatilishiga qarab optimallashtiriladi. Xotiraning ba’zi neyron guruhlari kamdan - kam hollarda aylanadi, va keyin tarqaladi. Va shuncha ratsionallikka qaramay bunday «mashina» qurilmalarida, u iste’mol qiladigan energiyaning bir qismi tashqariga chiqariladi.

U har qanday harbiy mashinada ham ajralib chiqadi - u tashqaridan iste’mol qilingan barcha energiyani foydali ishga aylantira olmaydi. Shuning uchun issiqlik fonida ishlaydigan mashinalar har doim atrof - muhit bilan keskin farq hosil qiladi.

Niqoblash va niqobni ochish (maskirovka va demaskirovka) o‘rtasida doimiy raqobat o‘rnatalishi hamm shunga asoslanadi (kvant fizikasi bo‘limiga qarang). Bundan tashqari,  $Q_2 \neq 0$  bo‘lgan hech qanday mashinaning foydali ish koeffitsenti(FIK) 1 ga teng bo‘lishi mumkin emas:

$$\eta = \frac{A}{Q_1} = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} = 1 - \frac{Q_2}{Q_1} \quad (6.6)$$

Mashinaning foydali ish koeffitsentini qanday qilib eng katta qiymatga olib chiqish imkoniyatini yaratish ham, boshqa bir muhim masala hisoblanadi. U avvalo mashina sikli qanday jarayonlardan tashkil topishini aniqlashga keltiriladi.

Avval ideallashtirilgan izojarayonlarni ko‘rib chiqamiz.

## 6.2. Izojarayonlar va Karno tsikli

*Izoxorik jarayonda* 12 (6.1 - rasmga qarang)  $dV = 0$  va (6.2), (6.4) formulalardan quyidagi tenglik kelib chiqadi

$$\delta Q = dU = v c_V dT, \quad (6.7)$$

bu erda (6.5) munosabat ishlataladi va indeks isitish o‘zgarmas hajmda amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Shuning uchun,  $c_V$  o‘zgarmas hajmdagi molyar issiqlik sig’imi deb ataladi:

$$c_V = \frac{i}{2} R, \quad (6.8)$$

bu erda (6.1) munosabat ishlataladi. Masalan,  $H_2$  molekulasi uchun,  $i = 5$  va, shuning uchun  $c_V = \frac{5R}{2}$ .

*Izobarik kengayishda* 23 bilan (6.1 -rasmga qarang)

$$\delta Q = v c_p dT, \quad (6.9)$$

bu erda  $c_p$ - o‘zgarmas bosimdagagi molyar issiqlik sig’imi. Bu erda, *issiqlik nafaqat gazning ichki energiyasini oshirishga, balki ishni bajarishga ham sarflanadi*. Shuning uchun, xuddi shu  $\delta Q$   $dT$  uchun kamroq, ya‘ni.  $c_p > c_V$ . Agar (6.4) tenglamaning barcha hadlarini temperatura bilan ifodalab, (6.1), (6.9) munosabatlarni (6.2)

formulaga qo‘yib, hosil bo‘lgan ifodaning o‘ng tomonini holat tenglamasidagi  $\nu R dT$  shaklida ifodalaymiz, va *Mayer tenglamasini* olamiz.

$$c_p = c_V + R. \quad (6.9)$$

*Izotermik jarayonda* 34 (6.1 - rasmga qarang) ichki energiya ta’rifi bo‘yicha o‘zgarmaydi, shuning uchun, *berilgan barcha issiqlik faqat ishni bajarish uchun sarflanadi*.

$$Q = A = \int_{V_3}^{V_4} p dV = \nu RT \int_{V_3}^{V_4} \frac{dV}{V} = \nu RT \ln \frac{V_4}{V_3}. \quad (6.10)$$

(6.35) va (4.36) munosabatlarni (4.38) formulaga qo‘ib, bir mol uchun quyidagi ifodani topamiz:

$$\delta Q = c_V dT + p dV. \quad (6.11)$$

Tenglikning ikkala tomonini ham T ga bo‘lib, (5.1) ifodadan foydalanim, quyidagini olamiz

$$\frac{\delta Q}{T} = c_V \frac{dT}{T} + R \frac{dV}{V} = d(c_V \ln T + R \ln V), \quad (6.12)$$

bu erda  $\frac{dT}{T} = d \ln T$  va  $\frac{dV}{V} = d \ln V$ . (6.12) formulaning o‘ng tomoni to‘liq differentialsial bo‘lgani uchun, chap tomoni ham shunday. d belgisiga nisbatan berilgan izohlarga va (6.3) formulaga kora, bu (6.12) ning chap tomoniga teng bo‘lgan holat funktsiyasi mavjudligini bildiradi. U S farfi bilan belgilanadi va *entropiya* deb ataladi:

$$dS = \frac{\delta Q}{T}. \quad (6.13)$$

Entropiya (yunoncha en — ichkariga va *trope* — o‘zgartirish) tushunchasi R. Klauzius tomonidan kiritilgan.

(6.5) va (6.13) formulalarini solishtirish natijasida entropiya issiqlik sig‘imi bilan bir xil J/K o‘lchamdaligini ko‘rish mumkin. Entropiya  $S$  holat funktsiyasi bo‘lgani uchun shunday izojarayon bo‘lishi mumkin, bunda u o‘zgarmas bo‘lib qoladi. Boshqalarga o‘xshash, uni *izentropik* deb atash mumkin, lekin ko‘pincha uni *adiabatik* deb atashadi.

**Savol.** Adiabatik jarayonda termodinamikaning birinchi qonuni qanday ko‘rinishni oladi?

**Javob.** (6.13) formuladan ko‘rinib turibdiki,  $S = \text{const}$  uchun  $\delta Q = 0$ , ya’ni u atrof -muhit bilan issiqlik almashinuviz oqadi. U holda (6.4) formuladan quyidagi kelib chiqadi

$$\delta A = -\Delta U. \quad (6.14)$$

Bunday jarayon issiqlik izolyatsiyasini yaratadigan termosda amalga oshirilishi mumkin. Biroq, uni hajmning tez o‘zgarishi bilan amalga oshiriladi, agar jarayon issiqlik almashinovi paytida relaksatsiya vaqtidan ancha qisqa bo‘lsa - issiqlik uzatishga ulgurmaydi. Ishlayotgan nasos yoki kompressor qiziganda, dizel dvigatelining tsilindridda ishchi aralashmani siqish, ochiq ballonni siqilgan havo bilan sovutish, yadroviy portlashda hosil bo‘ladigan olov shar va boshqalar.

---

Adiabatik jarayonda holat parametrlaridan birining boshqasiga bog‘liqligi *adiabata deb* ataladi. PV-diagrammada (6.1-rasmga qarang) adiabat 35 izotermaga qaraganda ancha keskin tushadi, chunki kengayish faqat gazning ichki energiyasi tufayli sodir bo‘ladi va shuning uchun uning temperaturasi past bo‘ladi. Adiabata uchun ifodani (6.4) formuladan olish mumkin:

$$c_V \ln T + R \ln V = \text{const}, \text{ ya’ni } \ln TV^{\chi-1} = \text{const},$$

bu yerda  $\chi$  — adiabata ko‘rsatgichi(laboratoriya mashg‘ulotida tajriba yo‘li bilan aniqlanadi):

$$\chi = \frac{c_p}{c_V} = \frac{c_V + R}{c_V} = 1 + \frac{2}{i}. \quad (6.15)$$

Shunday qilib adiabata tenglamalarining quyidagi variantlarini yozish mumkin

$$TV^{\chi-1} = \text{const}, pV^\chi = \text{const}, pT^{\frac{\chi}{1-\chi}} = \text{const}, \quad (6.16)$$

bu yerda keyingi ikkita ifoda (5.1) formula yordamida olingan.

Shunday qilib, barcha izojarayonlarda issiqlik sig‘imi o‘zgarmas va ular 0 dan  $\infty$  gacha bo‘lgan qiymatlarni qabul qiladi. Mashinalardagi real jarayonlarda, aksariyat hollarda holat parametrlaridan birining doimiyligi talabi qondirilmaydi va shuning uchun ular izojarayonlarga tegishli emas. Lekin, agar molyar issiqlik sig‘imining doimiyligi talabi berilgan bo‘lsa, demak bu talab politrop deb ataladigan jarayonlarning kengroq sinfi tomonidan qondiriladi. (6.11) va (6.5) tenglamalardan quyidagilar:

$$\frac{dT}{T} + n \frac{dV}{V} = 0, \quad (6.17)$$

bu yerda  $n = \frac{C_p - C_V}{C_V - C}$  bolib, politrop ko‘rsatgichi deyiladi. Bulardan izojarayonlarni ham qondiruvchi *politropalar tenglamalari* kelib chiqadi:

$$TV^{n-1} = \text{const}, pV^n = \text{const}, pT^{\frac{n}{1-n}} = \text{const}, \quad (6.18)$$


Ko‘rib chiqiladigan jarayonlarning qaysi tsikli issiqlik dvigatelida shakllanishi kerak? Bu savolga javob topishda frantsuz muhandisi S. Karko (1796-1832) katta hissa qo‘shdi. U foydali ishni faqatgina issiqroq jismdan sovuqroq jismga issiqlik o‘tganda olish mumkinligini va aynan qanday ishchi jism issiqlik tashuvchisi bo‘lib xizmat qilishi ahamiyatga ega emasligini ko‘rsatdi. Ideal tsiklni ikkita termostat - isitgich va sovutgich bilan ishlaydigan mashinada shakllantish mumkin. Chunki termostatlar temperaturasi ta’rifi bo‘yicha doimiydir; ular bilan issiqlik almashinuvli izotermik bo‘lishi kerak. Va issiqlik yo‘qotmasdan izotermik jarayonlar o‘rtasida o‘tishni amalga oshirish uchun ular faqat adiabatik bo‘lishi mumkin (6.3 -rasm). (6.6) va (6.10) formulalaridan Karko tsiklining foydali ish koeffitsentini olamiz:

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} = \frac{T_1 \ln \frac{V_2}{V_1} - T_2 \ln \frac{V_3}{V_4}}{T_1 \ln \frac{V_2}{V_1}}. \quad (6.19)$$

$V_2$  va  $V_3$  bitta adiabataga,  $V_4$  va  $V_1$  adiabataga tegishli bo‘lgani uchun (6.16)

formuladan foydalanamiz:  $\frac{T_2}{T_1} = \left(\frac{V_2}{V_3}\right)^{\chi-1} = \left(\frac{V_1}{V_4}\right)^{\chi-1}$ , bundan  $\frac{V_2}{V_1} = \frac{V_3}{V_4}$ . Ushbu ifodani (6.19) formulaga qo‘yib, quyidagini olamiz

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1} = 1 - \frac{T_2}{T_1}. \quad (6.20)$$



**6.3-rasm**

(6.20) formuladan kelib chiqqan holda,  $\eta = 1$  ga faqat  $T_2 = 0$  da erishish mumkin. Mutlaq nolga nisbatan aniqlangan temperatura shkalasi termodinamik Kelvin shkalasi deyiladi. Bu ideal gaz shkalasiga to‘g‘ri keladi.  $T = 0$  dan tashqari qo‘sishimcha ravishda, temperaturani o‘lchash uchun tayanch nuqtasi sifatida  $T = 273,16$  K - «suvning uchlanma nuqtasi», bunda suv, muz va suv bug‘lari muvozanatda bo‘ladi. Bu Selsiy shkalasini aniqlaydi.

(6.20) formula ishchi jism nafaqat ideal gaz shaklida bo‘lganda, balki boshqa hollarda ham amal qiladi.

### 6.3. Termodinamikaning ikkinchi qonuni va real mashinalar

Real jarayonlarda,  $Q_2$  sarflarning qo‘sishimcha ravishda oshishi muqarrar silindr devorlariga porshenlarning ishqalanishi, muhit bilan issiqlik almashinuvi tufayli va

hokazo. Shunday qilib, *har qanday haqiqiy mashinaning FIK ideal qiymatdan past bo'ladi* (6.18):

$$1 - \frac{Q_2}{Q_1} \leq 1 - \frac{T_2}{T_1}, \quad (6.21)$$

bu yerda tenglik belgisi ideal tsikl uchun qo'yilgan.

**Savol.** Real mashinalarning *FIK* ini oshirishning yo'li (6.21) formuladan qanday kelib chiqadi?

**Javob.**  $T_1$  ning ortishi va  $T_2$  ning kamayishi. Ikkinchisi, qoida tariqasida, mashina yaqinidagi atmosfera havosining temperaturasi bilan belgilanadi,  $u \sim 100^\circ\text{C}$  gacha ko'tarilishi mumkin.  $T_1$  ga kelsak, uni ko'paytirish uchun, xususan, issiqlik izolyatsiyasi, masalan, keramik korpus(adiabatik motorlar deb ataladi) dan foydalilaniladi. Har qanday holda,  $T_1 > T_2 \sim 300\text{K}$  ga va shuning uchun issiqlik dvigatellarining *FIK*  $\sim 0,4 \div 0,5$ , lokomotivlar uchun esa undan ham kam ( $\sim 0,1$ ).

(6.20) formulani (6.6) va (6.13) munosabatlar bilan solishtirib, quyidagini olamiz

$$\frac{Q_1}{T_1} = \frac{Q_2}{T_2}, \text{ ya'ni}$$

$$\frac{Q_1}{T_1} = \frac{Q_2}{T_2} = \Delta S = 0. \quad (6.22)$$

Karno tsiklining  $1 \rightarrow 2$  yuqori izotermasida (6.3 -rasmga qarang), bu erda foydali ish amalga oshiriladi

$$\Delta S = \frac{Q_1}{T_1}, \quad (6.23)$$

bu entropiya ma'nolaridan birini aniqlash imkonini beradi. (6.19) va (6.20) formulalardan quyidagi kelib chiqadi:  $T_1$  qancha kichik bo'lsa, mashinaning *FIK* shuncha *past* bo'ladi va entropiya o'sishi shunchalik *katta* bo'ladi, ya'ni, *entropiya - bu mexanik energiya manbai sifatida issiqlikning foydasizligi o'lchovidir*.

Karno tsiklining  $3 \rightarrow 4$  pastki izotermasi uning mikro darajadagi fizik ma’nosini ochishga imkon beradi (6.3-rasmga qarang):

$$\Delta S = \frac{Q_2}{T_2} = Nk \ln \frac{V_3}{V_4}. \quad (6.24)$$

Oxirgi ifoda (6.10) formula yordamida olinadi. Shunday qilib  $Q_2 < 0$  bo‘lgan holda,  $\Delta S < 0$ , ya’ni izotermik siqilishda entropiya kamayadi. Bu nima degani? Tizimning shu holatida aynan nima o‘zgardi? Molekulalar soni va ularning o‘rtacha energiyasi o‘zgarishsiz qoldi ( $T = \text{const}$ ), faqat gaz hajmi o‘zgardi:  $V_4 < V_3$ , ya’ni molekulalarning fazoda avvalgiga nisbatan *kam sonli holatlarni egallash imkoniyati* mavjud. Holatlarning har bir majmuasi (impulslari bilan birga) *tizimning mikroholatini* tavsiflaydi va majmular to‘plami *makroholatni* yoki *statistik vaznni* tavsiflaydi (5-bobning 2- bandiga qarang).

Keling,  $V_3$  boshlang‘ich hajmga qaytaylik va xayolan uning ichida  $V_4$  hajmni ajratib olaylik. Qandaydir molekulaning  $V_4$  hajm ichida:  $\omega_1 = \frac{V_4}{V_3}$  holatni egallash ehtimoli va barcha  $N$  molekulalarning *bir vaqtning o‘zida*  $V_4$  hajm ichida paydo bo‘lish ehtimoli bunday ehtimolliklar hosilasiga teng (hodisalar mustaqilligi). Bu hosila tizimning shunday holatining *statistik vazni*  $\Omega$  ni aniqlaydi:  $\Omega = (V_4/V_3)^N$ . Ushbu ifodaning logarifmini olib va (6.24) formulaga qo‘ysak, quyidagini olamiz

$$S = k \ln \Omega. \quad (6.25)$$

Bu muhim formulani 1872 yilda L. Boltzman keltirib chiqargan. Bundan kelib chiqadiki, *entropiya tizimning statistik vazniga mutanosib bo‘lib, uning holati ehtimolini tavsiflaydi*.

Masalan, 5.1- rasmida barcha to‘rt molekula idishning yarmida joylashgan holatning statistik vazni kichik - va entropiya ham kichik. Molekulalarning hajm bo‘ylab *tekis taqsimlanish* ehtimoli eng ko‘p bo‘lganda, entropiya maksimal bo‘ladi.

*Entropiya - bu tizimning xaotikligining o‘lchovi hisoblanadi.* Agar issiqlik ko‘proq qizigan jismdan kamroq qizigan jismga o‘tkazilsa, u holda, (6.24) formulaning maxraji kamaygani uchun bunday jarayon mumkin, lekin buning aksi

bo‘lmaydi: *issiqlik o‘z – o‘zidan kam qizigan jismdan ko‘p qizigan jismga o‘tishi mumkin emas.*

Bu termodinamikaning ikkinchi qonunining yana bir ta’rifidir. Bu shuningdek, vaqtning ortga qaytmasligini ko‘rsatadi: *o‘z – o‘zidan kechuvchi jarayonlar entropiyaning o‘sishi yo‘nalishida o‘tadi* (ammo teskari jarayonlar ham bor).

Ko‘rib chiqilgan termodinamik jarayonlar xususiyatlari va (6.21) ifoda har xil turdag‘i mashinalarni loyihalash imkonini beradi. Ular orasida sovutuvchi, teskari tsiklda ishlaydigan mashinalar ham bor: ular past temperaturali jismdan issiqliknini olib, yuqori temperaturali jismga beradi. Biroq, bularga qaraganda avtomatik o‘qotar qurollarni o‘z ichiga olgan issiqlik mashinalari keng tarqalgan.

### **Tarixga nazar**

---

O‘qotar qurolga qo‘yiladigan, tobora ortib borayotgan yuqori talablar bilan o‘qchingning cheklangan imkoniyatlari orasida ziddiyatlar yuzaga kelmoqda: odam qisqa masofada qo‘lda tor interval bilan va kerakli aniqlikda bir nechta o‘jni birdaniga otishga qodir emas. Shu sababdan, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida birinchi avtomatik miltiqlar paydo bo‘ldi («Brauning» va boshqalar), lekin ular ikkinchi Jahon urushi paytida haqiqiy rivojlanishga erishdilar.

---


Avtomatik o‘qotar qurollarda yopiq tsikl porox gazlari energiyasining bir qismi tufayli amalga oshiriladi. U o‘ziga xos tarzda prujinali mayatnikka o‘xshab ishlaydi, u IYD mexanik qismiga o‘xshash, silindr klapanlarini, gaz taqsimlanishini va uchqun chiqishini boshqaradi. Shunga ko‘ra, bu ikkita issiqlik mashinasidagi jarayonlar o‘xshash.

### **Amaliyotdan misollar**

---

Keling, karbyuratorli IYD va jangovar patron tsikllarini solishtiraylik (6.4 - rasm). Ikkala mashinada ham, ishchi jism uchun boshlang‘ich material yonilg‘ining

kislorod bilan aralashmasidir. IYDda gazsimon yoqilg‘i aralashmasi karbyurator tomonidan hosil qilinadi va dvigatel tsilindriga klapan orqali so‘riladi va patronda esa, u tayyor holda (qattiq porox) bo‘ladi. Yoqilg‘i aralashmasining ishchi jismga aylanishi 1 elementlar IYD svechasi yoki piston yordamida amalga oshiriladi.




**6.4-rasm**

Ikkala mashinada ham ishchi jism 2 ishni bajaradigan 3 asosiy harakatlanuvchi komponentni – silindrini porshen yoki qurol stvolidagi o‘q (snaryad) ni harakatlantiradi. Ikkala mashinada ham ishchi jismning parametrlari harakatlanuvchi jismlarning massalariga, tuzilishi xususiyatlariga va kutilgan taktik va texnik xususiyatlariga muvofiq hisoblanadi. Shuning uchun, mashinalarga qo‘yiladigan kompleks talablar, ishchi jismning xususiyatlari va tuzilishiga nisbatan belgilanganlardan chetga chiqishlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Ko‘pincha bu talablar o‘zaro bog‘liqdir. Masalan, IYD ining porshen halqalarining yeyilishi silindrini ish bosimining pasayishiga olib keladi. Xuddi shu narsa o‘q otish quroli stvolini parmalash paytida sodir bo‘ladigan shishishida yuzaga keladi, bu o‘qotar qurolning ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

IYD lari va o‘qotar qurollarda ishchi jismlar (gazlar) har xil temperatura, bosim, hajm va tsiklning amalga oshish vaqtiga ega. Otish tsikli, ichki yonish dvigatelining tsikliga qaraganda (0,001 - 0,06 s), juda tez sodir bo‘ladi va bu jihatdan u boshqarilmaydigan portlashga o‘xshaydi. Ularda ishlatib bo‘lingan gazlar turli yo‘llar bilan chiqariladi va har xil rollar o‘ynaydi. Shunga qaramay, termodinamika

nuqtai nazaridan, bu qurilmalar o‘rtasida tub farq yo‘q - ikkalasi ham bir-biriga o‘xshash termodinamika tsikllarga muvofiq ishlaydi (6.5 - rasm). 6.5 - rasm *a* da ichki yonish dvigatelining tsikli ko‘rsatilgan, bu erda  $V_c$  - siqish kamerasining hajmi,  $V_h$  - ishchi hajmi va  $L$  - foydali ishga teng maydon. Yoqilg‘i yonishi doimiy hajmda sodir bo‘ladigan karbyuratorli IYD tsikli taxminan Otto tsikliga to‘g‘ri keladi, porshen yuqoridan o‘lik nuqtadan harakatlanayotganda yonilg‘i aralashmasini so‘rish bilan boshlanadi pastgacha davom etadi(0 - 1 izobar). Bundan tashqari, adiabata bo‘yicha 1-2 hosil bo‘ladi porshenni past o‘lik nuqtadan yuqori o‘lik nuqtaga siljitim orqali u siqiladi, va 2-nuqtada aralashma yonadi, buning natijasida yonish mahsulotlarining temperaturasi va bosimi izoxor 2-3 bo‘ylab keskin ortadi. Adiabatik 3-4 (ishchi yurish),



**6.5-rasm**

ishchi jism 4- nuqtagacha kengayadi, bu yerda chiqish klapani ochiladi va  $Q_2$  issiqlik chiqishi tufayli gazning bosimi va temperaturasi silindrda izoxorik ravishda tashqi qiymatlargacha kamayadi. Porshenning keyingi harakatlanishi (aylanadigan maxovikning inertsiyasi tufayli) yonish mahsulotlarini tsilindr dan chiqarish klapani orqali chiqarilishiga olib keladi (ishlatilgan gazlar izobari 1-0).

*Fizik modellarni yaratish uchun asosiy boshlang‘ich nuqta - bu idealizatsiya.* Shuning uchun dvigatelning termodinamik modelida ishchi jism idealizatsiya

qilingan. Bu *ideal gaz* hisoblanadi. Tizimning  $Q_1$  issiqlik bilan ta'minlanishi aralashma yonishining (oksidlanishining) ekzotermik reaktsiyasi tufayli emas, balki tashqi isitgich orqali amalga oshiriladi. O'qotar qurolning termodinamik tsikli sxematik tarzda 6.5-, b rasmda ko'rsatilgan. Tayyor aralashma (porox) tayyorgarlik jarayonida patron tarkibidagi ish joyiga qo'yiladi 1-2, 0-1 jarayoniga o'xhash 6.5-, a rasm. 2 - nuqtada, porox yonadi va gazlarga aylanadi, bu termodinamik model tilida  $Q_1$  issiqliknинг ishchi jismga berilishi deb tushuniladi. Bu izoxorik bosimning 2-3 oshishiga olib keladi. Adiabatik 3-4 tsiklda o'q (snaryad) tezlashadi, bu ishchi jism hajmining oshishi natijasida yuzaga keladi. Natijada, porox gazlarining zichligi va temperaturasi pasayadi. Yonayotgan zaryaddan kelayotgan yangi gazlar oqimi bosimning tushishini va ishchi jismning bosimi kamayishini qoplashga ulgurmeydi shuning uchun stvolda bosim kamayadi.

Snaryad (o'q ) stvoldan chiqib ketgach, gaz bosimi 4-1 izoxor bo'yab pasayadi, biroq, IYD laridan farqli ravishda, otish quroli porox gazlarining ergashuvchi ta'siriga ham ega. Stvol kanali yo'nalishidagi oqish jarayonida, bu gazlar stvolni xuddi uzaytirganday tuyuladi, va o'qning tezlashtirilishini davom ettiradi. Shunday qilib, snaryad(o'q) maksimal tezligiga stvolning og'zida emas, balki undan bir necha o'n santimetr uzoqlikda erishadi. Ta'riflangan ergashuvchi ta'sir o'qning tub qismidagi porox gazlarining bosimi havo qarshiligi bilan muvozanatlanganda tugaydi. 1-2 taktda mashina dastlabki holatiga qaytadi, tsikl tugaydi: yangi patronli qurozatvori dastlabki holatini oladi.

Termodinamik tsiklning ishi (va FIK), PV-diagrammada ko'rsatilgan 1-2-3-4-1 taktlar bilan chegaralangan yuza bilan belgilanadi. Foydali ish, shuningdek, ish taktining davomiyligi stvol uzunligiga bog'liq. U qanchalik uzun bo'lsa, gazning bosim kuchi o'qga shunchalik uzoq vaqt ta'sir qiladi va o'qning kinetik energiyasiga aylanadigan ish shunchalik ko'p bo'ladi. Shunga ko'ra, uning boshlang'ich tezligi, mo'ljalga olish uzoqligi va teshib o'tish kuchi katta bo'ladi. Bu masalada , masalan, mergan miltig'i karabin, avtomat va undan ham ko'proq to'pponchadan ustundir.

Biroq, stvol uzayishining chegarasi bor: o‘q (snaryad) zatvordan uzoqlashganda, gaz bosimining kuchi ishqalanish kuchidan kamroq bo‘lishi mumkin. Zaryadning quvvatini oshirish orqali gazning bosimini oshirish mumkin, lekin bu erda ham poroxning alanganishi tezligi bilan bog‘liq bo‘lgan chegara bor. Poroxning alanganishi tezligi stvoldagi zarba to‘lqinining tarqalish tezligidan past bo‘lgani uchun, zaryad juda ko‘p bo‘lsa, o‘q (snaryad) porox to‘liq yonib ketishidan oldin ham stvoldan uchib chiqishi mumkin. Bunday holda zaryadning faqat bir qismi samarasidan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bu atom bombasining yadroviy zaryadiga o‘xshaydi, uning ma’lum chegaradan oshishi portlash quvvatining oshishiga olib kelmaydi. Shuningdek, qurolning FIK ga, porox gazlar bosimga bog‘liq bo‘lgan stvoldan issiqlik chiqarilishi ham ta’sir qiladi, issiqlik chiqarilishi esa stvol va atmosfera orasidagi temperatura farqiga bog‘liq (5- bobning 4 -bandiga qarang).

Harbiy tarixdagi eng uzun stvolli qurol, 210 mm kalibrli “Kolossal” nomli nemis to‘pi edi. Uning yordamida Birinchi jahon urushi paytida Parij 110 km masofadan o‘qqa tutilgan (keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, bunday masofalarda bomba va raketalardan foydalanish samaraliroq bo‘ladi). 800 mm kalibrli “Dora” nomli nemis temir yo‘l to‘pi ham juda katta qurol edi. U 1942 yilda Sevastopolni egallashda va 1944 yilda Varshava qo‘zg‘olonini bostirishda qo‘llanilgan.

IYDLari va o‘qotar qurollarning termodinamik tsikllarini solishtirib, ularning asosiy farqi asosan texnik xarakteristikalarida yotadi degan xulosaga kelindi. Agar stvol kanalidagi porox gazlarining temperaturalari  $(2 \div 3) \cdot 10^3$ °C IYD ning tsilindridagi temperatura bilan deyarli bir xil (karbyurator - 2400 °C , dizel - 2000 °C) , biroq bosim sezilarli darajada farq qiladi: karbyuratorli dvigatel yonish kamerasida -  $5 \cdot 10^5$  Pa , dizel dvigatelida -  $10^7$  Pa, va stvol kanalida -  $(3 \div 4) \cdot 10^8$  Pa. Bu farq yuqori otish tezligi bilan birgalikda quvvat nisbatini ham belgilaydi: ichki yonuv dvigatelida -  $10^2$  -  $10^3$  kVt va , masalan, 76 mqli to‘pda esa,  $-2 \cdot 10^5$  kVt.

Porox gazlari energiyasining taqsimlanishiga kelsak, u qurol turiga, zaryadga va snaryadga qarab o‘zgaradi. Bu erda taxminiy nisbatlar quyidagicha: 20-40% -


snaryadning kinetik energiyasi (shundan - 0.6% -aylanma harakat energiyasi); 15-25% - issiqlik yo‘qotilishi; 3-5% - orqaga qaytish(tepki) energiyasi; qolgan qismi esa atmosferaga tarqaladi.

#### 6.4. Moddaning agregat holatlari

Tabiatdagi moddaning holati, qo‘lijodi texnologiyalari va mashinalarda bo‘lgani kabi, uning agregat holatiga bog‘liq. Moddaning agregat holati esa, atomlar orasidagi o‘rtacha masofa bilan belgilanadi. Atomlar orasidagi o‘rtacha masofa ularning issiqlik harakatining energiyasi va atomlarning elektrostatik o‘zaro ta’sirlari potentsial energiyasi  $E_p$  orasidagi o‘zaro munosabatga bog‘liq (6.6-rasm). Elektrostatik maydon (tortishish maydoni kabi) konservativ bo‘lgani uchun (3.2.-bandga qarang), konservativ kuchning  $F_l dl$  ishi potentsial energiyaning kamayishiga teng:

$$F_l = -\frac{dE_p}{dl}, \quad (6.26)$$

Demak, agar  $\frac{dE_p}{dl} < 0$  bo‘lsa, u holda  $F_l > 0$ , ya’ni, *kuch ko‘chish tomon yo‘nalgan*. Agar  $\frac{dE_p}{dl} > 0$  bo‘lsa, bunday holda  $F_l < 0$ , ya’ni, *kuch ko‘chish yo‘nalishiga qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan bo‘ladi*.



6.6-rasm

Bu munosabatlarni 6.6-rasmga qo‘llashga asoslanib, atomlar  $x = x_2$  holatiga intilishga moyilligini ko‘ramiz, bunda o‘zaro ta’sir energiyasi minimal,  $\frac{dE_p}{dl} = 0$ , ya’ni, *tizim muvozanatda*. Bu energiya minimumi tamoyilining timsollaridan biridir.

$x_2$  oraliq masofa molekula

kattaligi tartibida bo‘ladi.  $x \gg x_2$ , bu *gazlar* uchun xarakterli, bunda  $\frac{dE_p}{dl}$  shunchalik kichikki, atomlar amalda o‘zaro ta’sir qilmaydi. Shuning uchun gazlar kengayishi va siqilishi oson.  $x \sim x_2$  qiymati *suyuq* va *qattiq* moddalar uchun xosdir.  $x < x_2$  da potentsial egri chiziq  $x > x_2$  ga qaraganda ancha tik, ya’ni, kuchlar (6.24) juda katta. Shuning uchun suyuq va qattiq moddalarni siqish qiyin.

Agar modda *suyuq* holatda bo‘lsa, molekulalar gazlarga xos bo‘lgan mustaqillikni yo‘qotadi. Ular ma’lum tartibda guruhlarga birlashtirilgan. Shu bilan birga, guruhlar bir butundir va bir-biriga nisbatan oson ko‘chadi, bu esa suyuq holatga *oqim* xususiyatini beradi.

*Qattiq* jismning o‘ziga xos xususiyati - atomlar orasidagi qattiq bog‘lanish, bu uning hajmini va qattiqligini ta’minlaydi. Atomlar geometrik jihatdan to‘g‘ri almashinib, davriy ravishda aynan bir xil *kristall tuzilishi* takrorlanadi. Bu tuzilish *fazoviy panjara* shakliga ega, atomlar fazoviy panjaraning tugunlarini hosil qiladi. Mumkin bo‘lgan tuzilmalar kubik, geksagonal(olti burchakli), tetragonal, triklin va boshqalar bo‘lishi mumkin. Kristall panjaraning turi kristaldagi takrorlanuvchi *elementar yacheyska* tomonidan aniqlanadi, uning ko‘chirilishi natijasida butun kristalni qayta ishlab chiqish mumkin. Ba’zi panjaralar atomlarning eng ixcham joylanishini amalga oshiradi. Strukturaviy nuqsonlar ham bor (tartibdan chetga chiqish), ularni *dislokatsiya* deyiladi.

Bir kristall panjaradan tashkil topgan material *monokristall* deyiladi. Kristall panjara muntazam geometrik shaklga ega bo‘lib, panjara simmetriyasini aks ettiradi. Bunga tog‘ jinslaridan tashkil topgan kvarts misol bo‘lishi mumkin. Biroq, ko‘pincha qattiq jism bu bir-biriga ixtiyoriy tarzda bog‘langan kichik kristallarning majmuasi hisoblanadi. Bir-biridan farq qiladigan bunday struktura, masalan, metallar *polikristall* deb ataladi.

Qattiq jism sutructurasini sun’iy ravishda to‘yingan eritma yoki eritmagan olingan momokristallarni o‘stirish yo‘li bilan ham shakllantirish mumkin.

*Kondensatsiyalangan* holatdagi moddalar (suyuq yoki qattiq) hajmi isitish vaqtida kam o‘zgaradi va shuning uchun  $c_p \sim c_v$ . Hajmning ozgina o‘zgarishi *issiqlikdan kengayish koeffitsienti*  $\alpha$  bilan aniqlanadi. Gey-Lyussak qonuniga asosan


$$\alpha = \frac{1}{V} \frac{dV}{dT}. \quad (6.27)$$

Ko‘pgina moddalar uchun, xuddi shunday gazlar uchun ham  $\alpha > 0$ , biroq istisno ham mavjud. Masalan, suvni 0 — 4°C oralig‘idagi qizdirilganda, uning hajmi kamayadi. Umuman olganda, suyuqliklar uchun  $\alpha \sim 10^{-4} K^{-1}$ , va qattiq jismlar uchun esa, yana bir daraja tartibida kamroq. Shunga qaramay, issiqlikdan kengayish mashinalar, asboblar va qurilish konstruksiyalarida jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun u, masalan, issiqlik bo‘shliqlarni hosil qilish orqali hisobga olinadi.

Kam energiyali sathdagi atomlarning issiqlik tebranishlari  $x_2$  muvozanat masofasiga nisbatan simmetrikdir (6.6-rasmga qarang). Temperaturaning oshishi bilan egri chiziqning assimetriysi tufayli ular angarmonikaga aylanadi va atomlar orasidagi o‘rtacha masifa ortadi, ular orasidagi bog‘lanish zaiflashadi, keyin esa uziladi. Bu miqdor (atomlarning energiyasi) ning sifatga (moddaning boshqa agregat holati) aylanishi misolidir. Moddaning bir fazadan boshqasiga o‘tadigan temperaturasi (6.7-rasm, a), *fazaviy o‘tish* (aylanish) *temperaturasi* deyiladi. Bularga erish va qotish; bug‘lanish va kondensatsiya; sublimatsiya (haydash) temperaturalari (nuqtalari) kiradi.

*Birinchi tur fazaviy o‘tish*, o‘tish paytida moddaning temperaturasi o‘zgarmasligi bilan xarakterlanadi, lekin uning hajmi o‘zgaradi. Kondensatsiyalangan fazadan kichik zichlikdagi fazaga o‘tishi uchun moddaga, molekulalar bog‘lanishining potentsial energiyasiga mos keladigan energiya (issiqlik) berish kerak. Chunki u temperaturaning oshishiga olib kelmasdan bog‘lanishlarni uzadi, unga *aylanishning yashirin issiqligi* deyiladi. Erganida, bu kristall panjaraning yemirilishiga, bug‘lanish paytida - suyuqlik molekulalarining bir-biridan

uzoqlashishiga va boshqalarga olib keladi. Bunday o‘tish paytida moddaning egallagan hajmi va molekulalarning xatti-harakatidagi betartiblik darajasi ortadi, va tizimning entropiyasi ham oshadi. Qarama-qarshi yo‘nalishdagi o‘tish paytida tizim xuddi shunday aylanishning yashirin issiqligini chiqaradi va uning entropiyasi pasayadi.



**6.7-rasm**

Moddaning turli fazalari orasida muvozanat o‘rnatiladigan tizim holati parametrlarining shunday birligi ham mavjud. 4.13, b – rasmda 1-2 bug‘ izotermasi 2 nuqtada 2-4 sohada gorizontal chiziqliqa o‘tadi, bu soha bug‘ va suyuqlik muvozanatiga mos keladi. Bunda ikki fazali tizimning umumiy hajmi har xil bo‘lishi mumkin. Bug‘ bu erda to‘yingan va uning bosimi  $p_s$  temperaturaga bog‘liq. 4 nuqtada barcha bug‘ suyuqlikka aylanadi. Qaynash markazlari bo‘lmasa, juda qizib ketgan suyuqliknini ham olish mumkin (4-6 soha). Qarama-qarshi jarayonda, 2 nuqta bug‘ning kondensatsiyasiga to‘g‘ri keladi. U kondensatsiya markazlaridan boshlanadi, masalan, boshqa jinsli aralashmalardan, ular bo‘lmaganda, to‘yingan bug‘ paydo bo‘ladi (2-3 soha).

Xuddi shu tarzda, «qattiq jism - suyuqlik» muvozanati tasvirlangan *erish egri chizig‘i* va «qattiq jism - gaz» muvozanati – *sublimatsiya(haydash)* *egri chizig‘i*. Bu

egri chiziqlar p<sub>t</sub> nuqtada ulanadi, bu yerda barcha uch faza muvozanatda bo‘ladi (4.13, a - rasmga qarang), masalan, suvning uchlangan nuqtasida ( $T = 273,16\text{ K}$ ).

So‘nggi yillarda g‘ayrioddiy xususiyatlarga ega bo‘lgan moddaning yangi shakllarini olish imkoniyatiga katta e’tibor berilmoqda, masalan, kompozit materiallar, suyuq kristallar yoki uglerod atomlari hosil qilgan tizimlar. 1985 yilda fullerenlar kashf etilgan – atom holidagi qavariq yopiq ko‘p qirrali, sferik konstruktsiyaga yaqin, unda har bir uglerod atomi bitta beshburchak va ikkita olti burchak burchaklarida joylashgan. Kashf etilgandan beri ularidan barcha turdagи mahsulotlar (nanonaychalar, yarimo‘tkazgichli asboblar, simlar, tibbiy preparatlar) yaratildi, ular ancha istiqbolli bo‘lib bormoqda . Uglerod atomlari yordamida ikki o‘lchovli kristall (olti burchakli) *grafen* deb ataluvchi monoqatlam hosil qilish mumkin. Grafen yuqori darajadagi qattiqlik, issiqlik va elektr o‘tkazuvchanligi ega. Ushbu material bilan istiqbolli tajribalari uchun Rossiyalik A.K.Geym va K. S. Novoselov 2010 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lган.

## XULOSA

Termodinamik usul MKNdan energiyaning saqlanish qonuniga bo‘ysunadigan energiya munosabatlariga asoslanganligi bilan farq qiladi. Termodinamikaning birinchi va ikkinchi qonunlari issiqlik jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini va yo‘nalishini belgilaydi hamda ko‘plab mashinalarning, shu jumladan qurollar va harbiy texnikalarning ishlashiga asos bo‘ladi.

### Nazorat uchun savollar

- 1.Bir xil miqdordagi bir va ikki atomli gazlar temperaturasi  $\Delta T$  ga o‘zgartirildi. Bu o‘zgartirishga bir xil issiqlik miqdori talab qilinadimi?
- 2.Porox gazlarining tez kengayishini adiabatik jarayon deb hisoblash mumkin. Nima uchun otalganda avtomat stvoli qiziydi?

3.Qaysi issiqlik sig‘imi katta - molyar yoki solishtirma? Vodorod va uglerod uchun molyar issiqlik sig‘imining solishtirma issiqlik sig‘imiga nisbati qanday farq qiladi?

4. Ikkita bir xil hajmdagi gaz, bir xil sharoitda, bir xil yakuniy hajmlarga siqiladi, biri tez, ikkinchisi sekin. Qaysi holatda bajarilgan ish katta?

5. Nima uchun kichkina kavsharlagich kostryulkalarni qalaylash uchun mos emas?

6. Qaysi paytda avtomobil dvigateli samarali ishlaydi – qishdami yoki yozda?

7. Ishlab turgan sovutgichning eshigi ochiq turganda, sovutgich turgan xonaning temperaturasi qanday o‘zgaradi?

8.Karno tsiklida gazning kengayish darajasini oshiramiz. Ish qanday o‘zgaradi?

FIK chi?

9. Beshinchi qavatda yongan ko‘mirning potentsial energiyasi qo‘srimcha issiqlik berishi kerak emasmi? Siqilgan prujina kislotada eriganda, uning potentsial energiyasi qayerga ketadi?

### Masala yechish namunalari

**6.1.** Atrofdagi havoning temperaturasi  $27^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda,  $2\text{g}$  massali geliy bilan to‘ldirilganda havo sharining vajmi ko‘tarilish jarayonida  $10\%$  ga oshdi. Geliy qanday ish bajargan?

**Berilgan:**  $m = 2 \text{ g} = 2 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$ ;  $M = 4 \cdot 10^{-3} \text{ kg/mol}$ ;  $t = 27^{\circ}\text{C} = 300 \text{ K}$ ;  $V_2 = 1,1V_1$

A — ?

**Yechish.** Kechayotgan jarayon izotermik bo‘lgani uchun,

$$A = vRT \ln \frac{V_2}{V_1}.$$

$$\text{Bu holda } A = \frac{m_{He}}{M_{He}} RT \ln 1,1.$$

Son qiymatlarini qo‘yib hisoblasak,  $A \approx 119 \text{ J}$  ni olamiz .

**6.2.** Qurol snaryadining massasi 25 kg, stvoldan uchib chiqish paytidagi tezligi 800 m/s , porox gazlarining massasi(zaryad massasi) 3,8 kg, poroxning issiqlik berish qobiliyati(yuqori chegarasi)  $\lambda = 10 \text{ MJ/kg}$ . Bunday qurolning FIK nimaga teng?

**Berilgan:**  $m_s = 25 \text{ kg}$ ;  $m_z = 3,8 \text{ kg}$ ;  $\lambda = 10 \text{ MJ/kg}$ .

FIK — ?

**Yechish.** Foydali energiya  $E_{foy}$  deb snaryadning stvoldan chiqish vaqtidagi energiyasini, sarflangan energiya  $E_{sar_f}$ sifatida esa, zaryad yonishi natijasida hosil bo‘lgan energiyani olsak, quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\eta = \frac{E_{foy}}{E_{sar_f}} = \frac{0,5m_s\vartheta^2}{m_z\lambda} .$$

Son qiymatlarini qo‘yib hisoblasak,  $\eta = 0,21$  ni olamiz.

*Izoh.* Olingan natija aviatsiya dvigatellari FIK ga taqqoslasa bo‘ladigan darajada.

### Mustaqil yechish uuchun masalalar

6.3.Ikki atomli gazning solishtirma issiqlik sig‘imlari orasidagi farq  $C_p - C_V = 260 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$  ga teng. Gazning molyar massasini va uning solishtirma issiqlik sigimini toping.

6.4.Tarkibi kislород ва argon bo‘lgan gazlar aralashmasining adiabata ko‘rsatkichini toping, aralashmadagi ikkala gazning ham modda miqdori bir xil.

6.5. Kislород 80 kPa doimiy bosimda isitiladi. Uning hajmi  $1 \text{ m}^3$  dan  $3 \text{ m}^3$  gacha oshadi. Kislородning ichki energiyasining o‘zgarishini, uning kengayish paytida bajargan ishini va gazga berilgan issiqlik miqdorini aniqlang.

6.6. Ideal gaz bosimi  $p_1 = 0,4 \text{ MPa}$  va hajmi  $V_1 = 3 \text{ m}^3$  bo‘lgan holatdan, bosimi  $p_2 = 0,2 \text{ MPa}$  va hajmli  $V_2 = 1 \text{ m}^3$  bo‘lgan holatga har xil yo‘llar bilan o‘tkaziladi. Bitta o‘tish avval izobara bo‘yicha, so‘ngra izoxora bo‘yicha amalga

oshirildi, ikkinchisi – avval izoxora bo‘yicha, so‘ngra izobara bo‘yicha. Qaysi holatda ko‘proq issiqlik chiqariladi va qancha?

6.7. Ideal Carno tsikli bo‘yicha ishlayotgan issiqlik dvigateli  $610^{\circ}\text{C}$  temperaturali isitgichdan foydalanadi va 27% FIK ga ega. FIKni 35%ga oshirishi uchun sovutgichning temperaturasini avvalgicha qoldirgan holda, isitgich temperaturasi qanday bo‘lishi kerak?

6.8. Massasi  $m = 100$  g bo‘lgan suvni qizdirganda entropiyaning o‘zgarishini toping. Suv  $t_1 = 0^{\circ}\text{C}$  dan  $t_2 = 100^{\circ}\text{C}$  gacha qizdiriladi va so‘ngra xuddi shu temperaturada suv bug‘ga aylanadi. Suvning solishtirma bug‘lanish issiqligi  $r = 2,26 \cdot 10^6$  J/kg. Suvning solishtirma issiqlik sig‘imi  $c = 4200$  J/(kg K).

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Jankoli.D. «FIZIKA» V.2 Tomah.Per.s.ang.M.- Mir.1989 g.-321c.
- 2.Douglas Ciancoli. Phusics a General Course. 2010 year.Chapter 1-43.
- 3.Q.P. Abduraxmanov, V.S. Xamidov, N.A. Axmedova, «FIZIKA», DARSLIK TOSHKENT 2017 y.
4. Бондарев, Б. В. Курс общей физики. Книга 3: Термодинамика, статистическая физика, строение вещества : учебник для бакалавров / Б. В. Бондарев, Н. П. Калашников, Г. Г. Спирин. — 2-е изд. — М.: Издательство Юрайт, 2016.
- 5.Волькенштейн, В. С. Сборник задач по общему курсу физики / В. С. Волькенштейн. — М.: Книжный мир, 2008. — 328 с.
- 6.Кравченко, Н. Ю. Физика: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / Н. Ю. Кравченко. — М.: Издательство Юрайт, 2016.
- 7.Никеров, В. А. Физика: учебник и практикум для академического бакалавриата / В. А. Никеров. — М.: Издательство Юрайт, 2015.
8. Misirov Sh.Ch.Fizika kursi(Mexanika)
9. Misirov Sh.Ch.Fizika kursi(Molekulyar fizika va termodinamika asoslari)
10. Misirov Sh.Ch. Harbiy-amaliy masalalarining fizik asoslari
- 11.Трофимова, Т. И. Руководство к решению задач по физике : учеб, пособие. 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2015. — 265 с.
- 12.Ильин, В. А. История и методология физики / В. А. Ильин, В. В. Кудрявцев. — М.: Издательство Юрайт, 2014. — 579 с.
- 13.Яворский, Б.М. Основы физики : учеб, пособие. Т. 1, 2 / Б. М. Яворский, А. А. Пинский. — М.: Физматлит, 2003. — 1128 с.
14. Яворский, Б. М. Справочник по физике для инженеров и студентов вузов / Б. М. Яворский, А. А. Детлаф, А. К. Лебедев. — М.: Оникс, 2006. — 1056 с.

**Xalqaro birliklar tizimi(XB)**

<b>Fizik kattalik</b>		<b>Birlik</b>	
<b>Nomi</b>	<b>Belgisi</b>	<b>Nomi</b>	<b>Belgisi</b>
<b>Asosiy</b>			
Uzunlik	$l$	metr	m
Vaqt	$t$	sekund	s
Massa	m	kilogramm	kg
Modda miqdori	$\nu$	mol	mol
Termodinamik temperatura	T	kelvin	KTo
Tok kuchi	I	amper	A
Yorug'lik kuchi	J	kandela	kd
<b>Qo'shimcha</b>			
Tekis burchak	$\alpha, \varphi$	radian	rad
Fazoviy burchak	$\Omega$	steradian	sr

**Asosiy fizik doimiylar**

<b>Nomi</b>	<b>Belgisi</b>	<b>Qiymati</b>
Gravitsion doimiy	G	$6,67 \cdot 10^{-11} \text{ N} \cdot \text{m/kg}^2$
Yorug'likning vakuumdagi tezligi	c	$3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$
Avogadro doimiysi	$N_A$	$6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$
Bol'tsman doimiysi	k	$1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/kg}$
Gaz universal doimiysi	R	$8,31^{23} \text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$

**Ayrim astronomik kattaliklar**

<b>Nomi</b>	<b>Qiymati</b>
Quyosh radiusi	$6,95 \cdot 10^8 \text{ m}$
Yer radiusi	$6,37 \cdot 10^6 \text{ m}$
Oy radiusi	$1,74 \cdot 10^6 \text{ m}$
Yer massasi	$5,96 \cdot 10^{24} \text{ kg}$
Oy massasi	$7,3 \cdot 10^{22} \text{ kg}$
Quyosh massasi	$1,97 \cdot 10^{30} \text{ kg}$
Oydan Yergacha bo'lgan o'rtacha masofa	$3,8 \cdot 10^8 \text{ m}$

Yerdan Quyoshgacha bo‘lgan o‘rtacha masofa	$1,5 \cdot 10^{11}$ m
Yerga erkin tushish tezlanishi	$9,8 \text{ m/s}^2$

### O‘nga karrali va ulushli birliklar

Ko‘paytiruvchi	Old qo‘shimcha
$10^{12}$	tera
$10^9$	giga
$10^6$	mega
$10^3$	kilo
$10^2$	gekto
$10^1$	deka
$10^{-1}$	detsi
$10^{-2}$	santi
$10^{-3}$	milli
$10^{-6}$	mikro
$10^{-9}$	nano
$10^{-12}$	piko

### Ayrim sistemadan tashqari birliklar va ularni XBT ga o‘tkazish

Fizik kattalik	Birlikning nomi	XBT ga o‘tkazish(yaxlitlangan)
Uzunlik	versta	1,1 km
	sajen	2,1 m
	arshin	0,7 m
	vershok	4,4 sm
	quruqlik milyasi	1,6 km
	dengiz milyasi	1,9 km
	yard	0,9 m
	fut	0,3 m
	dyuym	2,54 sm
	kalibr(0,01 dyuym)	254 mkm
Yuza	gektar	$10^4 \text{ m}^2$
	ar	$100 \text{ m}^2$

	akr	$4,05 \text{ m}^2$
Vajm	litr	$10^{-3} \text{ m}^3$
	gallon(AQSH)	$3,9 \text{ dm}^3$
	pinta(AQSH)	$0,47 \text{ dm}^3$
	suyuqlik kvartasi(AQSH)	$0,95 \text{ dm}^3$
	suyuqlik untsiyasi(AQSH)	$29,6 \text{ sm}^3$
	neft barreli(AQSH)	$159 \text{ dm}^3$
	bushell(AQSH)	$35,2 \text{ dm}^3$
Massa	pud	$16,4 \text{ kg}$
	funt	$0,41 \text{ kg}$
	misqol	$4,3 \text{ g}$
	gran	$64,8 \text{ mg}$
	untsiya(savdo)	$28,3 \text{ gr}$
	karat	$0,2 \text{ gr}$
	tonna	$1000 \text{ kg}$
Vaqt	minut	$60 \text{ s}$
	soat	$3600 \text{ s}$
Tezlik	km/soat	$0,278 \text{ m/s}$
	uzel(dengiz)	$0,51 \text{ m/s}$
Quvvat	ot kuchi	$745,7 \text{ Vatt}$
Yassi burchak	Gradus	$1,75 \cdot 10^{-2} \text{ rad}$
	Minut	$2 \cdot 10^{-4} \text{ rad}$
	Sekund	$4,8 \cdot 10^{-6} \text{ rad}$
Bosim	texnik atmosfera	$1,01 \cdot 10^5 \text{ Pa}$
	millimetrit simob ustuni	$133,3 \text{ Pa}$
	millimetrit suv ustuni	$9,81 \text{ Pa}$
	Torr	$133,3 \text{ Pa}$
	Bar	$10^5 \text{ Pa}$
Issiqlik miqdori	Kalloriya	$4,2 \text{ J}$

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	7
<b>1-BO'LIM. MEXANIKA, I.BOB. KINEMATIKA</b>	14
1.1 Moddiy nuqta kinematikasi, 1.1.1 Mexanika, mexanikada Modellashtirishlar	
<b>II BOB.DINAMIKA, 2.1 Moddiy nuqta dinamikasi</b>	37
<b>3-BOB. ISH VA ENERGIYA, 3.1. Ish va energiya</b>	54
<b>4-BOB. AYLANMA HARAKAT, 4.1. Aylanma harakat kinematikasi</b>	82
<b>5-BO'LIM. MOLEKULYAR FIZIKA VA TERMODINAMIKA,</b>	103
5.1. Klassik statistika tamoyillari	
<b>6 - BOB. TEMODINAMIKA, 6.1.Termodinamikaning bиринчи qонуни</b>	125
<b>Adabiyotlar</b>	146
<b>ILOVALAR</b>	147
<b>Mundarija</b>	150

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ</b>	7
<b>СЕКЦИЯ 1. МЕХАНИКА, ГЛАВА I. КИНЕМАТИКА</b>	14
1.2 Кинематика материальной точки, 1.1.1 Механика, в механике Моделирование	
<b>ГЛАВА 2. ДИНАМИКА, 2.1 Динамика материальной точки</b>	37
<b>ГЛАВА 3. РАБОТА И ЭНЕРГИЯ, 3.1. Работа и энергия</b>	54
<b>ГЛАВА 4. ВРАЩАЮЩЕЕ ДВИЖЕНИЕ, 4.1. Кинематика</b>	82
вращательного движения	
<b>РАЗДЕЛ 5. МОЛЕКУЛЯРНАЯ ФИЗИКА И ТЕРМОДИНАМИКА, 103</b>	
5.1. Принципы классической статистики.	
<b>ГЛАВА 6. ТЕМОДИНАМИКА, 6.1 Первый закон термодинамики</b>	125
<b>Ссылки</b>	146
<b>ПРИЛОЖЕНИЯ</b>	147
<b>Содержание</b>	150

## TABLE OF CONTENTS

<b>INTRODUCTION</b>	7
<b>SECTION 1. MECHANICS, CHAPTER I. KINEMATICS</b>	14
1.2 Kinematics of a material point, 1.1.1 Mechanics, in mechanics	
Simulation	
<b>CHAPTER 2. DYNAMICS,</b>	37
2.1 Dynamics of material point	
<b>CHAPTER 3. WORK AND ENERGY,</b>	54
3.1. Work and energy	
<b>CHAPTER 4. ROTATING MOVEMENT,</b>	82
4.1. Kinematics of rotary motion	
<b>SECTION 5. MOLECULAR PHYSICS AND THERMODYNAMICS,</b>	103
5.1. Principles of classical statistics	
<b>CHAPTER 6. THEMODYNAMICS,</b>	125
6.1 The first law of thermodynamics Links	
Links	146
<b>ILOVALAR</b>	147
<b>Content</b>	150